

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

FANNI O‘QITISH METODIKASI

**MODULI BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

Buxoro – 2024

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan **pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi uchun mo'ljallangan** pedagogik qayta tayyorlash 4 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ishchi o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

BuxDPI “Pedagogika” kafedrası
dotsenti, p.f.f.d.(PhD) A.N.Nusratov

Taqrizchi:

SH.SH.Olimov BuxDU professori, p.f.d.,

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli bayonnoma)**

№	MUNDARIJA	
1.	Kirish	
2.	Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni	
3.	Amaliy mashg'ulotlar mazmuni	
4.	Mustaqil ta'lim mazmuni	
5.	Glossariy	
6.	Ilovalar – fan dasturi – tarqatma materiallar – testlar	

KIRISH

Fanni o'qitishdan maqsad- Fanni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanni o'qitish metodikasi fanining pedagogik fanlar tizimidagi o'rni. Fanni o'qitishda didaktik tamoyillar va qoidalar. Maxsus fanlarni o'qitishning o'quv-meyoriy xujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi. Fanlarni o'qitishda ko'rgazmali vositalarni tayyorlash metodikasi. dolzarb masalalarni o'rganishning zarurati va ahamiyati tashkil etadi. Fanning vazifasi – Tinglovchilarni fanni o'qitish metodikasi mazmuniga doir jahon va respublikamizda fanlarni o'qitish mazmuni va tizimini rivojlanishini qiyosiy tahlil qilishga o'rgatish; jahon pedagogikasining rivojlanish tendensiyalarini to'la anglay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

MA'RUZA MASHG'ULOTI MAZMUNI

1-MAVZU: FANNI O'QITISH METODIKASI METODIKASINING PREDMETI, MAQSADI VA UNING VAZIFALARI. (2 soat)

Reja

- 1 Fanni o'qitish metodikasi haqida tushuncha.
2. Fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar.
3. Ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari.

Tayanch so'zlar: fan, pedagogika, metod, metodika, o'rgatish, o'qitish, o'rganish, ta'lim, o'qitish metodikasi, bilim, ko'nikma, malaka, predmet, maqsad, vazifa, fanlararo bog'liqlik.

1. Fanlarni o'qitish metodikasi haqida tushuncha.

Fanni o'qitish metodikasi fani o'qituvchilarining mavjud amaliy tajribalari, shuningdek, oliy o'quv yurtlari didaktikasi bo'yicha individual tadqiqotlar pedagogika o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy qoidalar, tamoyillar, qoidalar va tavsiyalarni tizimlashtirish imkonini berdi. Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o'tkazish usullari, yo'llari majmuasidir.

Metodika – bu xususiy didaktika, ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi. O'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida biror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqadi va ta'lim oluvchilarga ta'sir etishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiy qoidalariga

tayanadi. Tarbiya tamoyillariga asoslanib esa, metodika o'quv fani maqsadi, uning ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Pedagog olim T.A.Ilinaning fikricha, didaktika turli ta'lim mu-assalarida xilma-xil o'quv fanlarini amalga oshiriladigan o'quv jarayoni-ning umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiyki, har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlariga ega, o'zining alohida metodlari va ta'limni tashkil etish shakllarini talab etadi. Mazkur masalalar bilan xususiy metodika, yoki alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi (tarix, matematika, pedagogika, psixologiya va boshqalar) shug'ullanadi.

Pedagogika fan sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar. "Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liklikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, "O'quv fanlarini o'qitish metodikasi ma'lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir"

1. G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirovlarning fikricha, "O'qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir"

2.O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:
aniqlik;

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o'qitish metodikasi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

1 Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб.пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с. ISBN 5-238-00259-9

2 Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь. — Academia, 2005.

- ta'limning maqsad va vazifalarini – ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;
- ta'limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta'lim mazmunini;
- ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
- ta'limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o'quv vositalari;
- o'qitish natijasini.

Metodologiya (yunoncha. *methodos* — nazariya, ta'limot, bilish yoki tadqiqot yo'li va *logos* — so'z, tushuncha): 1) amaliy va nazariy faoliyatni qurish va tashkil etish yo'llari va prinsiplar tizimi; 2) bilishning ilmiy metodi to'g'risidagi ta'limot; 3) u yoki bu fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi ma'nolarini anglatadi.

Pedagogika fanining metodologiyasi — bu pedagogik borliqni o'zgartirish va bilish jarayonlarini shakllari, metodlari va prinsiplari to'g'risidagi ta'limot. Fan metodologiyasi tadqiqot komponentlarini tavsiflab, tadqiqot vazifalarini hal etish jarayonida harakatlar ketma-ketligi va bosqichlari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirib, tadqiqotning metod hamda vositalari yig'indisini, vazifalarini, tadqiqot obyekti va predmetini tavsiflaydi. Demak, pedagogika fanini o'qitish metodikasi metodologiyasi fan metodologiyasining falsafiy va maxsus-ilmiy darajalariga asoslanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, metodologiya barcha darajalari o'zaro bog'liq va bir-biriga bo'ysunadi, shuning uchun ular yaxlit tizimni tashkil qiladi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o'qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o'tamiz:

- 1) o'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;
- 2) o'rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi;
- 3) o'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o'zaro harakati;
- 4) ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;
- 5) bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;
- 6) ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;
- 7) malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi;
- 8) maqsad – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi;
- 9) mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;
- 10) tashkil etish - qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon;
- 11) shakl - o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq;
- 12) metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li;

- 13) vosita - o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt;
- 14) natija - o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.
- 15) metodik (uslubiy) ko'rsatma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo'llanma.

Pedagogika fanlarni o'qitish metodikasi – bu nazariya va amaliyotning umumlashgan ko'rinishidir. U o'qituvchi va ta'lim oluvchilar birgalikdagi faoliyati, ta'lim mazmuni, shakl va metodlari birligi sifatida pedagogik fanlarni o'qitish jarayonini tadqiq etadi. Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarni yuqori kasbiy tayyorgarligini ta'minlash uchun butun e'tiborini ta'limning qonuniyatlari va tamoyillari, uning shakl va metodlarini asoslashga qaratadi. Bundan tashqari pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi doimiy ravishda pedagogika fanlarni o'qitishning qonuniyatlarini ochish va asoslab berishga hamda uning asosida ta'lim jarayonini boshqarish yo'llarini izlab topadi.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasining metodologik asoslarini aniqlashtirish uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari to'g'risida savollar tug'dirish imkonini berdi. O'quv adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogika va pedagogika o'qitish metodikasi darsliklarida bu masala bo'yicha tushunchalar birligi mavjud emas. O'tgan asrning 60-yillarida klassik ta'rif keng tarqaldi: o'quv predmeti metodikasi muayyan o'quv predmetini o'qitish qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika fanidir³. Ushbu yondashuv ko'plab tadqiqotchilar va amaliyotchilarni pedagogika o'qitish metodologiyasini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqishga yo'naltirdi.

³Виненко В.Г. Общие основы педагогики: учеб. пособие /В.Г. Виненко. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2009. – 300с.

Keyinchalik pedagogika o'qitish metodikasi deb nomlandi:

-pedagogikani o'qitish o'rganishning umumiy qonuniyatlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi predmet didaktikasi⁴;

- pedagogikani o'qitishga qo'yiladigan me'yoriy talablar bo'lgan metodik elementlar majmuini belgilovchi metodik tizim⁵;

- barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'quv fanini o'qitish va o'rganish qonuniyatlarini o'rganuvchi xususiy yoki fan metodologiyasi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchilar metodologiya obyekti sifatida o'quv fanini o'qitish jarayonini, o'quv jarayonining qonuniyatlari esa mavzuni ajratib ko'rsatadilar.

O'qitish metodikasi obyekti aslida fan ma'lumoti, tarbiyasi va ta'limi bilan belgilanadi. Ta'lim, tarbiya va rivojlanish asosan o'rganish jarayonida amalga oshiriladi, shuning uchun metodikaning obyekti fanni o'qitish jarayonidir, deb hisoblash mumkin. Shunday qilib, o'qitishning asosiy funksiyalari - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, funksiyalari: tashkiliy, strukturaviy, psixologik, integratsiya-differensiatsiya, maslahat, nazorat-dagnostika, korreksion, refleksiv, fasilitatsion kabi funksiyalar bilan boy etish mumkin.

Ta'limiy funksiya - pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotda qo'llash uchun sharoit yaratish. Rivojlantiruvchi funksiya talabalar shaxsining aqliy, hissiy, hissiy-irodaviy, motivatsion va kommunikativ sohalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan faol o'qitish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tarbiyaviy funksiya o'quvchilarni turli xil faoliyat turlarini tashkil etish va joriy etishdan iborat bo'lib, ular davomida o'quvchilar shaxsining intellektual, hissiy va irodaviy fazilatlari, kasbiy va aksiologik qarashlari va e'tiqodlari, shuningdek, o'quv va kognitiv

4 Астафьева Л.С. Педагогика: учеб пособие /Л.С. Астафьева. – М.: Изд-во РУДН, 2010. – 121с.

5 Виленский В.Я., Образцов П.И., Уман А.И. Технологии профессионально- ориентированного обучения в высшей школе: учеб. пособие /В.Я. Виленский и др. – М.: Пед. Об-во России, 2004. - 192с.

faoliyat motivlari shakllanadi. Tashkiliy funksiya pedagogik fanlarni o'qitish mazmuni, hajmi va sifati bilan o'quvchilarning bilish faoliyati o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. O'qitishning strukturaviy funksiyasi har bir alohida dars uchun pedagogika bo'yicha o'quv materialini tartiblash va tizimlashtirishdan iborat.


Psixologik funksiya talabalarning ishlashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir: odatdagi vaqt, tanish sinflar, ma'lum o'quv talablari va boshqalar - bularning barchasi ishga ijobiy munosabat va qulaylik hissi yaratadi. Integratsiyalash-differensiallash funksiya o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishdan iborat bo'lib, bunda har bir o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda faoliyatini individuallashtirish uchun sharoitlar yaratiladi. Maslahat funksiyasi pedagogika bo'yicha guruh va individual maslahatlar o'tkazish, o'quv materialini o'zlashtirishda yordam berish, kerakli ma'lumotlarni taqdim etish, savollarga javob berish, o'quv ma'lumotlarini taqdim etish usullari, ta'til paytida ishlash bo'yicha maslahatlardan iborat.

Nazorat va diagnostika funksiyasi o'quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi bo'yicha fikr-mulohazalarni bildirishdan iborat. Korreksion funksiyasi o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash asosida tartibga solish va tuzatishni o'z ichiga oladi.

Refleksiv funksiya pedagogikani o'qitish jarayonida o'z harakatlarini tushunishga, boshqalarni (talabalar, hamkasblar) tushunishga, ularga yordam berishga, o'z harakatlarini boshqa subyektlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan. Fasilitatsion funksiya o'quvchilarga pedagogik bilimlarni o'zlashtirishga metodik, psixologik va texnik yordam berishdir.

Shunday qilib, an'anaviy o'qitish funksiyalari g'oyasi ham vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Masalan, ta'limiy funksiya bilimlarni birlashtirish, sinfda

o'quvchilarning evristik faoliyatini tashkil etish, modellashtirish, aks ettirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun metodikaning obykti sifatida o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanadigan o'quv jarayoni ko'rib chiqilishi mumkin, bu jarayon davomida ko'plab o'zaro bog'liq funksiyalar amalga oshiriladi. Pedagogika o'qitish metodikasi predmetini bu fanni o'qitishning maqsadi va predmet mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, shakllari va texnologiyalari tashkil etadi. Eng muhim element - bu pedagogika o'qitish maqsadi bo'lib, u boshqa barcha elementlarni (o'qitishning mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, shakllari va texnologiyalari) belgilaydi. Barcha elementlarning munosabatlari diagramma sifatida ifodalanishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi elementlarining o'zaro bog'liqligi

Demak, pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi nazariya va amaliyotning uyg'unligidir. Metodika pedagogik fanlarni o'qitish jarayonini tarkibiy qismlarini (o'qitish, o'rgatish, o'rganishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari

va texnologiyalari) yaxlit tizim asosida o'rganadi. Metodika pedagogikani o'qitishning tamoyillari va qoidalarini, shakl va usullarini asoslashga xizmat qiladi.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasining obyekti o'qituvchi (talaba) va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanadigan o'quv jarayoni bo'lib, uning davomida o'quv jarayonining o'zaro bog'liq ko'plab funksiyalari amalga oshiriladi.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasining predmeti pedagogika o'qitish qonuniyatlari va tamoyillarini asoslash, shuningdek, o'qitishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari va usullari, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining birligidir.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasining vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida fanning maqsadi, vazifalari, mazmuni, pedagogik fanlarni integratsiyalash yo'llarini ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni ular asosida quriladigan qonuniyatlar va didaktik tamoyillar masalasini hal etish;

o'quvchi (talaba)larni o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish maqsadida pedagogik fanlarni o'qitishning shakllari, metodlari, usullarini tanlash va tizimlashtirish;

pedagogik fanlarni o'qitishda to'plangan tajribani o'rganish, umumlashtirish va tizimlashtirish;

yangi (mualliflik) elementlarni modellashtirish va ularni pedagogik fanlarni o'qitish jarayoniga joriy etish;

kasbiy pedagogik faoliyatda bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligini rag'batlantirish. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi vazifalari dinamiklik bilan ajralib turadi va vaqti-vaqti bilan tuzatilishi kerak, chunki ular pedagogika fanidagi ilmiy kashfiyotlar va amaliyot ehtiyojlari bilan bog'liq. Shunday qilib, biz pedagogika o'qitishning prinsipial yangicha yondashuvi bo'lgan pedagogika o'qitish metodikasining metodologik asoslarini ko'rib chiqdik va ularning barchasi pedagogika kursining tuzilishi va mazmunini tavsiflashga o'tishga imkon beradi. Bu keyingi bo'limda muhokama qilinadi. Shunday qilib, bu vazifalarni amalga oshirish orqali pedagogik fanlarni o'qitishi metodikasi, bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarda pedagogika nazariyasi va amaliyotini puxta egallash, boy tarixiy-tarbiyaviy tajribalarni o'rganib, o'zlarida zamonaviy kasbiy, ma'naviy axloqiy, ijodiy-mahsuliy fazilatlarni shakllantirishga amaliy yordam ko'rsatadi. Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi predmetini bunday tushunishdan kelib chiqib aytish mumkinki, u boshqa fanlarni o'qitish metodikasidan farqli ravishda ikki – umumiy va xususiy qismdan tashkil topadi.

Umumiy qismda pedagogika fanlarini o'qitishning metodologik va umumnazariy masalalariga e'tibor qaratiladi. Ular pedagogika kollejlarida pedagogik fanlarni o'qitishda bir xil darajadagi ahamiyatga ega. Ikkinchi bo'limda pedagogika kollejlarida pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni, mazmuni, shakl va metodlariga alohida urg'u beriladi.

2. Fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar.

Ta'lim sohasidagi siyosat aholining ko'plab qatlami uchun oliy o'quv yurtlari darvozasini keng oshdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o'quv yurtlarida chet elliklar o'qishidan manfaatdordir. 1991 yili ular 76000 ni tashkil etgan.

Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtlarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Deklan Bern «blended learning» (aralash ta'lim) haqida shunday deydi – “ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv o'quvchini charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala – tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Aralash ta'limda talabalarga universitetlarning masofaviy ta'lim tizimidan va o'quv materiallaridan foydalanishga to'liq ruxsat beriladi. Bu tizimda online kutubxonalar va manbalar mavjud bo'ladi. Talabalar bir qism nazorat ishlarini talabalar on-layn tizimida topshirishadi. Shuningdek, tizimda guruhli muloqotlar uyushtiriladi va tuli loyihalar amalga oshiriladi.

Blended learning modeli talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Online rejimida o'quv material bilan xohlagan vaqtda tanishish.
- Sinov testini topshirib bilimni sinash;
- Nazorat testini topshirish;
- O'tilgan mashg'ulotlarga mos qo'shimcha manbalar bilan tanishish;
- Audio va video yozuvlardan, animatsiya va simulyatsiyalardan foydalanish;
- E-maildan foydalanish va forumlarda ishtirok etish;
- Ma'ruzadan tashqari o'qituvchi-talaba va talabalar o'rtasida muloqot tashkil etish.
- An'anaviy ta'lim elementlari ming yillardan beri mavjud, biroq aralash ta'lim paydo bo'lganiga hali 10 yilcha ham bo'lgani yo'q. Shu sababli bu ta'lim turlarini aralash tarzda olib borish maqsadga muvofiq.

An'anaviy ta'lim modeli

- -O'quv yili (semestri) boshida dars jadvallari belgilanadi, fanlar bo'yicha kirish darslari o'tiladi.
- -Bunda talabalarga fanning tuzilishi, nazorat tizimi, adabiy manbalar va uslubiy maslahatlar beriladi.
- -Semestr davomida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs va diplom ishlari, referatlar, nazorat ishlari shaklida mash'ulotlar bo'ladi.
- -Semestr oxirida o'zlashtirilgan bilimlar baholanadi.

Bunday o'qish usuli dastlabki oliy ta'limni olayotgan yosh talabalarga juda mos keladi. Lekin, bu usul, kun bo'yi ishda bo'ladigan, universitetga kelishga imkoni mavjud bo'lmagan, katta yoshli, qo'shimcha ta'lim olishni hohlovchi va malakasini oshiruvchi, uzoq masofada yashovchi, sirtidan o'qishni hohlaydigan talabalar uchun biroz noqulay hisoblanadi.

Elektron ta'lim modeli

Internet paydo bo'lishi bilan sirtqi ta'lim elektron ko'rinishga o'tdi. Bunday tizimda talaba to'liq Internet orqali o'qiydi. Talaba deyarli universitetga kelmaydi, faqat yakunida baho olish uchun keladi. Bunday o'qish modeli katta yoshli, uzoq masofadan kelgan talabalar uchun juda qulay. Elektron ta'limning an'anaviy ta'limdan farqli jihatlari quyidagilar:

- -Talabaga kamroq tushuntiriladi, talaba ko'proq mustaqil shug'ullanadi;
- -O'qituvchi va boshqa talabalar bilan muloqot cheklanmagan bo'ladi.
- -Asosiy muloqot vositalari – chat, forum va elektron pochta. Shuningdek, “virtual elektron sinf” ham mavjud.
- -O'qituvchi ma'ruza o'qishi, virtual seminarlar o'tkazishi mumkin.
- -Guruhli mashg'ulotlarga jiddiy e'tibor qaratiladi, chunki talaba o'zini kompyuterga mixlangandek his qilmasligi va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini egallashi kerak.
- -Fan materiallari interfaol shaklda: matn, audio, video shaklida beriladi, bu materiallar turli rasmlar, grafiklar, sxemalar, animatsiyalar, simulyatsiyalar, fotolar, manbalarga havolalar bilan to'ldiriladi;

- -Talabalarning bilimlari test topshirish, guruhli loyihalar ishlash, esse yozish, ma'ruza va referatlar yozish, nazorat ishlarini bajarish kabi shakllarda nazorat qilinadi;
- -Ma'lumot almashish tizimi – fayl jo'natish va qabul qilish shaklida bo'ladi. O'qituvchiga jo'natilgan ma'lumotlar yaxshilab tekshirilgandan so'ng, shaxsiy mulohazalar, tavsiyalar yoki baho shaklida qaytariladi.

Elektron o'quv modeli ancha moslashuvchan hisoblanadi. Transport, vaqt, joy muammolari deyarli yo'q. O'quv materiali o'ta aniq tuzilgan bo'ladi (chunki talaba mustaqil ravishda o'zi shug'ullanadi). Agar topshiriqlar belgilangan muddatgacha topshirilmasa talaba o'qishdan haydaladi. O'zini o'zi nazorat qilish vao'z ishini tashkil qilish ko'nikmalari juda muhim. Asosan katta yoshlilar uchun tavsiya etiladi.

Aralash ta'lim modeli (Blended learning)

Talaba yosh bo'lsa demak, uni oddiy usulda o'qitish kerak, degan fikr noto'g'ri, albatta. Avstraliyalik ish beruvchilar on-line va blended-learning usulida ta'lim olgan talabalarni ko'proq ishga olishar ekan. Chunki ular, nafaqat kompyuter texnologiyalarini yaxshi bilishar ekan, balki ularda mustaqil shug'ullanish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalari kuchli rivojlangan bo'lar ekan. Shu sababli, ba'zi AQSh va Yevropa davlatlarida maktab va kollejlarni blended-learning tizimiga o'tkazishga qiziqish tobora ortmoqda. Uning o'ziga xosliklari quyidagicha.

Ma'ruza mashg'ulotlari. Mashg'ulotlar uchun materiallar to'liq bo'ladi, slaydlar ham bo'ladi, chunki talabaning mustaqil shug'ullanishi uchun yyetarli darajada ta'minlanishi zarur.

Seminar mashg'ulotlari (face-to-face sessions). Ular ma'ruzalarga qo'shib olib borilishi mumkin. Seminar mashg'ulotlari eng qiziqarli, munozalarlarga boy mavzularni o'zlashtirishda va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladi.

Fanning o‘quv materiallari (darslik va uslubiy qo‘llanmalar). Ular ham qog‘oz, ham elektron shaklda mavjud bo‘ladi. Elektron shakli qog‘oz shakliga qaraganda mazmuni ancha boy, qiziqarli va o‘zlashtirishga qulay bo‘ladi.

On-line muloqot. Bu yangi turdagi muloqot hisoblanadi. Ular odatda chat, forum, e-mail shaklida bo‘ladi. Ular orqali talabalar o‘zaro muloqot qilishadi va hamkorlikda ishlashadi. O‘qituvchiga hohlagan vaqtda savol berish va qisqa muddatlarda javob olish imkoni bo‘ladi. Bilim olishda boshqa talabalar bilan maslahatlashib ishlash juda katta yutuqlarga olib keladi.

Yakka tartibdagi va guruhli on-line loyihalar. Bunday loyihalar Internetda ishlash, turli manbalardagi axborotlarni tahlil qilish, guruh bilan kelishib ishlash, vazifalarni bajarish bo‘yicha mas’uliyat va vazifalarni birgalikda taqsimlash ko‘nikmalarini shakllantiradi (collaboration). Hozirgi vaqtda ko‘pchilik Yevropa kompaniyalari collaboration usulidan kundalik faoliyatida keng foydalanishadi.

Virtual sinf xonasi. Bunda turli Internet aloqa vositalari yordamida, shuningdek, talabalar bevosita jismoniy tarzda o‘qituvchi bilan yoki o‘zaro ushrashishi, muloqot qilishi mumkin. Bu talabalarga muayyan erkinlik beradi.

Audio va video ma’ruzalar, animatsiya va simulyatsiyalar. Bular aralash ta’limni yanada oddiy, boy va qiziqarli qiladi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar, blended learningning o‘ta moslashuvchan tizim ekanligini ko‘rsatmoqda. Demak, talaba 2-sentabrda darsga kelib o‘qituvchi bilan ko‘rishadi va fanning kirish darsida ma’lumotlarni elektron shaklda oladi. Adabiyotlar ro‘yxati o‘rniga web-sayt manzilini hamda login va parollarni oladi.

Ma’ruza darsida ma’lumotlar qisqa beriladi va havola etilgan manbalarda juda ko‘plab qiziqarli materiallar, sinov va imtihonlarni topshirish uchun zarur topshiriqlar bo‘ladi. Ma’ruzalar asosan Power Point taqdimotlari shaklida bo‘ladi.

Darslarning bir qismi on-line rejimida bo‘ladi. Bunday materiallarni talabalar yakka tartibda mustaqil yoki guruh bo‘lib o‘zlari o‘zlashtirishlari zarur bo‘ladi. On-line darslar savol-javob tarzida bo‘lishi mumkin. Ishlangan ma’lumotlar o‘qituvchiga fayl tarzida yuboriladi va o‘qituvchi tomonidan

baholanib qaytariladi. Muddatidan kechikkan ishlarni o'qituvchi qabul qilmaslikka haqlidir. Nazorat ishlari o'qituvchi nazorati ostida ham o'tkazilishi mumkin. Yakuniy imtihonlar sinfda o'tkaziladi. Xullas, blended learning talabalarni o'z faoliyatini tashkil qilishga o'rgatadi.

Blended learningdagi o'quv materiallari turlari

Blended learning usulida turli texnologiyalar va vositalar axborotning o'quv materialiga kiritilishiga yordam beradi. Internet esa har bir elementning o'z o'rnida ishlatilishiga imkon beradi. Talaba ma'lumotlarni xohlasa kitobdan, xohlasa Internetdan o'zi uchun qulay vaqtda, joyda o'qishi mumkin. Video-ma'ruzalar passiv, o'qish esa – faol jarayon hisoblanadi. Asosiy matnga qo'shimcha qilib turli maqolalar, hisobotlar ilova qilinishi mumkin. Ba'zan talabalardan axborotni o'zlari izlashlari talab etiladi. Agar ular mos axborotni topa olishmasa, o'qituvchining o'zi axborotlarni web-saytiga joylab qo'yadi. Matnlar HTML, DOC, AVI, MP3 formatlarida berilishi ham mumkin.

Rasmlardan matnlarni qulay va mantiqli bo'lish uchun foydalaniladi. Biroq, rasmlar qo'llanilganda, axborotni yuklash muammosi paydo bo'ladi. Shu sababli, ular Internetga yuklash qulay bo'lgan formatlarda chop etiladi (JPEG, GIF va h.k.)

Aralash ta'limda talabalarni qiziqtirishi uchun ma'lumotlar aniq strukturaga ega bo'ladi. **Har bir mashg'ulot 3 qismdan – dastlabki, hozirgi va keying bosqichlar iborat bo'ladi.**

“Hozirgi” bosqichi bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va h.k.). Bu jarayonda o'qituvchi talabalarning berilgan mavzu bo'yicha savollarini va izohlarini kuzatib boradi.

Bu bosqichda o'qituvchi xohlasa ma'ruza shaklida ma'lumotlarni bayon qilib berishi ham mumkin. Talaba “hozirgi” bosqichga tayyor bo'lishi uchun u oldingi darsning materialini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi mumkin. Dars yakunida materiallar testlar, savollar va amaliy masalalar yordamida mustahkamlanadi.

“Dastlabki” bosqichda talaba o'qituvchi yoki boshqa talabalar bilan birgalikda muloqotga, darsga tayyorlanadi. Buning uchun o'qituvchi albatta biror

topshiriq berishi zarur. Shunday qilinsa dars vaqtida ortiqcha takrorlanishlar bo'lmaydi va dars samarali bo'ladi. Shunda talabalar dars vaqtida faqat ma'lumot olibgina qolmasdan, murakkab masalalarni yaxshi tushunib oladi.

“Keyingi” bosqichda bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va h.k.). Bu jarayonda o'qituvchi talaba dars materialini mustahkamlaydi (test, uy ishi va h.k.). O'qituvchi avval talabalarning savollariga javob beradi va keyin bajarilgan ishlarga izoh beradi. Bunda u talabalarni keying mavzuga qiziktirib yo'naltiradi.

Shunday qilib, bu bosqichlar har bir darsda takrorlanadi. Talabalar shunday yo'l bilan ortiqcha muhokamalarga, keraksiz va oldindan ma'lum materiallarni takror tinglashga vaqtlarini ketkazmasdan darslarda amaliy ish, muloqot, loyihalarni ishlash uchun ko'proq vaqt to'plashadi. Ma'lumotni ajrata bilish, mustaqil ishlash, nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish kabi ko'nikmalarni o'rttirishadi

“Faol talaba” tushunchasi va o'zlashtirishni baholash

Faol talaba (Active Student) tushunchasi blended learning tuzilmasining eng zarur elementi hisoblanadi. Hozirda bunday atama bilan Yevropada blended learning tizimida o'qiydigan talabalarni atashadi. Bunday modellarda o'qiydigan talabaning faoliyati taxminan 50% mustaqil ishdan (materialni o'zlashtirish, forum va chatlarda ishlash, e-mail orqali muloqot va h.k.) iborat bo'ladi.

An'anaviy ta'limda talabani o'qitishadi, blended learningda esa – o'qishga o'rgatishadi, mustaqil faoliyatini tashkil qilishadi.

An'anaviy ta'limda markazda – o'qituvchi (teacher-centered), blended learningda esa - talaba (student-centered) markazda bo'ladi. Bunda talaba ko'p ishlaydi va muvaffaqiyatlari uning o'ziga bog'liq. Talaba o'quv jarayoniga tuzatish kiritishi va o'zgartirishi ham mumkin.

O'zlashtirishni baholash eng e'tibor qaratiladigan qism hisoblanadi. Chunki, yaxshi bahol olish – asosiy maqsad sanaladi. O'qituvchilar uchun bu ko'rsatkich talabalarning qanchalik rivojlanganligini anglatadi. An'anaviy ta'limdan farqli ravishda blended learningda nazorat biroz boshqacharoq bo'ladi. Eng avvalo ish guruhli tarzda bajariladi, on-line muloqotlar juda ko'p bo'ladi. Guruhning

umumkiy bahosi barcha talabalarning baholarining yig'indisiga teng. Bunda har bir talabaning forumdagi ishtiroki haqidagi hisobot inobatga olinadi. O'qituvchi talabadan o'zining forumga tegishli e-mail ma'lumotlari nusxasini yuborishni so'rashi mumkin. Loyiha ikki qismdan iborat bo'lishi mumkin: yakka va guruh bo'lib bajariladigan. Guruh ballari talabalarga forumdagi ishtirokiga qarab bo'linadi.

Har bir o'qituvchi o'z bilganicha yakka ishlash va guruh bo'lib ishlash bo'yicha 100 ballik tizimda baholarni qo'yadi.

O'qituvchining baholari on-line tizimida barchaga ochiq ko'rinadi. Biroq, kompyuter baho qo'yganda xatoliklar bo'lib turadi. Kompyuter nazoratidan o'rgatuvchi dasturlarda va joriy nazoratlarda test va **fill-in-blank**, obyektlarni saralash, o'yin va h.k. usullarida foydalaniladi.

Vebinar metodi

Bugun masofaviy ta'limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqotga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni etkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'lim ham subyekt-subyekt paradigmasiga o'tmoqda.

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan tinglovchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsa-da, butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin

Evristik o'qitish metodi

Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni

o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar. Evristik metod o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. SHunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. SHuningdek, buyuk didakt I.YA.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan

3.Ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari.

XX asr (1902-1903) boshida Emil Dyurkgeym (1973 [1925]) o'zining qator ma'ruzalarida yoshlarning ijtimoiylashuvida maktab fanlarining markazlashuvini ijtimoiy normalar, qadriyatlar va qoidalar borligini o'rgatuvchi va ular asosida ijtimoiy hamkorlikni shakllantiruvchi dastlabki ijtimoiy institut deb qaragan. Bu me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirayotgan yoshlar ko'proq kattalarga xos samarali bandlik va fuqaroligi bilan bog'liq an'anaviy xatti-harakatlar modulini namoyon qilmoqda. O'z navbatida maktab va oilalarning bu normalar va qadriyatlarni bolalarga singdirishdagi xato va kamchiliklari ular orasidagi huquqbuzarlik, jinoyatchilik va boshqa salbiy natijalarning kelib chiqishiga olib keladi va yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy institutlarning umumiy maqsadlariga zid

holatni yuzaga keltiradi. Maktab tarbiyasi o'qitishni xavfsiz va professional tashkillashtirishda katta rol o'ynaydi. Dyurkgeymning ta'kidlashicha, maktab tarbiyasi "sinfda faqatgina tinchlikni ta'minlaydigan oddiygiyna qurilma emas", balki undan ham muhimroq, "ma'naviy tarbiya instrumentidir va u ko'chirib olinishi murakkabdir".

Xususan, sotsiologlar o'quvchilarning shakllanishida maktab intizomi muhiti rolining kengayishidan manfaatdor bo'lganlar. Intizom uzoq yillar mobaynida muvaffaqiyatli maktablarning markaziy xususiyati sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, so'nggi o'n yilliklar ichida tadqiqotchilar bu muhim mavzu haqida qiyosiy tadqiqotlarga nisbatan kam e'tibor bergan. Maktab intizomi yuzasidan qiyosiy tadqiqotlar ayniqsa hozirgi kunda juda muhimdir, chunki biz maktablarning bir-biridan intizom borasidagi tizimli yondashuv farqlarini bilishimiz kerak. Bunday bilim siyosatchilarga samarali ta'lim siyosatini shakllantirish uchun mustahkam empirik asos beradi. Bu kitob maktab intizomi yuzasidan tizimli qiyosiy milliy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, mavzu yuzasidan akademik bilimlar, ijtimoiy fikr va ta'lim siyosatining shakllanishiga hissa qo'shadi.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Xo'sh, bundan ko'zlangan maqsad nima? Bugun va kelajak uchun mazkur mexanizm qay darajada foyda keltiradi? U yangi O'zbekistonning strategik

maqsadlariga qanchalik mos? quyida ana shu savollarga batafsil javob izlashga harakat qilamiz.

Uning o‘zi nima? Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

- o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg‘ulotlarini nafaqat o‘qitishni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o‘qib-o‘rganish, ta’limga yangicha munosabatda bo‘lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatishdan iboratdir.

2-MAVZU: FANNI O'QITISH METODIKASI FANINING PEDAGOGIK FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI. (2 soat)

Reja

- 1. Fanni o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi**
- 2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fani prinsiplari**
- 3. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi**

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fan sifatida boshqa fanlarning nazariyalaridan ijodiy qo'llash natijasida rivojlanadi. Pedagogik hodisa va jarayonlarni bilish va tadqiq qilishning umumiy yondashuvlarini falsafa ko'rsatib beradi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar ta'lim va tarbiya mazmunini ishlab chiqishda, maqsadni belgilashda, uning metodologiyasini aniqlashda falsafiy bilimlar tizimiga tayanadilar.

Fiziologiya, anatomiya, psixologiya kabi inson to'g'risidagi fanlar inson shaxsini shakllanishi, qonuniyati va mohiyatini har tomonlama chuqur o'rganishda yordam beradi. Pedagogika psixologik bilimlar asosida samarali o'quv-tarbiyaviy tizimni yaratadi. Pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyalashuvi pedagogik psixologiya fanining paydo bo'lishiga olib keldi. Pedagogika mustaqil, yetarli darajada rivojlangan, o'zining alohida tadqiqot sohasiga ega bo'lishiga qaramasdan boshqa fanlar bilan aloqada bo'lmasdan mavjud bo'la olmaydi. Tarbiyaviy faoliyat obyekti o'suvchi, rivojlanuvchi inson bo'lganligi sababli pedagogika birinchi navbatda insonni o'rganuvchi fanlar bilan aloqada bo'ladi. Insonni jamiyat a'zosi sifatida ijtimoiy fanlar, biologik evolutsiya natijasi sifatida tabiiy fanlar, ongli, fikrlovchi mavjudot sifatida psixologik fanlar o'rganadi.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanini ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy fanlar tarbiya maqsadini va mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Pedagogika ijtimoiy fanlardan falsafa bilan uzviy bog'liq. Falsafiy

ta'limotlar pedagogikaning metodologik asosi hisoblanib, ta'lim va tarbiya maqsadini anglashga yordam beradi. Falsafiy qarashlar tizimidan (materialistik, ekzistensial, pragmatik, neopozitivistik v.b..) pedagogika tadqiqotchilari tayangan holda pedagogik izlanish yo'nalishlarini belgilab, ta'lim jarayonini texnologik xususiyatlarini, maqsadini, mohiyatini aniqlaydilar. Pedagogika va falsafaga tegishli qator umumiy savol va muammolar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- tarbiya maqsadi muammosi;
- dunyoqarashni shakllanishi muammosi;
- jamoa va shaxs aloqadorligi;
- bilish nazariyasi bilan bog'liq gnoseologik muammolar.

Pedagogika shu bilan birgalikda falsafaning mustaqil sohalari etika va estetika bilan ham uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Ular axloqiy, estetik tarbiya hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi pedagogik vazifalarni hal etishda yordam beradi. Pedagogika aholining turli guruh va qatlamlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, ijtimoiylashuv qonuniyatlarini, ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini, shaxsning turli ijtimoiy institutlardagi tarbiyasini tadqiq qiluvchi sotsiologiya bilan uzviy bog'liq. Pedagogika biologik fanlar bilan ham uzviy bog'liq. Ular pedagogika va psixologiyaning tabiiy-ilmiy tayanchi hisoblanadi. Pedagogika rus fiziologlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlovlarning birinchi va ikkinchi signallar tizimi, insonni ruhan rivojlanishi, tabiati, sezgi organlarining rivojlanishi va funksiyalari to'g'risidagi fundamental ishlariga tayanadi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya masalalarini hal etish, mehnat qilish va dam olish tartibini ishlab chiqish inson organizmi funksiyalari va xususiyatlari to'g'risidagi yosh fiziologiya, maktabdagi turli mashg'ulotlarni tashkil etishning gigiyenik masalalarini o'rganuvchi maktab gigiyenasi muhim rol o'ynaydi. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi fani didaktika bilan bevosita aloqador. Didaktika va metodikaning umumiy tadqiqot obyekti – bu o'quv-tarbiya jarayonidir. Faqatgina

farqi shundaki, didaktika bu jarayonni yaxlit o'rganadi va metodologiya - ma'lum bir ilmiy mavzuga bog'liq bo'ladi. Bu fanlar o'rtasidagi aloqaning xususiyatini umumiy nazariyaning aniq predmet materiali bo'yicha amalga oshirishning muayyan shakliga aloqadorligi sifatida belgilash mumkin. Bu bog'liqlik har ikkala fanning kontseptual qismini tashkil etuvchi asosiy kategoriyalarning umumiylikida namoyon bo'ladi, shuningdek asosiy o'qitish tamoyillarida ham kuzatilishi mumkin.

Fanni o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqalari tahlil natijasida quyidagi bir-birini to'ldirish shakllarini ifodalashimiz mumkin: boshqa fanlar tomonidan umumlashtirilgan, asosiy nazariya va g'oyalardan pedagogikada ijodiy qo'llash va foydalanish; boshqa fanlarda qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan (matematik modellashtirish, sotsiologik so'rov) foydalanish; psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarda olingan aniq natijalarni pedagogikada qo'llash; kompleks tadqiqotlarda ishtirok etish.

Fanni o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqalari tahlil natijasida quyidagi bir-birini to'ldirish shakllarini ifodalashimiz mumkin:

boshqa fanlar tomonidan umumlashtirilgan, asosiy nazariya va g'oyalardan o'qitish jarayonida ijodiy qo'llash va foydalanish;

boshqa fanlarda qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan (matematik modellashtirish, sotsiologik so'rov) foydalanish;

psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarda olingan aniq natijalarni pedagogikada qo'llash;

kompleks tadqiqotlarda ishtirok etish.

2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fani prinsiplari

Fanni o'qitish metodikasining prinsiplari o'quv-tarbiya jarayonlarining tashkiliy-didaktik asoslariga qo'yiladigan ijtimoiy-pedagogik talablarni, uni

boshqarishda rioya qilinadigan meyorlar sifatida amal qiladi. Fikrimizcha, pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida o'qitish metodikasining prinsiplarini belgilashda quyidagilarga asoslanadi:

- 1) pedagogik fanlar oldida jamiyat ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi yo'llari;
- 2) pedagogik fanlarini o'qitish qonuniyatlari;
- 3) ta'lim muassasalarida pedagogik fanlarni o'qitishning didaktik-metodik shart-sharoitlari.

O.Roziqov va boshqa "Didaktika" darsligi mualliflarining yozishlaricha "Prinsiplar umumdidaktik kategoriyalar bo'lib, ular ta'limning barcha turlari (individlari, guruh, umumsinf), darajalari (boshlang'ich, o'rta, professional, oliy), su'ektlari (o'qituvchilar, o'quvchilar kollektivi) o'quv-tarbiya jarayonlarining hamma komponentlari (ta'limning maqsadi, vazifasi, vositasi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, natijalari)ga daxldor umumiy qoidalardir"⁶.

Demak, prinsiplar umuman, jumladan pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida o'qitish metodikasining prinsiplari jamiyat ehtiyoj va talablari asosida pedagogika fanining maqsad, vazifalariga, o'qitish qonunlariga, pedagogik fanlarni o'qitishning didaktik-metodik shart-sharoitlariga va nihoyat umumdidaktik kategoriya sifatlariga ta'limning turlariga, darajalariga, subektlariga, o'quv-tarbiya jarayonining komponentlariga daxldor qoidalar ekan, pedagogik fanlarni o'qitish metodikasini o'rgatishda ularga avval yaqin zaruriy holat hisoblanadi hamda oliy ta'limda ushbu fanni o'rgatuvchilarni barcha barchasi bu prinsiplarni bilishlari lozim degan xulosa qilib chiqadi.

Pedagogika adabiyotlarni o'rganish pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi o'quv predmetining quyidagi prinsiplari tizimi mavjudligini asoslashga da'vat etdi.

⁶ Roziqov O. va boshqalar "Didaktika" darsligi –T.: O'zR F A "Fan", 1997, 149-bet.

Ilmiylik prinsipi.

Pedagogik fanlarni o'qitishda nazariya va amaliyotning birligi prinsipi.

Pedagogika mazmunini o'zlashtirishda zamonaviylik va milliylik prinsipi.

Pedagogika ma'lumotlarini bayon etishning tushunarligi, izchilligi va tizimligi prinsipi.

O'qituvchi rahbarligida talabalarning ijodiy faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini yo'lga qo'yish prinsipi.

Pedagogik ma'lumotlarni o'rganishda ta'lim va tarbiya mazmunining o'zaro bog'liqligi prinsipi.

O'qitishda didaktik vositalar majmui prinsipi.

Pedagogik fanlarni o'qitishda o'quv jarayonini maqbullashtirish prinsipi.

Pedagogik fanlarni o'qitishda qo'shimcha ma'lumotlarni tanlash prinsipi.

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida pedagogik fanlarni o'qitish ilmiylik prinsipiga asoslanadi. Har qanday ma'lumot ilmiy asosga ega bo'lsagina taraqqiyotga hissa qo'sha oladi. Zero, ilmiy bilim bu tajribada sinalgan, fan, texnika rivojini ta'minlab, sivilizatsiyaning ilgariylashga mos kelishini ifodalaydi.

Ma'lumki, o'qitishning ilmiylik prinsipi "fan-o'quv predmeti" kesimida amalga oshadi. O'quv predmeti fan asoslab bergan ma'lumotlar asosida ko'riladi. Bunda ilmiy bilimlar borliqdagi qonuniyatlarni o'zlashtirish, nazariy ma'lumotlarni anglash sari olib boradi. Chunki, ta'lim muassasalarida o'qitiladigan har bir o'quv predmeti, jumladan pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi o'quv predmeti ham o'ziga ta'luqli bo'lgan fanning umumiy asoslaridan iborat bo'lgan. Bunda fanda tushuncha va kategoriyalarning ko'pligi, mazmunan boyligi, qo'llanish doirasining kengligi bilan o'quv predmetidan yuqori turadi. O'quv predmeti esa ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, real o'quv imkoniyatlarini,

qiziqishlari asosida yaratildi. Shuning uchun o'quv predmetlaridagi ma'lumotlar ham ilmiylik prinsiplariga asoslangan deb aytish mumkin.

Ilmiylik prinsipida, ilmiy bilimlar, fan asoslarini egallash jarayonida ta'lim oluvchilarga aqliy qobiliyat, ijodiy tafakkur rivojlanadi, ilmiy dunyoqarash tarkib topa boradi. Shuning uchun pedagogika o'rgatishda o'qituvchi (talabalar) ilmiylik prinsipini qo'llar ekan talabalar diqqatini ilmiy ko'nikmalar, ularni kuzatishga, pedagogik voqelikdagi narsa va hodisalarni mohiyatini tahlil qilishga, aniq xulosalar chiqarishga o'rgatishi lozim. Bu esa o'quv fanining ilmiy mazmunini o'zlashtirib olishga va kelgusida fanni chuqur egallab, uni o'z faoliyatiga keng qo'llashga yordam beradi.

Pedagogik fanlarni o'qitishda nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi muhim ahamyat kasb etadi. Zero, bu pedagogika nazariyasidan egallagan bilimlari, amaliyotga tadbqiq etish bilan bog'liq holda olib borilishini ta'minlaydi. "Fan-ta'lim-ishlab chiqarish" kesimida yo'lga qo'yilishini talab etadi. Shu bilan birga bu prinsip pedagogika fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni shaxsiy qarashlari asosida voqelikdagi voqealarni tahlil qilishni nmazarda tutadi. Bu esa bilimlarni hayotga tadbqiq etishda talablarning amaliy faoliyati mehnatini birlashtiradi hamda nazariy bilimini amaliy faoliyati uzviyligini ta'minlaydi.

Nazariya bilan amaliyotnig birligi g'oyasi metodika fanining muhim xususiyatlaridan biri. Chunki bunda talabalar pedagogika fanlari nazariy ma'lumotlarini o'quv tarbiya muassasalarida qo'llashning mazmuni, metod va usullarini o'rganib oladilar. Buni jonli amalga oshirish uchun talabalar maktabgacha ta'lim o'quv yurtlariga, maktablarga, o'rta maxsus va kasb hunar bilim yurtlariga ekskursiya uyshtiradilar, u yerlardagi mehnat jarayoni bilan tanishadilar va o'zlari egallagan bilimlarni amaliy hodisalar bilan solishtiradi. Bunda nazariy malumotlar ifodalangan adabiyotlar bilan talabalarni takroriy tanishtirish mashg'ulotlari muhim metodik ahamyat kasb etadi. Shuning nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlashda ilg'or pedagogik tajribalar yoritilgan audio, video ma'lumotlar ham shu natijaga erishishni ta'minlaydi.

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi o‘quv predmetining zamonaviylik prinsipi talabalarga bayon etilayotgan ma’lumotlar zamonaviy va milliy asosda bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatda ta’lim tizimi jahon talablariga mos andoza va milliy asosda qurildi. Ta’lim muassasalarining uzluksizligi amalga oshirilishi natijasida, ularning moddiy texnika bazasi, o‘quv tarbiya jarayonlarining yuqori sifati o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiya ta’minlandi. Endi bunday o‘quv yurtlarida ishlaydigan kadrlar zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun tayyorlangan o‘quv fanlarining mazmuni milliy asosda ko‘rildi. Shunga asosan pedagogika va psixologiyada o‘qitiladigan pedagogika fanlarining mazmunidagi malumotlarni milliy xususiyatlar asosida aks ettirishda davr talabi bo‘lib qoldi. Bu esa o‘z navbatida mazkur fanni o‘qitishni milliy asosda qurishni taqozo qiladi.

Zamonaviy va milliylik ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi zamonaviy texnik qurilmalar, vositalar, o‘quv adabiyotlaridan o‘rinli maxsulli foydalanish taqdirdagina yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyat va yuqori malakali insonlar bo‘lishini anglatadi. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasining muhim prinsiplaridan yana biri ma’lumotlarning tushunarliigi, ularni bayon etishning izchilligi va tuzimlilikidir. Asosan tushunarlilik ta’lim beruvchidan ma’lumotlarning hajmi qiyinlik darajasi ta’lim oluvchilarning yoshi, real o‘quv imkoniyati, individual xususiyatlariga muvofiq bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Prinsipga amal qilish jarayonida ta’lim beruvchi mavzu bo‘lim, savollarni o‘rganish vaqtini belgilashni yoddan chiqarmasligi zarur. Shunindek tushunarlilik prinsipi yangi tushuncha, darliklardagi hozirgi zamon fan, texnika yutuqlarini, terminlar hajmini, o‘rganayotgan muammoning o‘quv dasturidagi o‘rnini, o‘qitish metodlari va usullarini o‘qituvchi tomonidan aniq belgilanishi lozimligini talab qiladi.

O'qitish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan individual xususiyatlarga o'quvchilarning qiziqishlari, rivojlanish darajasi, his tuyg'ulari, temperamenti, xarakter xususiyatlari, qobiliyati, mayli, turmush tarsi kiradi. Tushunarlik prinsipi izchillik va tizimlilik prinsipi bilan o'zaro aloqadorlik tarzida qo'llanilib, bunda masalalarni o'rganishda a) ma'lumdan nomalumga; b) oddiydan murakkabga; v) aniqdan noaniqqa g) osondan qiyiga d) umumiydan xususiyya qoidalariga amal qilish asosida olib boriladi. Ta'limning izchillik prinsipiga Y.A.Komenskiy asos solgan, so'ngra bu prinsiplar rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan rivojlantirilgan. Tajribaning ko'rsatishicha izchil va tizimni bayon etilgan malumotlar ongli o'zlashtiriladi, uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Parcha-qism asosida bayon etilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish qiyin. Shuning uchun bilimlar izchil muayyan tizim asosida bayon etilsa ular o'zaro bog'lanadi va ikkinchisi birinchisini to'ldiradi. Shunga asosan bilimlarni o'zaro bog'liqlikda yaxlit muayyan izchillik, tizimlilik yo'nalishida o'rganish mukammal takomillashib boruvchi shaxsning shakllanishini amalga oshiradi. Izchillik va tizimlilik butun o'quv tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish darslarning ma'lumotlarini ratsional ta'minlashga yordam beradi, bilimlar tushunarli o'zlashtiriladi, mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Pedagogik ma'lumotlarni o'zlashtirishda talabalarning ijodiy faolligi mustaqilligi va tashabbuskorligi prinsipi fanda muhim ahamiyat kasb etib gullab, xosilni ko'p beruvchi daraxtga o'xshaydi. Talaba pedagogika fanlari materiallarini ijodiy o'zlashtirsa qo'shimcha adabiyotlardan bilimlarni mustaqil to'ldirsa albatta bu tashabbus ko'rsatib mehnat qiladigan shaxs bo'ladi. "kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham nazarda tutilgan masalalardan biri talabalarda ijodiy faollikni mustaqillikni, tashabbuskorlikni shakllantirishi orqali malakali, maxoratli kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Mustaqillik o'z yo'nalishida ijodiy faollikni tarbiyalaydi, ijodiy faollik tashabbuskorlikka undaydi. Bular o'zaro sabab va natija shaklida bog'langan pedagogik hodisadir. Zero, "Haqiqiy mustaqillikka erishmagan joyda talabalarning ijodiy faollikni " tashabbuskorligi to'g'risida gapirib bo'lmaganidek,

pedagogik fanlarni o'qitishda metodika fani o'z ta'lim oluvchilarida mustaqillikni ta'minlamay turib pedagogik bilimlarni ijodiy o'zlashtirish faol va tashabbuskor bo'lishni tarbiyalash murakkabdir. Darhaqiqat mustaqillik prinsipi davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talab etayotgan prinsip hisoblanadi. Chunki, mustaqillik talabalarda erkin fikrlashni, ijodiy qobiliyatni, aqlan teranlilikni shakllantiradi. Shuni ta'kidlash joizki, har qanday mustaqillik, mustaqil bilim olish aqliy faoliyatni shakllantiradi. Faollik shaxsiy intellektual faoliyat belgisi tarzida mustaqil bilim olishni o'rgatadi. Shu jihatdan bu ikki prinsip pedagogika fanlari mazmunidagi ma'lumotlarni qo'shimcha adabiyotlarda seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish, mustaqil ish bajarish, referat yozish, testlar tuzishda qo'l keladi va ijodiy aqliy faoliyatning rivojlanishiga ko'maklashadi.

3. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi

Pedagogik fanlar ko'p qirrali bo'lib, ular yoshlarga ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda shaxsiy kamolot, aqliy yetuklik, jismoniy barkamollik kabi ta'lim-tarbiya ma'lumotlaridan xabar beradi. Shu bois pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi ko'proq ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratib, pedagogik bilimlarni o'rganish uchun ta'lim va tarbiya mazmunining o'zaro bog'liqligi prinsipiga amal qiladi. Chunonchi, bu prinsip talabalarga bilim berish, ularda ilmiy dunyoqarash, siyosiy ongliligini ijtimoiy faoliyatini, ma'naviy yetuklikni tarbiyalashdan iborat prinsip hisoblanib, bunda egallangan pedagogik bilim konikma, malakalarni ijtimoiy hayotda qo'llashni o'rgatadi va ta'lim oluvchilarning ham intellektual, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim va tarbiya uyg'unligi o'zaro bog'liqligida, voqelikda, ayniqsa pedagogik voqelikdagi qonuniyatlarni o'rganish hamda uning amaliy jihatlarini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Shu bois aytish mumkinki, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Ular o'zaro uzviy bog'langan pedagogik hodisalardir.

Pedagogikada tarbiyalovchi ta'lim, rivojlantiruvchi tarbiya degan ibora ko'p ishlatiladi. Buning mohiyati shundan iboratki har qanday ta'lim oluvchilarda axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat ko'nikmalarini, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash barobarida, ularda aqliy qobiliyat, diqqat, xotira, tasavvur ijodiy tafakkurni rivojlantiradi va shaxsni har tomonlama kamol topgan inson bo'lishini ta'minlaydi. Ana shu bilish qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi o'quv predmetining mashg'ulotlarida ham amalga oshiriladi. Ko'pgina mavzular va bo'limlarni masalan, shaxs, ta'lim va tarbiya, ta'limning psixologik, fiziologik asoslari, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi, o'qitish uslublari, oila pedagogikasining nazariy, milliy va ilmiy asoslari, oilada bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy pedagogning oila bilan olib boradigan faoliyati, maktabgacha yoshdagi bolaning sotsiumda rivojlanishi va shunga o'xshash mavzularni o'rganishda shaxs va uning rivojlanishi milliy va ilmiy asoslar vatanparvarlik, ijtimoiy muhit, sotsium kabi termin hamda so'z birliklarning mazmun-mohiyatini tushunishda talabalarda nutq boyligi, mantiqiy tafakkur, idrok, tasvur, diqqatni ta'minlash kabi bilish jarayonlari rivojlanadi.

Shunday qilib tarbiyalovchi ta'lim va rivojlantiruvchi tarbiya talabalarga o'quv mashg'ulotlarini taqdim etish bilan birga ularning rivojlanishlari, shaxs bo'lib shakllanishlarini ham takomillashtiradi. O'qitish talaba shaxsini har tomonlama tarbiyalaydi: dunyoqarash ilmiylashadi, siyosiy onglilik, ijtimoiy faollik rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlar ijtimoiylashadi bunda tarbiyalovchi ta'lim va rivojlantiruvchi tarbiya, o'quv-tarbiyaning vazifalari mazmuni metodlari tashkil etilishida ta'lim beruvchining shaxsiy namunasi, bilimdonligi, o'z kasbiga muhabbati, pedagogik mohirligi ma'naviy-axloqiy fazilatlari, ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashish va h.k. kasbiy xususiyatlari orqali hal etilishini yoddan chiqarmaslik kerak. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talablarning idroki va tasavvuriga, xotirasiga, ko'rish orqali tafakkuriga his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatib, voqea va obektlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishga yordam beradigan ijodiy

qobiliyatlarini mukammallashtiradi, bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirib, ularda tadqiqotlik ehtiyojlarini shakllanishiga yordam beradigan didaktik qurol mavjud buni pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi o'quv fanida, bularni o'qitishning didaktik vositalar majmui prinsipi deb yuritiladi.

Dahaqiqat, "Didaktik vositalar majmui-bu o'qish, o'qitish, tarbiyalashning ma'lum tartib muayyan yo'nalish va bir butunlikni tashkil etgan o'qyuv-tarbiya qurollarining yig'indisi, jamlanmasi degan manoni anglatadi". Ush bu prinsip didaktika fanida ko'rgazmalilik prinsipi deb yuritiladi va ular o'quv ma'lumotlarini bevosita idrok etish, eshitgan fikrlarini obrazlarda ko'rish, ularni ongli idrok etish uchun xizmat qiladi. Shuni e'tirof etib o'tish joizki, ta'limda didaktik vositalardan foydalanish o'qish, o'qitishni jadallashtiradi. Chunki bunda eshitish katalizatorlari bilan ko'rish ham ishtirok etadi, shuning uchun pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanadigan didaktik vositalar o'quvchi-talabalarning bilim olish darajasini yuksaltirish ma'lumotlarni oson o'zlashtirish mustaqil ijodiy o'rganishni amalga oshirish va ular tarbiyalanganligini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar manbai bo'lib xizmat qilad. Didaktik vositalar majmuini ta'lim vositalari kontestida izohlagan pedagoglar A.Zunnunov, U.Mahkamovlar ta'lim vositalari o'quvchilar uchun ta'lim jarayonida atrof muhitni chuqur anglashga yordam beradi. O'quvchi uchun axborot negizi sifatida, ta'lim jarayonini tashkil qilishda va bilimni nazorat qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi⁷, deb ta'kidlaydilar. O'qitishning didaktik vositalari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning uzluksiz ta'lim oldiga qo'ygan ijtimoiy pedagogik talablarni hal qilishga katta yordam bera oladi. Chunki ular o'rganiladigan hodisa yoki obyekt haqida to'liq va aniq axborot berish, shu bilan ta'lim sifatini oshirishga imkoniyat yaratish;

Talabalarning ma'lumotlar mazmunini mustaqil o'zlashtirishiga qiziqishini yuqori darajaga ko'tarishga yordam berish;

7 Mahkamov U.I., Xo'jayev B.Q., Tilabova N., Didaktika vositalar majmui. Toshkent 2009, 9-bet

Ta'limning ko'rgazmaligini oshirish asosida o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan materialni tushunishni ta'minlash;

Talabalar mehnatini unumdor qilish, shu asosda o'quv materialini o'rganishni jadallashtirish;

Darsda talabalarning mustaqil ta'lim olishning amalga oshirishga erishishi masalalarni hal qilishga yaqindan yordam ko'rsatadi. O'quv yurtlarida ta'limda pedagogik fanlarni o'qitishda didaktik vositalar majmui prinsipi quyidagi vositalardan qamrovli foydalanish mumkinligini tavsiya qiladi.

Didaktik vositalarning o'quv va o'quv-uslubiy turlari (tabiiy ashyolar, kalma'ruzalar, fotografiya, ko'rgazmali, plakatlar, diagrammalar, jadvallar, o'quv qo'llanmalar, delubit ko'rsatmalar va h.k);

O'qitishning texnik vositalari (dianozivlar, o'quv radiosi, o'quv kinofilmlari elektron hisoblash mashinalari, o'quv televideniyesi, disk, multimedia, video va audio magnitafonlar va h.k);

O'qitishni zamonaviy axborot va kommunikativ vositalari (kompyuter, skaner, kserkislar, dasturli internet texnologiyasi, virtual stenular, ta'lim beruvchi dasturlar o'quv qo'llanmalar) elektron kutubxona;

Shunday qilib, o'qitishning didaktik vositalari majmui prinsipi, talabalarning bilim faolligi, ijodiy qobiliyati, xotirasi, tafakkurini rivojlanishi tezlashtirishga ularni ma'naviy-axloqiy yuksaklikka va texnik tafakkurining takomilashishini rivojlantiradi.

Pedagogik fanlarni o'qitishda o'quv jarayonini maqbullashtirish prinsipi. Bu prinsip har bir oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan pedagogika turlariga kiradigan fanlarning o'zida xos tomonlarini inobatga olib fanni o'qitish ishlarini tashkil etishni talab etadi. Bunda "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Maktabgacha pedagogika", "Oila pedagogikasi", "Ijtimoiy pedagogika", "Umumiy pedagogika"

fanlar mazmunidagi mavzularning mazmunan butunligi, yaxlitligi, birligi ta'minlanadi.

Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida o'quv jarayonini maqbullashtirish prinsipi, muayyan tizimga mansubligi "Tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ham ma'lum pedagogik turkum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, umumiy o'quv jarayoniga, jamlikni anglatadi. Bunda pedagogika fanlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar, pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishining negizidagi kerakli ma'lumotlar (bilimlar)ga ega bo'liksh uchun qulay sharoit yaratish jarayoni yaratish sifatida e'tirof etiladi. Bu esa shu sohaning pedagogi jihatlari bo'yicha nazariy va amaliy axborotlarni egallash, tarbiyachilik uchun xos faoliyatni bajarishga ham tturish, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida aninq amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Ikkinchi jihati shundaki, pedagogika fanlari mavzularini bir-biriga qiyoslash, o'xshash, bir-birini to'ldirishi tomonlarini anglab, egallayotgan kasb uchun muhimligini o'rgatish maqsadini ko'zda tutadi. Buni harbir talaba ongiga, shuuriga yetkazish oliy ta'lim pedagogining bosh vazifalaridir.

Pedagogik fanlarni o'qitishda qo'shimcha ma'lumotlarni tanlash prinsipi. Bu prinsip fanlar mazmunini chuqur egallagan bo'lishi, bayon etilayotgan mavzu bo'yicha yangi ma'lumotlarning davr, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos yoki mos emasligini aniqlash va ularni pedagogika fanlari yutuqlari, ilg'or pedagogik talablar asosida to'ldirish lozimligini nazarda tutadi. Bunday yondashuv pedagogik ta'lim samaradorligigga erishishi, o'quv mashg'ulotlari yangi axborotlar bilan boyitib, talabalarga aniq yetkazish, uning faolligini oshirish imkonini beradi.

Umumdidaktik qoidalar, tamoyillar nuqtai nazaridan pedagogik fanlarni o'qitishda qo'shimcha ma'lumotlarni tanlash, avvalo ma'lumot mazmundorligi ta'minlasa, ikkinchidan talabalar faolligini oshiradi, pedagog va talabalarining mashg'ulotda manbalar bilan ishlash malakasini, tadqiqotchilik qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Ta'lim maqsadi oshadi, yangi bilimlarni, yangi

manbalar bilan ishlash va qo'shimcha ma'lumotlarni egallash ko'nikmalari talabalarda tarkib topadi.

Shunday qilib tahlil etilgan bu printsipalar oliy o'quv yurtlarida pedagogik fanlarni o'qitishni davr talablari asosida tashkillashtirishga, talabalarning pedagogik savodxonligini oshirishga, erishilgan yutuqlardan faxr va iftixor tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.

**Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda
topshiriqlar:**

1. Bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda maxsus fanlarni o'qitish metodikasi o'quv fanining ahamiyati haqida tushuncha bering.
2. Metodika tushunchasini izohlang.
3. O'qitish metodikasiga ta'rif bering.
4. Fanni o'qitish metodikasi fanining predmeti haqida ma'lumot bering.
- 5 Fanni o'qitish metodikasi fanining maqsadini ayting.
6. Fanni o'qitish metodikasi fanining vazifalarini izohlang.
7. Fanni o'qitish metodikasi fani qaysi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'qitiladi?
8. Tushunchalarni mazmuni bilan moslashtiring

	Metodika –	o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;	
	o'rganish –	muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o'rnatilgan reja	

		(qoida), tizimga aniq rioya qilish.	
	o'rgatish –	anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi;	
	o'qitish –	ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;	
	ta'lim –	egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;	
	Bilim -	avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi;	
	ko'nikma –	o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi;	
	malaka –	o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;	
	maqsad –	qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon;	
	mazmun –	o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq;	
	tashkil etish	- o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li;	
	shakl -	o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;	

	metod	o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt;	
	vosita -	o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.	
	natija -	qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o'zaro harakati;	
	metodik (uslubiy) ko'rsatma	– muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo'llanma.	
Javoblar:			

3-MAVZU: FANNI O'QITISHDA DIDAKTIK TAMOYILLAR VA QOIDALAR. (2 soat)

Reja

1. Fanni o'qitishda didaktik tamoyillar mohiyati
2. Fanni o'qitishda didaktik qoidalar.
3. Fanni o'qitishda didaktik tamoyillar tizimi mohiyati.

1. Fanni o'qitishda didaktik tamoyillar mohiyati

Ta'limning xususiy qoniniyatlariga gnoseologik, psixologik, kibernetik, sotsiologik, tashkiliy qonuniyatlar kiradi. Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalardir.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.

Ta'limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunaltilishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shiluvi va madaniyatni o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiqta'siretish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'no-mantig'i ham ana shundadir.

Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o'zini-o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'ziga ta'lim berish va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta'limning ilmiylik tamoyili – o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini

zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umuiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsifalanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi: ta'limning tizimlilik va izchilligi; ta'limda onglik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili; tushunarliklik.

Ta'limning tizimlilik va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat

qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimliliigi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qaramaqarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Ta'lim da onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim da ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayonini sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi

orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o‘quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko‘rish bilan ta’limga intilishimiz kerak – deb ta’kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo‘lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o‘rganilsin».

Tajribalar asosida o‘rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o‘zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko‘rib qabul qilish esa – 25%ni tashkil etadi. Ta’lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma’lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko‘rgazmalilikdan o‘quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o‘zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o‘quvchilarning dastur materiallarini o‘zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta’limning o‘quvchilarga mos bo‘lish tamoyili deganda o‘quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo‘lishi tushuniladi.

Yoshiga muvofiq yondashish o‘quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma’naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy etukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo‘yilayotgan talablar yoki ta’limning tashkiliy tuzilishi o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o‘quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o‘quvchilarning murakkab ichki dunyosini o‘rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo‘ladigan ko‘p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta’limda bilim ko‘nikma va malakalarni puxta va mustahkam o‘zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya’ni o‘quvchilar tomonidan tizimli va ongli o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab

qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qullay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomonta'siretuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini o'quvchilarda qiyinchiliklarni engish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini echishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Ta'lim mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Ta'lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
- 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta'lim ninq maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darajasi;

- 5) axborotlarning hajmi va ko'lam;
- 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'lim da yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'lim ga doir muammolarni

tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydaniilmoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limnimodernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim da kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'lim dan farqli ravishda «umumta'lim iy kompetensiya» tushunchasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyani o'zida to'liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

Umumta'lim iy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan

obyektlariga munosabatini taqozo etuvchi o'quvchining semantik (ma'no-mazmun) yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'lim iy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir.

O'quvchi uchun kompetensiya – bu uning kelajak obrazi, o'zlashtirish uchun aniq mo'ljal (orientir). Biroq maktab ta'lim i davrida o'quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta'lim iy nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Umumta'lim iy kompetensiyalar maktabda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maktab ta'lim i davrida o'quvchi eng asosiy – fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va ta'limning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

Ta'lim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Ta'lim mazmunini loyihalash quyidagi **umumiy tamoyillarga** muvofiq amalga oshiriladi:

Ta'lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv

fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta'lim mazmunida aks ettiriladi.

Ta'lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi **mezon**larga asoslaniladi:

ta'lim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish;

ta'lim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi;

ta'lim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi;

ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

ta'lim mazmunini loyihalashda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olish.

Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me'yoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir. O'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi.

«Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining **vazifalari** quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim , fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim -tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi **asosiy prinsiplarga** asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta'lim standarti quyidagi **tarkibiy qismlardan** iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning **tayanch o'quv rejasi** umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lim i vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'lim i bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'lim i boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning **o'quv dasturi** tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim i vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning **malaka talablari** quyidagilardan tashkil topadi: bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi – davlat ta’lim standarti bo’yicha umumiy o’rta ta’limning malaka talablarini o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o’rta ta’lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta’lim mazmuni va o’quv dasturlari asosida o’quv materiallari o’quv-metodik majmuada o’z ifodasini topadi.

O’quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o’qituvchi uchun metodik qo’llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik – davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o’quv fanining mavzulari to’liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o’zlashtirilishiga qaratilgan, o’quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o’quv nashri.

Darslik o’quvchilarning ta’lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o’quv materialini to’la o’zlashtirishlarini ta’minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo’lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

motivatsion vazifa - bu vazifa o’quvchilarni ushbu fanni o’rganishga yo’naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag’bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

axborot vazifasi o’quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta’lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o’quvchilarda o’zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo’lgan ko’nikma, malakalarni shakllantirish uchun o’rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvofiglashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta’limning boshqa vositalari (xaritalar, ko’rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Mashq daftari – darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma – darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kamanbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

2. Fanni o'qitishda didaktik qoidalar.

Metodika va didaktika uzviy bog'liqdir. Metodika deganda bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushunilishini ko'rib o'tdik. Bu fan didaktikaning bo'limidir. Didaktika (yunon *didaktikos* o'qitadigan, o'rgatadigan) – pedagogikaning bilim olish, ta'lim va tarbiya nazariyasiga oid sohasi. U talabalarning bilim olish, o'zlashtirish va ko'nikmalar hosil qilish jarayoniga xos ta'lim printsiplari, uslublari va o'quv jarayonini tashkil qilishga oid hamma masalalarni o'rganadi. Didaktika «nima?» va «nima uchun?» o'qitish kerak degan savollar bilan shug'ullansa, metodika esa u bilan uzviy bog'liq holda «qay tarzda?» va «nimalar yordamida o'qitish?» lozim masalalari bilan shug'ullanadi. Didaktika va metodikaning maqsadi: ta'lim berish, o'qitish, o'rgatishni amalga oshirishdir. Didaktika termini dastlab XVII asrda chex pedagogi Ya.A. Kamenskiy tomonidan ishlatilgan. U “Buyuk didaktika” asarida (1657 yil) didaktikaning asosiy masalalarini ishlab chiqqan. XIX asr o'rtalaridan pedagogikaning alohida sohasi sifatida o'rganila boshlandi. O'zbekistonda dastlab jadid maktablarida didaktikaning tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qilingan. Hozirgi kunda O'zbekistonda didaktika sohasi avvalgi erishilgan yutuqlarni saqlab qolgani holda yangiliklar bilan boyitilib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda didaktikaga tarbiyadan alohida holda qaralmaydi. U yoshlarni tarbiyalashdagi umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Yoshlarga ta'lim berish jarayoni jamiyat taraqqiyoti, fan texnika taraqqiyoti, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, maqsadining o'zgarishi didaktika printsiplari, uslublari va tashkiliy shakllarining ham o'zgarishiga, rivojlanishiga sabab bo'ladi. Barcha fanlarni o'rganishda didaktik printsiplar muhim o'rin tutadi.

Didaktik printsiplar dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir. Didaktik tamoyillarga o'qitish va o'qish jarayonida qoidalar sifatida rioya qilinishi zarur. Ular bir-biriga bog'lanib ketadi, quyidagi printsiplar o'qitish va o'qish jarayonini samarali tashkil qilish bo'yicha qoidalar bo'lib, ular uzoq vaqt davomidagi tajribaga asoslangan. Ta'lim berish (didaktika)ning asosiy tamoyillari quyidagilar:

Faollik tamoyili Inson ta'lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangiyangi sirasrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. Talaba, o'quvchi o'z harakati bilan fanlarni yaxshiroq o'rganadi va o'zlashtiradi. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun o'quvchitalabalar darsga faol qatnashishi lozim.

Nazariya bilan amaliyotning birbiri bilan bog'liqligi Nazariy bilim doim kasbhunar amaliyoti bilan bog'lanishi lozim. Amaliy ta'lim ham o'z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Ko'rgazmalilik Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarligini va ta'lim jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real ob'ektlarda o'qitishni talab qiladi. Darslar ko'rgazmali qurollar yordamida berilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishlari osonlashadi.

Tushunarlik O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, o'quvchilar uni o'zlaridagi bilimlar bilan bog'lay olishsin va uni tushunishda qiynalmasin. Ya'ni, o'quv materialining mazmuni, shuningdek, o'qituvchining tili va fikrlarini ifodalash usuli o'quvchitalabaning bilim saviyasiga mos kelishi lozim. Lekin bu ilmiy terminlardan foydalanilmaydi, degani emas. Namunalardan foydalanish O'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim namunalarni tanlashga harakat qilish kerak. Yaxshi model, amaliyotdan olingan tipik misollar, turlicha mahsulotlar ham olingan natijaning sifati qanday bo'lishini aniq ko'rsatadi.

Ilmiylik O'quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim. O'qituvchining taxminiga yoki sub'ektiv fikriga asoslangan material qo'llanilmasligi kerak.

Bilimlarni qo'llash O'quvchitalabalar olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi kerak. Shuning uchun bu bilimlar qo'llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan

bo'lishi zarur. Bunday amaliy vaziyatlar o'qituvchi tomonidan yaratilishi lozim. Natijalarni mustahkamlash tamoyili O'qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida doimiy aloqa bo'lishini talab qiladi. Natijalar esa maxsus «Baholash varaqalari» da qayd qilinishi kerak.

Didaktik tamoyillar o'qituvchi faoliyatining yo'lyo'rig'i sifatida hizmat qiladi, alohida olganda esa tushunarlik printsiplari qo'llab quvvatlaydi. O'qitishning asosiy qoidalari:

- tushunarlikdan – tushunarsizga;
- yaqindan uzoqqa;
- osondan qiyinga;
- aniqdan mavhumga;
- umumiydan hususiyga, umumlashtirilgandan yakkaga;
- xususiydan umumiyga. O'qish va o'qitish didaktik xatti-harakatlar bilan bog'liq.

Didaktik xatti-harakatlarga o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish va baholash faoliyati kiradi. Bu faoliyat quyidagi savollarda o'z ifodasini topadi:

1. Kimlar o'qitadi?
2. Kimlarni o'qitish kerak?
3. O'qitish orqali qanday maqsadlarga erishish mumkin?
4. Maqsadga erishish uchun nimani, qanday o'qitish kerak?
5. Nazariy va amaliy darslarda qaysi metodlarni qo'llab, dars o'tish kerak?
6. Nazariy va amaliy darslarni qanday sharoitda o'tkazish kerak?
7. O'qishni qanday tashkil qilish kerak?
8. Ko'zlangan maqsadga erishishni tekshirish uchun natijalar qanday baholanadi?

Dars berishning shakllari, uslublari turli-tuman. Maqsad, o'tilayotgan dars har bir talabaning ongiga etib borsin. Bu erda hal qiluvchi rolni didaktik sakkizburchak va o'quv jarayonining mazmuni o'ynaydi. Sxemadan ko'rinib

turibdiki, o'quv jarayonini qanday o'tishi qo'yilgan maqsad bilan uni amalga oshirish birligidan iborat. O'qituvchi, dars beruvchi sifatida har safar qanday qilib, qaysi usul bilan dars o'tsam qo'yilgan maqsadga erishaman deb o'z oldiga savol qo'yib, o'ylab ko'rsa, dars o'tishning aynan mavzuga mos keladigan uslubini topishi mumkin.

3. Fanni o'qitishda didaktik tamoyillar tizimi mohiyati.

Bilim olish darajasini tasvirlash uchun AQSh pedagogi Benjamin Blum tomonidan 1956 yil e'lon qilingan "Taksonomiya tseley obucheniya" chast 1. "Kognitivnaya sfera" (Taxonomy of Educational Objectives: Handbook 1: Cognitive Domain) kitobida ta'lim maqsadlarini qat'iy belgilangan mezonlarini ishlab chiqqan. Undan o'tiladigan darsning maqsadini rejalashtirishda, auditoriyada amaliy ish bajarish yoki nazorat ishi uchun savollar, test tayyorlashda foydalanish mumkin. B. Blumning fikricha, bilim olish (kognitiv)1 darajasi ma'lum ierarxiya tarzida joylashib, har bir bosqich avvalgisiga qaraganda murakkab hamda avvalgi bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni bilim har bir yangi pog'onaga ko'tarilar ekan, albatta, avvalgi bosqichni ham takrorlash lozim bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Olingan bilimni yodda saqlash. Bu eslash qobiliyati yoki darsda o'tilgan, o'qiganlarni kerak bo'lganda eslab, yodga tushirish qobiliyati. Bunda avvalgi darslarda o'tilgan tushuncha, tendentsiya, umumlashtirilgan xulosa kabilarni eslab yodga solish ko'zda tutiladi. U darsning dastlabki maqsadi.

2. Tushunish. Talabalarning darsda eshitganlari, o'qiganlari, ko'rganlari ma'nosini tushunishi. Qonunlar, tendentsiyalar, tushunchalar, g'oyalar ma'nosini tushunib, ularning o'zgarishi nimaga olib kelishini ko'z o'ngiga keltira olish qobiliyati. Lekin tushunish uchun avval olingan bilimni yodda saqlash kerak. Baholash *Sintez, tahlil qilish qo'llash, tushunish, olingan bilimni yodda saqlash*

Olingan bilimni qo'llash. G'oya, printsip, kontseptsiyalarni yangi vaziyatlarda qo'llash iqtidori. Bunda eng avvalo bilganlarni yodga tushirib, uni yangi vaziyat

bilan taqqoslash kerak. Tahlil qilish. Bu voqeahodisalarni bo'laklarga bo'lish, ular o'rtasida mantiqiy aloqalarni aniqlashni talab etadi. Tahlil qilish (analiz) iqtisodiy voqelik, jarayonlarni, u yoki bu shaklda induksiya yoki deduktiya uslubini qo'llashga tayanadi. Tahlil qilish uchun esa olgan bilimni yodga tushirish, muammoga tushunish, uni qo'llay bilish kerak. 5. Sintez qilish. Bilim olish va fikrlashning bu bosqichida alohida tarkibiy qismlar va turli manbalardan olingan axborotni bir butun yagona tizimga keltirish qobiliyati namoyon bo'ladi. Buning uchun yodga tushirish, masalaga tushunish, uni qo'llay bilish, tahlil qila bilish zarur. Baholash. Bu bilishning yuqori bosqichi bo'lib, talabaning qo'yilgan masalaga o'z fikri, nuqtai nazarini bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Bunda u yoki bu muammoni echishning turli yo'llari shakllanadi. Uning qaysi biri to'g'ri, samarali, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi baholanadi. Odatda, baholash mezonlaridan foydalaniladi. Bu mezon o'qituvchi tomonidan qo'yilishi yoki uni talabalarining o'zi belgilashi mumkin. Baho berish uchun, avvalo olgan bilimni yodga tushirish, masalani tushunish, yangi vaziyatda bilganlarini qo'llay bilish, tahlil qilish, sintez qilishni bilish kerak. Talabaga berilayotgan topshiriq, ana shu bilishning olti bosqichidan qaysi bosqichiga to'g'ri kelishini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy da'vatlar quyidagi so'zlar hisoblanadi.

1. Aniqlang, tasvirlang, sanab chiqing, yodga tushiring, ko'rsating.
2. Taqqoslang, farqini ko'rsating, tushuntiring, gapirib bering, misollar bilan izohlang, o'zgartirib, ifoda qiling. Qo'llang, tuzing, namoyish qiling, fikrni davom ettiring, chuqurlashtiring, loyihasini tuzing, ishlab chiqing, eching.
3. Tahlil qiling, kategoriyalarga, bo'laklarga bo'ling, tasvirlang, farqini ko'rsating.
4. Ishlab chiqing, tuzing (yarating), tendentsiyani, qonuniyatini aniqlang, umumlashtiring, tavsiya qiling, ta'riflab bering.
5. Tinglang, eching, baholang, muhokama qiling. Bilishning bosqichlariga ko'ra talabaning fikrlash doirasi, qobiliyatini hisobga olib, topshiriq, vazifa berish kerak. O'qitishning turli uslublarini qo'llashdan asosiy maqsad, talabalar bilimini yuqori

bosqichlarga olib chiqishdir. Keyingi boblarda ana shu maqsadga erishish yo'llari haqida fikr yuritamiz.

Dars berishning mazmuni shu fanda mujassamlashgan ob'ektiv reallik bilan aniqlanadi. Metodika (uslubiyat) fanning o'quv jarayonidagi harakati, rivojlanish shaklidir. Fan bilan uni o'qitish o'rtasidagi farq shundaki, fan bevosita ob'ektiv reallik bo'lib, uning rivojlanish qonunlarini ifodalash bilan birga, o'quv predmeti sifatida ana shu jarayonni bevosita tasvirlaydi. Umuman olganda, o'qitish, ilm berish ob'ektiv dunyoni bilishni shu fan erishgan yutuqlar darajasiga ko'taradi. Fan doimo rivojlanib yangi kashfiyotlar, bilimlar bilan boyib boradi. O'z navbatida, talabalarga bilim berish jarayonida ular ongiga ushbu kashfiyotlar singdirib boriladi. Iqtisodiy hayotning yangi qirralari, muammolari ularni echish yo'llarini o'rganish jarayonida beto'xtov chuqurlashib boradi. O'quv jarayonida yangi metodlar qo'llaniladi, yangi o'quv kurslari kiritiladi. Iqtisodiy fanlardan dars berishni ma'naviy, nazariy tomondan yuqori bosqichga ko'tarish ko'p jihatdan ta'limtarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'quv shakllari, metodlari, talabalarni iqtisodchi olimlarning ishlarini o'rganishlari darajasiga ham bog'liq. Iqtisodiy savodxonlik talabalarning O'zbekistonning iqtisodiy hayotida yuz berayotgan voqelikka jamiyat taraqqiyoti va jahon miqyosidagi jarayonlar birligi nuqtai nazaridan qarashni o'rganishlari bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz iqtisodiy fanlarning rolini nihoyatda oshishiga olib keldi. O'z navbatida, bu fanlarni o'qitish zamon talabiga javob berishi zarur. Buning uchun esa har bir o'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashishi, o'z ustida tinimsiz ishlab, izlanishi talab qilinadi.

O'qituvchi bir psixologik holatdan boshqa holatga oson o'ta olishi kerak. O'qituvchining ishonchli dalillari, ilmiy, asosli mulohazalari, uning fikrlarini talabalarga ta'sirini bir necha marta oshiradi. O'ziga ishonchi esa keng doiradagi bilimi, o'z fikrini ilmiy asoslab bera olish qobiliyatiga ega bo'lishda shakllanadi. O'qituvchi keltirgan misollarida talabalarga mehnatga, jamiyatga, o'rtoqlariga, jamoaga qanday munosabatda bo'lish zarurligini anglatishi kerak. Talabalarga

ta'sir ko'rsatish uchun, albatta, o'qituvchi ular o'rtasida hurmatga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi (oratorlik) ma'ruza o'qish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchida talabalarni o'z fikriga mahliyo qilish, o'zini qanday tutishni bilish qobiliyati bo'lsa, u haqiqiy talant sohibidir. Buyuk faylasuf, «birinchi muallim» Aristotel har bir so'zni qanday aytishni avval soatlab oynaga qarab, mashq qilgan ekan. O'qituvchining butun faoliyatida samimiylik, o'ziga ishonch muhim ahamiyatga ega. O'quv-tarbiya faoliyatida qo'llaniladigan metodlar o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga qaratilgan. Bu o'qituvchi bilan talaba o'rtasida ishchanlik muhitini yaratishda o'z ifodasini topadi. Bunda talabaning fikri o'qituvchi bilan birga kechishi yoki ozgina orqada qolishi yoki ozgina oldinga o'tib ketishi mumkin. O'qituvchi auditoriyani ko'rishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerak. Talaba ham, o'z navbatida, o'qituvchi uni ko'rib, nima qilayotganini bilib turishini his qilishi kerak. O'qituvchi darsni zerikarli bo'lmasligiga harakat qilishi, o'z ma'ruzasiga talaba ko'zi bilan ham qarashi lozim. Ana shunda o'zini kamchiliklari, dars o'tishda qo'llayotgan uslubi to'g'ri yoki to'g'ri emasligini tez ilg'ab oladi. O'z ishiga ijodiy yondashish, undan tashqari talabalar hayotini yaxshi bilish, talabalarni qiziqtiradigan masalalarni echishga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda, metodika o'qituvchi uchun chuqur, qiziqarli, tushunarli tarzda bilim berish asosidir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Didaktika nimani o'rganadi? Mazkur sohaning obyekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy tamoiyillarini sanab bering.
3. Zamonaviy ta'lim qoidalarga nimalar kiradi?
4. Ta'lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
5. Ta'limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?

4-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARNI O‘QITISHNING O‘QUV-MEYORIY XUJJATLARI. (2 soat)

Reja

1. Mutaxassislik fanlarni o‘qitishning o‘quv-meyoriy xujjatlari
2. Mutaxassislik fanlarni o‘qitishning o‘quv-meyoriy xujjatlar mazmuni (DTS, o‘quv rejasi, fan dasturlari, darsliklar)

1. Mutaxassislik fanlarni o‘qitishning o‘quv-meyoriy xujjatlari

Ta’lim mazmuni- inson o‘qitish jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi va xarakteri.⁸

Ta’lim mazmuni deganda ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimini, amaliy ko‘nikma va malakalarni hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik g‘oyalarni tushunamiz - deb ta’kidlaydi I.F.Xarlamov.

Ta’lim mazmuni—yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir degan qarashlarni O.Roziqov, B.Adizovlar ilgari suradilar.

An’anaviy pedagogikada formal va moddiy ta’lim nazariyasi keng tanilgan. Bu nazariyalarning mohiyati nima va o‘rta ta’lim mazmuniga qanday ta’sir etadi.

⁸ Ж.Ҳасанбоев, Х.Тўрақулов, М.Ҳайдаров, О.Ҳасанбоева, Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет

Formal ta'lim nazariyasiga Djon Lokk (XVII asr), Pestalotsti, Kant va Gerbart (XVIII-XIX asrlar) asos solganlar. XVIII asrning oxirlarida didaktik formalizm nazariyasi (konsepsiyasi) vujudga keldi (bu nom E.SHmit va A.A.Nemeyerning "Prinsipi vospitaniya i obucheniya" asarida tilga olinadi). Konsepsiya tarafdorlari ta'limni o'quvchilarning itidori va qiziqishlarini rivojlantiruvchi vositasi sifatida e'tirof etadilar. Keyinchalik bu ta'limot formal ta'lim nazariyasi sifatida shakllantirildi. Didaktik formalizm tarafdorlarining asosiy g'oyasi qadimiy olim Geraklit tomonidan aytilgan (ko'p bilim aqlni kuchaytirmaydi) fikrlariga asoslanadi. Keyinchalik bu g'oyani I.Kant va I.G.Pestalotstsilar rivojlantirishdi. Ular o'qitishning asosli maqsadi, eng avvalo, o'quvchining iqtidorini rivojlantirish, o'quvchining to'g'ri tafakkur yuritishini kuchaytirish bo'lishi shart deb hisoblaydilar.

Ushbu nazariya tarafdorlari falsafiy ratsionalizm (lotinchada «rationals» - aqli)ga tayanadilar va bilim manbai aqldir, bilim faqat aqlning mustaqilligida tug'iladi, shu bois ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlarni egallab olishlari emas, balki ularning aqlini o'stirish, ya'ni, analiz, sintez, mantiqiy fikrlash layoqatlarini rivojlantirish kabi vazifani hal etishi zarur deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, fikrlashni rivojlantirish vositasi tillar, ayniqsa, qadimiy yunon va lotin tili, shuningdek, matematikani o'rganish lozim. Formal ta'lim elementlaridan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Angliyadagi grammatik maktablarda ushbu nazariya g'oyalari asosida ish ko'riladi.

XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida moddiy ta'lim nazariyasi jadal rivojladi. Nazariyaning paydo bo'lishiga sanoat va uning ilmiy-texnik asoslari rivojlanishi asos bo'lib xizmat qildi. Binobarin, sanoatning jadal rivojlanishi tabiiy fan, texnik va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Pedagogi-psixologik tarixida bu nazariya (konsepsiya) didaktik materializm nazariyasi sifatida ham mashhurdir. Ushbu

nazariya tarafdorlari (ularni “entsiklopedistlar” deb ham ataganlar), xususan, ingliz shoiri va tarixchisi Dj.Milton, nemis pedagogi N.B.Besedovlar maktabning asosiy maqsadi o‘quvchilarga bilimlar berish deb hisoblaganlar hamda o‘zlari o‘qitadigan fanga iloji boricha ko‘proq materiallarni kiritishga intilganlar. Maktab ta’limi mazmunini shakllantirishga bunday yondoshishning samarasi kam bo‘lib chiqdi, chunki o‘quvchilarga juda ko‘p axborotlar beriladi. Natijada axborotlar qisman va yuzaki o‘zlashtiriladi. Bu nazariyaning boshqa tarafdorlari empirizm g‘oyalarini ilgari suradilar (lotincha “empiria” - tajriba). Faylasuf-empiristlar, xususan ingliz faylasufi G.Spenser (1820-1903 yillar) bilish tajriba chegarasidan chiqqan olmaydi va bilim manbai faqat tajriba hisoblanadi, deya ta’kidlaydilar. Bundan quyidagi pedagogik xulosalar chiqariladi: o‘quvchilarni asosan tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kerak, ta’lim materiallarini tanlash uchun esa hayotga, kelajakda o‘quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarga murojaat qilish kerak. Moddiy ta’lim nazariyasi real yo‘nalish deb ataluvchi maktab ta’limi asosini tashkil etadi. Masalan, XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Rossiya, va Turkistonda real gimnaziya va real bilim yurtlarida o‘qitish qadimgi va g‘arbiy YEvropa tillarini o‘rganishga emas, balki tabiiy-ilmiy fanlar (matematika, fizika, ximiya va boshqalar) hamda amaliy xususiyatli fanlarni o‘zlashtirishga asoslangan.

Formal va moddiy ta’lim nazariyalarini K.D.Ushinskiy va A.Avloniy ham juda asosli tanqid qiladilar. K.D.Ushinskiy bilimlarni o‘zlashtirishdan uzoq bo‘lgan formal deb ataluvchi rivojlanish o‘ylab topilgan yolg‘on deb aytadi. Har bir fan biror-bir boshqa narsa bilan emas, odamni o‘zining mazmuni bilan rivojlantirishini ta’kidlaydi. SHunday ekan, maktab faqatgina rivojlantiribgina qolmay, balki ularning keyingi faoliyatlarida foydali bo‘ladigan bilimlarni ham berishi kerak. O‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ana shunday fikrni bildirgan. U o‘zining “Turkiy guliston yohud axloq” nomli asarida “... bilim bizning aqlimizni va bizning xotiramizni qilich kabi o‘tkir qiladi. Bilim, fanni

egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi" deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A.Avloniy fanni o'zlashtirishga faqatgina xayoliy amaliyoti uchun utilitar (foydali) yaroqliligi nuqtai nazaridan yondoshish mumkin emas deb hisoblaydi. U hayot bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan bilimlar ham bor va ular amaliy bilimlardan kam bo'lmagan ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Misol uchun qadimgi tarixdan amaliy faoliyatda foydalanib bo'lmaydi, lekin uni o'rganish kerak va foydalidir: uni (tarixni) bilish o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoharashni shakllantiradi.

XX asr boshlarida chet el va ayniqsa amerika pedagogi-psixologiksida maktab ta'limi masalalari bo'yicha pragmatik (yunoncha «pragma» – harakat, amaliyot) g'oyasi keng tarqaldi. Pedagogi-psixologikda mashhur pragmatizm tarafdori Djon Dyun (1869-1952 yillar) maktab ta'limining o'z konsepsiyasini yaratishga ko'p urindi. Bu yo'nalishlar vakillari (Dj.Dyun, G.Kershenshteyner) o'qitish bu o'quvchining "tajribasini qayta tashkil etish" uzluksiz jarayoni deb hisoblaydilar. O'qitishni Dyun kundalik hayotdan olingan amaliy masalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang'ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: "Oldindan tuzilgan o'quv kurslari kerak emas", "O'qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak", "Bola o'qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak", "Bajarish yordamida o'qitish – maktabda asosiy metod". SHunday qilib, Dyun maktabda ta'lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta'limni tan olmaydi va o'qitishni tor hamda o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktitsizmidan iborat hisoblaydi.

Mazkur nazariya asosida uning izdoshi Uilyam Kilpatrik 20-yillarda "o'qitishning loyihali tizimi" (yoki loyihalar metodi)ni ishlab chiqdi, uning mazmuni o'z qiziqishlaridan kelib chiqib bolalar o'qituvchi bilan birga qandaydir

amaliy masalaning yechimini loyihalashtirishlaridan iborat. Misol uchun, o'yinchoq uychaning qurilishi amaliy faoliyatga kiritiladi va uning davomida til, matematika, boshqa fanlari bo'yicha u yoki bu ma'lumotlarni bilib oladilar. Bu nazariya ommaviy maktabda ta'lim darajasini pasaytirishi mumkinligini tushunish qiyin emas. Amerikalik pedagoglar I.Adler, Dj.Brunner va boshqalar Dyun nazariyasi amerika maktablari rivojlanishini ortga tortganini aytadilar va ta'limni modernizatsiyalashtirish hamda takomillashtirish yo'llarini izlaydilar.

Ko'plab pedagoglar - A.Disterveg, K.D.Ushinskiy, M.Behbudiy va A.Avloniylar maktab ta'limiga taalluqli ko'plab qimmatli g'oyalarni ilgari surganlar. Ular xalq maktablari, yangi usulli maktabda ta'lim darajasini oshirish, tabiiy-ilmiy fanlar va gumanitar fanlar birligi tarafdori edilar. Bugungi kunda turli ta'lim konsepsiyalari mavjud. Konsepsiyalardan biri ta'lim mazmunini ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanning pedagogik moslashtirilgan asoslari sifatida talqin qiladilar. Bu yerda shaxsning ijodga qobiliyati, erkin tanlashni amalga oshira bilishi, odamlarga haqqoniy munosabatlarda bo'lishi kabi sifatlari chetda qolib ketadi. Ushbu yondoshish o'quvchilarni fan va ishlab chiqarishga jalb etishga haratilgan, lekin demokratik jamiyatda mustaqil hayotga yo'naltirishga emas. Amalda odam bu yerda ishlab chiqarish omili sifatida ishtirok etadi (avtoritarizm). Boshqa bir konsepsiya ta'lim mazmunini o'quvchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida haraydi. Bu konsepsiya mualliflari bilim va malakalarni egallab olish odamga zamonaviy jamiyatda mos ravishda hayot kechirishga imkon beradi deb hisoblaydilar. Odamdan faqatgina u bilishi va bajara olishini talab etish yetarli. Bunday holatda ta'limga talablar ham quyidagicha bo'ladi: o'sib kelayotgan avlodga ona tili, matematika, fizika va boshqa fanlar bo'yicha bilim va malakalar berish zarur.

Milliy umumiy o'rta ta'lim maktabi hozirgi zamon sharoitlarida rivojlanishi uchun bu yetarli emas. Jamiyatning o'quvchilardan faqat ma'lum o'quv fanlari

mazmunini emas, balki ularda iroda kuchi, o'z harakatlari uchun, jamiyat va mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatli, atrof-muhitni himoya qilish; millatchilik va diniy aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik va shu kabi sifatlarni rivojlantirishni talab etadi. Rossiya ta'lim akademiyasi haqiqiy a'zosi V.V.Krayevskiy tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada qayd etilishicha, ta'limning asosiy ijtimoiy vazifasi ajdodlar tomonidan to'plagan tajribalarni avlodlarga uzatish hisoblanadi.

Mazkur konsepsiya mazmunida ta'lim mazmuni quyidagi to'rtta tashkiliy elementlardan iborat bo'ladi:

idrok etish faoliyatini amalga oshirish usullari qayd etilgan shaklidagi idrok etish faoliyati (bilimlar);

amaliy faoliyatni amalga oshirish usullari shaklida qayd etilgan amaliy faoliyat tajribasi (ko'nikma va malakalar);

muammoli vaziyatlar, nostandart vaziyatlarda yangi masalalarni hal etish shaklida (ijodiy faoliyat tajribasi);

atrof-muhitga, bir-biriga, emotsional qadriyatli munosabatlar tajribasi, ya'ni, emotsional, axloqiy, estetik tarbiyalash.

Mazkur elementlar o'zaro bog'liq va bir-biriga asoslangandir. Mamlakalar bilimlarsiz bo'lishi mumkin emas. Odamning ijodiy faoliyati bilimlar va ko'nikmalar mazmunli ma'lum materialida amalga oshiriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalilik odam yashaydigan jamiyatining xulq ko'nikma va malakalarini egallab olganligini ko'zda tutadi. Ijtimoiy tajribaning bu elementlarini o'zlashtirish odamga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash, yaxshi bajaruvchi bo'lish bilan birga mustaqil harakat qilish, jamiyatni o'zgartira olish, ijtimoiy taraqqiyotga o'z hissasini qo'sha olishga imkon beradi. SHuning uchun umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi birinchi navbatda, hayotga tayyorlaydi, ikkinchidan, inson

ushbu tartibga o'z hissasini qo'shish, xatto uni qayta tuzishga ham qodir bo'ladi. Akademik V.V.Krayevskiyning konsepsiyasi o'qituvchini o'quvchilar ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar tizimi, odamlarga insonparvarlik munosabatini shakllantirish, erkin fikrlovchi, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga haratilgan maxsus faoliyatga yo'naltiradi.

2. Mutaxassislik fanlarni o'qitishning o'quv-meyoriy xujjatlar mazmuni (DTS,o'quv rejası,fan dasturlari,darsliklar)

Ta'lim mazmuni – belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmiga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

- umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

-kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

-ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

-davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;
- umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;
- o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;
- umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;
- umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;
- baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetentsiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv

yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetentsiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi — davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Davlat ta'lim standartini joriy etish, shu jumladan umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan minimal talablarni, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetentsiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. O'zini o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetentsiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi. Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetentsiyalar ham shakllantiriladi.

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

O'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

Pedagogika fanlari o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlariga davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, ishchi o'quv reja, fanning o'quv dasturi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'qituvchining fanga doir taqvimiy- mavzuiy rejasi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi, darslik, o'quv uslubiy majmua kabilar kiradi.

Malaka talablari — uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

O'quv rejasi — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat hisoblanadi.

O'quv fani dasturi — ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjatdir.

Fan dasturining asosiy maqsadi – davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalar, bilim, ko'nikma va malakalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy kismlarini tartibga solish.

Fan dasturining asosiy vazifalari:

- fanga oid o'quv materiallar mazmuni va tuzilmasini maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, mashg'ulotlar mavzularining mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan mazmuniy-mantiqiy bog'liqligini ta'minlash;
- uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta'lim turlaridagi hamda turdosh yo'nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta'minlash;

- fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or horijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish;
- ta‘lim shakli va o‘quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o‘quv materiallarni mavzular va mashg‘ulotlar turlari bo‘yicha taqsimlash;
- fanni o‘zlashtirish, talabalarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur o‘quv-uslubiy shartlar, o‘quv adabiyotlar va didaktik materiallarni belgilash;
- baholash vositalari yordamida talabalar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

Fan dasturi uning asosiy maqsadi va vazifalariga to‘liq amal qilingan holda ishlab chiqilishi talab etiladi.

Fan dasturlarining mazmuni va tarkibi. Fan dasturi ta‘lim jarayonining muhim me‘yoriy-uslubiy xujjati bo‘lib, unda o‘quv materiallar ma‘ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketliklikda joriy etilishi, fanni o‘qitishda zarur hollarda kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ularga ajratilgan vaqt me‘yorlariga mosligini ta‘minlagan holda qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.

Fan dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir:

- fan dasturining titul varag‘i va uning sirt tarafidagi ma‘lumotlar;
- o‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta‘lim dasturidagi o‘rni;
- o‘quv fanining maqsadi va vazifasi;
- asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari);

- amaliyot, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar;
- mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar;
- o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari;
- asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

Darslik – DTS, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g‘oyalari singidirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta‘lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogik tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o‘qituvchi darslikda ta‘lim oluvchilar bajarilishi kerak bo‘lgan o‘quv jarayonining ma‘lum bosqichlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ta‘lim oluvchilar uchun mavzularni o‘qib, undagi topshiriqlarni ma‘lum harakatlar ko‘rinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va h.k. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Demak, darslik bu – muayyan o‘quv predmeti mazmunini o‘quv dasturida ko‘satilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo‘lib, uning xarakterli xususiyati darslik mazmunining o‘quv dasturi mazmuniga mos kelishidir.

Darslikdagi material bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo‘lgan bandlar asosida ochib beriladi.

Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o‘rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va echimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi

ahamiyati haqidagi ma'lumotlar, fanga tegishgi soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti hamda talabaning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning asosiy matni – bu ta'lim oluvchi tomonidan o'rganilishi va o'zlashtirishi majburiy bo'lgan o'quv axborotining asosiy manbai vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Darslikdagi qo'shimcha materiallar. Bu matnlar – asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materialini o'z ichiga oladi. Qo'shimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma'lumotlar kiradi. Qo'shimcha matnlar o'quv materialini o'zlashtirishga yordam berish bilan birga ijodkorlikka undovchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Darslikning tushuntirish matni – o'quv materialini tushunishga va chuqurroq o'zlashtirishga mo'ljallangan xususiy yozma tuzilma. Bu matnlar ta'lim oluvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tushuntiruvchi matnlarga izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug'atlar, ramzlar va ko'rsatkichlar kiradi. Bu matnlar tushunarli, qisqa va ma'lum tushunchani aniq shakllantiradigan bo'lishi kerak.⁹

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda

⁹ Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х.А., Алқаров И., Усмонов Н.Ў., Исыянов Р.Г., Юзликаев Ф. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. 105-бет.

topshiriqlar:

Ta'lim mazmuniga ta'rif bering.

Formal ta'lim nazariyasi haqida tushuncha bering.

Ta'lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar qaysilar?

Hozirgi sharoitda ta'lim mazmuni yetakchi g'oyalarini tahlil qiling.

Ta'lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyilini izohlang.

Ta'limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili haqida ma'lumot bering.

Ta'lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyilini ta'riflang.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyiliga ta'rif bering.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyilini izohlang.

Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili nima?

Ta'lim mazmunining o'quvchilar yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili haqida ma'lumot bering.

Pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ayting .

Davlat ta'lim standarti nima?

5-Mavzu: DARSLIKLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQISH METODIKASI VA TALABLARI

Reja:

1. Darslik tushunchasi, mohiyati va ta'lim jarayonidagi o'rni.
2. Darsliklarni ishlab chiqish metodikasi.
3. Darsliklarga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik va metodik talablar.

Ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlashda darsliklar muhim o'rin tutadi. Darslik ta'lim oluvchilar uchun asosiy bilim manbai hisoblanib, unda fan asoslari tizimli, izchil va ilmiy asoslangan holda bayon etiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida darsliklar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shu sababli darsliklarni yaratish va takomillashtirish masalasi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1. Darslik tushunchasi, mohiyati va ta'lim jarayonidagi o'rni

Darslik – davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq ravishda tayyorlangan, o'quv fanining mazmunini tizimli ravishda yoritib beruvchi asosiy o'quv adabiyotidir. Darslik o'quvchi va talaba uchun bilimlarni egallashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Darslikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bilim berish;
- tarbiyalash;
- rivojlantirish;
- nazorat qilish;

- yo‘naltirish;
- motivatsiya hosil qilish.

Ta’lim jarayonida darslik o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vosita hisoblanadi. U o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga yordam beradi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishni yengillashtiradi hamda bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda an’anaviy bosma darsliklar bilan bir qatorda elektron darsliklar, multimedia vositalari asosidagi interaktiv darsliklar ham keng qo‘llanilmoqda. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.

Darsliklar ta’lim mazmunining asosiy tashuvchisi sifatida pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari shakllantiriladi.

2. Darsliklarni ishlab chiqish metodikasi

Darslik yaratish murakkab ilmiy-pedagogik jarayon bo‘lib, bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – konsepsiyani ishlab chiqish

Bu bosqichda darslikning maqsadi, vazifalari, mazmuni va tuzilishi aniqlanadi. Darslik qaysi yoshdagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallanganligi, ularning psixologik va fiziologik xususiyatlari hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqich – o‘quv materiallarini tanlash

Darslikka kiritiladigan mavzular davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida tanlanadi. Materiallar ilmiy jihatdan asoslangan, zamonaviy va ishonchli manbalarga tayangan bo‘lishi zarur.

Uchinchi bosqich – mazmunni tizimlashtirish

O'quv materiallari oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga tamoyillari asosida joylashtiriladi. Mavzular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik ta'minlanadi.

To'rtinchi bosqich – metodik apparatni yaratish

Darslikning metodik apparati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- savol va topshiriqlar;
- amaliy mashqlar;
- testlar;
- jadvallar;
- sxemalar;
- diagrammalar;
- mustaqil ish topshiriqlari;
- nazorat savollari.

Mazkur elementlar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Beshinchi bosqich – ekspertiza va sinov

Tayyorlangan darslik mutaxassislar tomonidan ilmiy, metodik va pedagogik ekspertizadan o'tkaziladi. Shundan so'ng tajriba-sinov ishlari olib borilib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etiladi.

Oltinchi bosqich – nashr va amaliyotga joriy etish

Darslik yakuniy tahrirdan so'ng nashr qilinadi va ta'lim muassasalariga joriy etiladi. Darslikning samaradorligi muntazam monitoring qilinib, zarurat tug'ilganda yangilanadi. Darslik yaratishda pedagoglar, metodistlar, psixologlar, fan mutaxassislari va dizaynerlarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bu darslikning ilmiy, metodik va estetik sifatini ta'minlaydi.

3. Darsliklarga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik va metodik talablar

Zamonaviy darsliklar bir qator muhim talablarga javob berishi lozim.

Ilmiylik talabi

Darslikdagi barcha ma'lumotlar ilm-fan yutuqlariga asoslangan bo'lishi kerak. Faktlar, tushunchalar va qonuniyatlar ilmiy jihatdan to'g'ri bayon qilinishi zarur.

Tizimlilik va izchillik talabi

Materiallar mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilishi, mavzular o'rtasida uzviy bog'liqlik ta'minlanishi kerak.

Tushunarlilik talabi

Darslik tili o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Murakkab tushunchalar sodda va ravon tilda izohlanishi kerak.

Tarbiyaviylik talabi

Darslik mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks ettirilishi, vatanparvarlik, insonparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv talabi

Darslik o'quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikma va malakalarni ham shakllantirishi kerak. Hayotiy vaziyatlar asosida topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ko'rgazmalilik talabi

Rasmlar, jadvallar, diagrammalar, xaritalar va infografikalar o'quv materiallarini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli darsliklarda vizual vositalardan keng foydalanilishi lozim.

Interfaollik talabi

Zamonaviy darsliklarda muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, tadqiqot topshiriqlari va ijodiy mashqlar o'rin olishi kerak. Bu o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Axborot texnologiyalariga moslik talabi

Bugungi raqamli ta'lim sharoitida darsliklar elektron resurslar, QR-kodlar, videodarslar va internet manbalari bilan integratsiyalashgan bo'lishi talab etiladi.

Darsliklar ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ular o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Darsliklarni yaratishda ilmiylik, tizimlilik, tushunarlilik, tarbiyaviylik va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga amal qilish zarur. Zamonaviy pedagogik talablar asosida ishlab chiqilgan darsliklar ta'lim sifatini oshirish, barkamol avlodni tarbiyalash hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga imkon yaratadi.

5-MAVZU: FANLARNI O‘QITISHDA KO‘RGAZMALI VOSITALARNI TAYYORLASH METODIKASI.

Reja

1. O‘qitishda ko‘rgazmali vositalarni tayyorlash mazmuni.
2. Fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmali vositalarni tayyorlash zamonaviy yondashuvlar
3. Ko‘rgazmali vositalardan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati

1.O‘qitishda ko‘rgazmali vositalarni tayyorlash mazmuni.

Ta’lim vositalari. Ta’lim metodlari ta’lim vositalari bilan birgalikda qo‘llaniladi. Ta’lim vositalari – bu yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta’lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta’limning barcha vositalari ta’lim maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

Ta’lim vositalari o‘zida o‘quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan moddiy yoki ma’naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta’lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o‘qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o‘qitish» savoliga javob beradi.

An’anaviy ravishda qo‘llaniladigan ta’lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o‘quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o‘quv jarayonini tashkil etish boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta’limiy, tarbiyaviy va rivoj-lantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta'lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihati albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlab olish bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta'limning faollikni nisbatan kam talab etadigan metodlari(o'quvchilar eshitadi, ya'ni hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta'limning ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta'limning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o'lchov va mutanosiblikka e'tibor berish kerak. Masalan, ko'rgazmali vositalarning soni etarli bo'lmasligi bilimlarning sifatigata'sirko'rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga engil-elpi qara-shiga olib keladi. Murakkab mavzularni o'rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

Ta'lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo'llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollashtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub'yektiga ko'ra;
- faoliyat obyektiga ko'ra;
- o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra;

- o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.

Faoliyat subyekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi.

O'rgatish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

O'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo'linadi. Birinchisiga ko'ra, narsalar o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llanilsa, ikkinchisi – bu o'quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi.

Faoliyat obyektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

Ideal ta'lim vositalari – bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oishirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq.

O‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra ta’lim vositalari yangi materialni o‘rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o‘quv jarayonini tashkil eti shva boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo‘linadi.

O‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra ta’lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o‘quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O‘quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta’lim – kommunikatsiya (muloqot) o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o‘qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o‘quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko‘ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog‘liqlikka ko‘ra didaktik vositalar vizual (ko‘rish) – haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial(eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko‘rish-eshitish) – ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta’limning texnik vositalari. TTV – bu o‘zida o‘quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o‘quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmalari; radioeshittirish; teleko‘rsatuvlar.

Ta’limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta’limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o‘quv jarayonining jadallashuvini ta’minlaydi;
- o‘quvchilarni idrok qilishga yo‘naltiradi;

- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.

2.Fanlarni o'qitishda ko'rgazmali vositalarni tayyorlash zamonaviy yondashuvlar

Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: - ko'rgazmalilikning ta'lim oluvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi; - namoyish etilayotgan ob'ektlar barcha ta'lim oluvchilarga yaxshi ko'rinib Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №10 87 turishi; - namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi; - tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi; - namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim. Avvalo, hamma vaqt shuni esda tutish zarurki, ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish — maqsad bo'lmay, balki vositadir. Qo'llanmani ko'rsatish emas, balki u bilan ishlash kerak. O'rganilayotgan materialning mazmuni va darsga ajratilgan vaqt taqozo etgan hollardagina ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish tavsiya etiladi. Ko'rgazmali vositalardan eng ko'p qo'llaniladigani esa, o'qitishning axborot texnika vositalaridir. AKT o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarni o'zlashtirishini osonlashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda o'qituvchining o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularni mustahkamlash hamda tekshirib ko'rish borasidagi mehnatini engillashtirish uchun foydalaniladigan axborot-texnik vositalar majmuasi tushuniladi. O'qitishning axborot-texnika vositalari jumlasiga

informatsiya berishda foydalaniladigan texnika (videoproektorlar, televizion, hamda kompyuter qurilmalari va shu kabilar) gina emas, balki tegishli texnika bilan birga foydalaniladigan o'ziga xos informatsiya uzatuvchilarning o'zi (o'quv kinofilmlar, dasturlashtirilgan topshiriqlar va shu kabilar) ham kiradi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalaridagi pedagoglarning asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat. Shunday ekan, ta'limdagi zamonaviy o'qituvchining asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, kreativ fikrlaydigan, mustaqil izlanuvchan, zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan barkamol shaxs qilib rivojlantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshrishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir. Shunga ko'ra, ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalarni zamon talabiga mos ravishda tashkillashtirish hamda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqatini to'plash, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zlariga bo'lgan ishonchni uyg'otish hamda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat. Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimizning «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq», degan fikrlari so'zimizning isboti bo'ladi. Quyida ko'rgazmali materiallar xususida ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Ko'rgazmali materiallar yordamida bir vaqtning o'zida muhokama qilinayotgan savol, axborotni ham eshitish, ham ko'rish orqali qabul qilish, shubhasiz, ta'lim oluvchilarning puxta bilim olishlariga yordam beradi. Bizga ma'lumki, ko'rgazmali materiallarning xilma-xil shakllari mavjud. Taraqqiyotning

o'zi bir tomondan fanni chuqur o'zlashtirishni zarur qilib qo'ysa, ikkinchi tomondan turli-tuman yangi metodlar, ko'rgazmalilikni oshirish, texnika vositalaridan samarali foydalanish, ularni qo'llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtirish, qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam beradi. Ko'rgazmalilik, odatda, xayolan ko'z o'ngiga keltirish bilan yoki namoyish qilish bilan ta'minlanadi. Ko'rgazmali materiallar: nomoddiy, texnik va moddiy turlarga bo'linadi. Nomoddiy ko'rgazmali materiallar deyilganda, dars jarayonida so'z bilan o'qituvchi tomonidan ma'lumotlarni yodga tushirish, ta'lim oluvchilarning xayolida gavdalantirish mumkin bo'lgan ichki, xayoliy tushunchalar, ya'ni adabiyot, san'at asarlari, badiiy film, badiiy asar qahramonlari, hayotda yuz beradigan turli voqea, hodisa va turli vaziyatlarni tasavvur qilish orqali hosil qilish tushuniladi. Darsni boshlaganda o'qituvchi o'tilgan mavzuni ta'lim oluvchilarning yodiga tushiradi. O'qituvchi yangi mavzuni boshlar ekan, ta'lim oluvchilar diqqatini unga jalb qilish, fikrini yo'naltirish uchun adabiyot, san'at asarlari yoki hayotda yuz bergan voqeani gapirib berishi mumkin. Bu yangi mavzuni o'rganishga ta'lim oluvchilar ruhi va kayfiyatini tayyorlaydi.

Masalan, «Pedagogika» fanidan «Ta'lim nazariyasi» mavzusini boshlashdan avval auditoriyaga quyidagicha murojaat qilish mumkin: «Ta'lim nazariyasi», «ta'lim jarayoni» yoki «ta'lim tizimi» deyilganda nimani tushunish mumkin? Ushbu savollarga ta'lim oluvchilar o'zlari oldindan bilgan, o'qigan, eshitgan ma'lumotlarga tayanib, ko'z oldilariga keltirib, o'z fikr va mulohazalarini bildiradilar. Texnik ko'rgazmali materiallar deyilganda, ta'lim vositalarini tushunish mumkin. Chunki pedagogikada ta'lim vositalari ko'rgazmali material sifatida qaraladi. Bugungi kunda, uzluksiz ta'lim tizimini texnika vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim vositalari deb, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan har qanday bilimlarni yetkazuvchi va axborot tashuvchi vositalarga aytiladi. Ta'lim vositalari uch turga bo'linib o'rganiladi: bosma, texnik va aniq o'quv vositalari. Bosma yoki chop etilgan o'quv materiallariga chop etilgan barcha

o'quv va ko'rgazmali materiallar kiradi. Bosma materiallar o'z navbatida ikki turga bo'linib o'rganiladi, bular: matnli va tasvirli bosma materiallar. Masalan, o'quv yoki ishchi dasturlar, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatmali materiallar, ishchi varaqalari, nazorat yoki topshiriq varaqalari, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza matnlari va boshqalar matnli vositalarga misol bo'ladi. Ular ma'lumotlar olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun xizmat qiladi. Tasvirli ko'rgazmali materiallarga slaydlar, diagrammalar, jadvallar, fotosuratlar, chizma-sxemalar, plakat kabilari misol bo'ladi. Ulardan umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun foydalaniladi. Texnika vositalarini ikki turga bo'lish mumkin: audiovizual, audiovirtual yoki yordamchi-jihozli. Audiovizual vositalarga kompyuter, proyektor, kodoskop, kinoapparat, kompakt disklar, o'quv televideniyesi, videomagnitofon, videofilm, audiokassetalar, Power Point materiallari, elektron darsliklar, multimedia vositalari kabilarni misol qilish mumkin. Audiovirtual vositalarga internet, masofaviy ta'lim kabilari misol bo'ladi. Ushbu vositalar jarayonlar va ishlash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Yordamchi-jihozli vositalarga doskalar (oddiy bo'r doska, oq (flipchart) doska, magnit doskasi, «Pinbord» doskasi), parta, stul, stol kabilari kiradi. Ushbu vositalar tasvir va matnni yozish hamda saqlash uchun xizmat qiladi. Aniq vositalar ikki turga bo'lib o'rganiladi: haqiqiy va modeli. Haqiqiy ta'lim vositalari o'rganilayotgan ob'ektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirishga xizmat qiladi. Masalan, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan binolar, mashina, traktor, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, xomashyolar, asbob-uskunalar va shu kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Modelli vositalarga esa, modellar, maketlar, trenajyor kabilarni misol qilish mumkin. O'rganilayotgan ob'ektning modeli orqali u haqidagi tasavvur va ma'lumotlar hosil qilinadi. Ta'lim vositalari foydalanilishi jihatidan uch qismga ajratiladi: «ta'lim beruvchi uchun», «ta'lim oluvchi uchun» va «dars o'tkazish uchun». Dars o'tkazish uchun vositalarni

o'qituvchi umumiy bo'lgan holatda tanlaydi, ya'ni ushbu vositalar ham ta'lim oluvchi uchun, ham ta'lim beruvchi uchun samarali bo'lishi talab etiladi. Ushbu ta'lim vositalarini qanday, qayerda, qachon tanlash kerakligi va ulardan o'z o'rnida samarali foydalanish o'qituvchining bilimi, ko'nikmasi va mahoratiga bog'liq bo'ladi.

3.Ko'rgazmali vositalardan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati

Ta'lim beruvchi uchun vositalarga o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni, texnologik xarita, kalendar reja kabilar kiradi. Ta'lim oluvchi uchun vositalarga darslik, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l-yo'riqli, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolarni misol qilish mumkin. Dars o'tkazish uchun vositalarga plakatlari, modellar, maketlar, jihozlar, audio-vizual, audiovirtual vositalar, texnik, aniq vositalar kabilar kiradi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchi uchun mo'ljallangan ta'lim vositalari ta'lim beruvchi uchun ham, dars o'tkazish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi kerak.

Ma'lumki, o'qituvchi dars jarayonida o'tiladigan mavzu, uning maqsadi haqida gapirib, so'ngra dars rejasini beradi. Dars jarayonida ko'rsatib, izohlash mumkin bo'lgan ko'rgazmali qurollar – jadval, rasm, plakat, chizma, diagramma va boshqalardan foydalanish ta'lim oluvchilarning bilimini puxtalashtirishda muhim hisoblanadi. Darsda oddiy bo'r bilan yoziladigan doskani ishlatish ko'p vaqtni olganligi bois, boshqa texnik vositalardan foydalanish imkoni yo'q auditoriyalarda plakat, chizmalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biz bilamizki, chizma yoki plakatlar an'anaviy ko'rgazmali qurollar bo'lib, odatda ular standart vatman sathiga qora yoki boshqa ranglarda zarur matn yozilgan yoki jadval, chizma, diagramma va boshqalar chizilgan ko'rinishda bo'ladi. Plakatlar nashr qilingan ko'rgazmali qurol hisoblanib, o'tiladigan mavzular bo'yicha tanlab olinadi. Chizma yoki plakatlarni tayyorlash moddiy jihatdan qimmat hamda ko'p vaqtni oladi. Xato qilinsa, o'zgartirish qiyin. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda

dars jarayonida vatmanga chizilgan yoki plakat holida nashr etilgan ko'rgazmali qurollar o'rniga yangi, tayyorlash va foydalanish qulay bo'lgan zamonaviy turlari, ayniqsa, slaydlardan foydalanish keng yoyildi. Slaydlar ta'lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Zamonaviy o'quv jarayonini bularsiz tasavvur qilish qiyin. Asosiy qulaylik shundaki, ulardan istalgan vaqtda foydalanish, ish o'rnini o'zgarganda ham oson ko'chirish mumkin bo'ladi. Ko'rgazmali qurollarning afzalligi shundaki, uni dars o'tishning barcha shakllari, uslublarida qo'llash mumkin. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko'rgazmali qurollarsiz o'tib bo'lmaydi. Ma'lumki, har qanday fanni o'rganish uchun dars jarayonida turli tarqatmali materiallardan foydalaniladi. Chunki dars davomida tarqatmali materiallardan foydalanish darsning qiziqarli bo'lishiga hamda ta'lim oluvchilar diqqatini jamlash, o'tilayotgan dars mazmunining tushunarli bo'lishi va puxta o'zlashtirilishiga olib keladi.

Mavzuni o'rganishda tarqatmali materiallardan foydalanishning muhim ijobiy tomoni shundaki, u bevosita ta'lim oluvchining qo'lida bo'ladi. Tarqatmali materiallar ta'lim oluvchilar uchun o'rganilgan va o'rganilayotgan mavzuga oid axborot va topshiriq beruvchi hamda nazorat qiluvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. U ta'lim oluvchilar qo'lga mo'ljallangan bo'lib, uning hajmi va shakli uncha katta bo'lmagan yozma o'quv materiali hisoblanadi. Tarqatmali materiallarni maqsadi va mazmuni jihatidan uch turga ajratish mumkin: axborot beruvchi, topshiriq oluvchi va nazorat qiluvchi.

Tarqatmali materiallar ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirish va nazorat qilishda ham keng qo'llaniladi. Bunda nazorat varaqalari ko'rinishida tayyorlangan test savollari, savolnomalar, krossvordlar, jadvallar, chizmalar, masala va mashqlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, tarqatmali materiallardan ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Tarqatmali materiallarni

tayyorlash hamda uni o'rganilgan va o'rganilayotgan mavzu jarayonida qo'llashning bir qator qonun-qoidolari mavjud, xususan:

- tarqatmali materiallarni tayyorlashda mavzuning asosiy mazmunidan kelib chiqib yoritish;

- olingan axborot dars davomida yoki darsdan tashqarida ta'lim oluvchilar bilan mustaqil muhokama qilinishiga erishish;

- ta'lim oluvchilar diqqatini mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga chorlay olish;

- ta'lim oluvchilarni dars davomida faollikka yo'naltirish;
- ta'lim oluvchilarning olgan bilimlarini nazorat qilish va baholay olish;

- ta'lim oluvchilar qo'lga haddan tashqari ko'p tarqatmali materiallarning berilmasligi;

- sarlavhalarni bosh harflar bilan yozish;

- bir matn uchun 2-3 ta tarqatmali materialga nom-kod berish (ajratishni osonlashtirish uchun);

- matn shrifti 14 o'lchamdan kichik bo'lmasligi;

- bir betda 50 tadan ko'p belgi (harf, qavs, undov kabilar)lar ishlatilmasligi;

- matnlar tushunarli, qisqa, aniq, ravon va oddiy bo'lishi;


- varaqa dizayni ta'lim oluvchi e'tiborini o'ziga jalb qila olishi va xatosiz yozilishi kabilar.

Darsni o'tishda ko'rgazmali materialni qanday namoyish qilish ham katta ahamiyatga ega. Namoyish qilish jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, unda quyidagi didaktik talablarga rioya qilish tavsiya etiladi: ISSN: 2181-3337 hamma ta'lim oluvchilar namoyish qilinayotgan obyektning ko'rishlari, eshitishlari, tushunishlari; - obyektning muhim, asosiy tomonlari ta'lim oluvchilarda katta taassurot qoldirishi, maksimal darajada diqqatlarini jalb qilishi; - o'rganilayotgan ob'ektning sifatini mustaqil ravishda o'lchash, anglash va o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlash kabilar. Ko'rgazmali va tarqatmali materiallarning asosiy yo'nalishlaridan biri namoyish qilish metodining o'ziga xos davomi bo'lgan

illyustratsiya hisoblanadi. Namoyish qilish metodidan yoki illyustratsiyadan ham ko'rgazmali, ham tarqatmali material sifatida foydalanish mumkin. Undan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Namoyish qilishda ko'proq predmetlardan foydalaniladi. Ilyustratsiya predmet, jarayon, hodisalarni simvollar yordamida ifoda qilish bo'lib, odatda, u plakatlari, karta, portret, fotografiya, rasm, chizma, grafik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ilyustratsiya materiallari oldindan tayyorlanadi, lekin ulardan zarur paytlarda foydalaniladi. Ilyustratsiyaning samaraliligi ko'p jihatdan uni qanday tarzda qo'llashga bog'liq. Ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish darajasi keng, ulardan qanday tarzda, qanday maqsadlarda foydalanish o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ko'rgazmali va tarqatmali materiallarni tanlar ekan, birinchidan, darsning ma'ruza yoki seminar mashg'ulot shakllidaligini hisobga oladi. Ikkinchidan, mavzu orqali o'qituvchi ta'lim oluvchilar oldiga qanday vazifa qo'ymoqchi, maqsadi nima, muhokama qilinayotgan muammoni yechishda ko'rgazmali qurol yoki tarqatmali material qanday yordam berishi mumkinligini hisobga olib, ularni tanlashi kerak bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan sinf taxtasi va bo'rdan tortib, elektron hisoblash mashinalarigacha bo'lgan, o'quvchi-talabalarga ma'lumotlarni chuqur anglashga yordam berishga yo'naltirilgan materiallar o'qitish vositalarini anglatadi. B.Q.Xo'jayevlar quyidagicha tasniflangan:



Ko'rib turganimizdek bu materiallar turlicha bo'lib, avvalo, ularning o'ziga xos xususiyati, ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni bo'yicha farqlash lozim. O'qitishning didaktik vositalari yangi ma'lumotlarni o'qituvchi tomonidan bayon qilish, o'quvchilar tomonidan esa o'zlashtirishning eng qulay manbai hisoblanadi. Didaktika fanida o'qitish metodlari va o'qitish vositalarining o'zaro bog'ligi, biri birisiz mavjud bo'lolmasligi va ko'zlangan maqsadga erishishning qiyin bo'lishi qayd etib o'tiladi. Chunki, o'qitish metodlari, o'quvchi-talaba erishmoqchi bo'lgan fan cho'qqisiga ko'tarilishining yo'li bo'lsa, o'qitish vositalari mana shu yo'lda o'quvchi va o'qituvchiga suyanchiq bo'ladigan, yo'lni shamchiroq singari yoritadigan «kompas», «xarita» sifatida ishtirok etadigan qurol hisoblanadi. Mabodo shu qurol bo'lmasa, yoki o'tmas, ishga yaroqsiz bo'lib qolgan bo'lsa unda muddaoga erishish qiyin kechadi. Shuning uchun ta'lim-tarbiyada o'qitish vositalari aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisadir. Ma'lumki, tabiat hodisalari, jamiyatda ro'y beradigan voqealar inson ongi orqali o'zlashtirilganda odam va tabiat, jamiyat o'rtasida qandaydir aloqa o'rnatiladi. Mana shu aloqa rolini ta'limda o'qitishning didaktik vositalari bajaradi. Shunga asosan o'qish, o'qitish jarayonini «inson–o'qitish vositalari –muhit (obyekt)» kontekstida izohlash pedagogikada qabul qilingan. O'quv-tarbiya jarayonida bu vositalardan keng foydalanish o'qitishning mukammalligini, ishonchliligini kuchaytirib, o'rganuvchilarning obyekt voqealarini tushunib etishini oshiradi va bilim sifatini yaxshilaydi.

O'qitishning texnika vositalari va ularning turlari.

Zamonaviy o'qitish jarayonida qo'llaniladigan didaktik vositalarning xilma-xilligini tasniflash va ularni qo'llashda o'quv jarayonining, shart-sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamonda ta'lim va tarbiya imkoniyatlarini oshirishga yordam beradigan va ko'p qo'llaniladigan didaktik vositalar majmuining eng ko'p tarqalgan turi–bu o'qitishning texnika vositalaridir. O'TV garchi ilmiy asosda qat'iy tavsiflangan texnika vositalari mavjud

bo'lmada, ammo ularni tasniflashda pedagogikada ayrim yondashuvlar mavjud. O'qitishning texnika vositalarining bunday guruhlanishi, avvalo, ularning sezgi organlariga, xotiraga, diqqatga ta'sirini va bajaradigan ish turini hamda ishlash prinsipining inobatga olinganligidadir. Bunda, O'TVning avtomatlashtirilganlik darajasi, o'qituvchilar tarkibi, texnika vositalarining tuzilishi, o'quv jarayonida ularni qo'llash imkoniyatlari e'tiborga olinmog'i darkor. O'qitishning texnik vositalari o'quvchi-yoshlarning sezgi organlariga, diqqat va xotiraga ta'sirini inobatga olib, hamda O'TV qo'llash jarayonida, o'qitishning oddiydan murakkabga, aniqdan noaniqqa tamoyili asosida ish tutishi va ularni o'rganishda ham shu ketma-ketlikka rioya qilish muhim didaktik hodisa deb tavsiflanadi. endi ularni shu yo'nalish bo'yicha tasniflanishini ko'rib chiqamiz.

Ko'rishga moslashtirilgan vizual (ekranli) vositalar. Bu o'quv-texnika vositalari o'qitishning didaktik vositalar majmui orasida eng birinchilaridan biri hisoblanadi va o'quv jarayonida ham eng ko'p qo'llaniladi. Chunki, ular oddiy bo'lib foydalanish uchun eng qulay va ko'p tarqalgan vositalardir. Bunday texnika vositalariga diapozitivlar, epidioskoplar, kodaskoplar, diafil'mlar, transparantlar, dioproek-torlar, grafoproektorlar, fil'moskoplar, kinoproektorlar, videoproek-torlar kiradi. Ularning ishlash texnologiyasi deyarli bir xil bo'lib, ular shisha, shaffof plyonkalarda yozilgan ma'lumotlar va axborotlarni ekranda proektsiyalab beradi. Fikrlar aniq, lo'nda qilib bayon etilgan, ammo tovushsiz. Tovushli eshittirish orqali ma'lumotlarni idrok etish zamonaviy o'quv radiosi, tovush yozuvchi va tovushni kuchaytirib beruvchi apparaturalar orqali amalga oshiriladi.


2. Ko'rish va eshitishga moslashtirilgan audiovizual vositalar. eshitish va ko'rish yordamida ma'lumotlarni idrok etish. Audiovizual vositalar yordamida amalga oshadi. Bularga kinofil'mlar, teleko'rsatuvlar, videoyozuvlar, diafil'mlar, videomagnitafonlar taalluqli bo'lib, ular videoproektorlar yordamida video axborotlarni proektsiyalab beradi. Bugungi kunda videomagnitafonlar,

kinofil'mlar, televidenie o'quv jarayonida keng qo'llaniladigan didaktik vositalar sirasiga kirib qoldi.

Ilmiy-nazariy ma'lumotlar va maktab tajribasining ko'rsatishicha o'quv-ko'rgazmali vositalar o'qitishning didaktik vositalari majmui mazmunidagi eng oddiy, eng qulay va qo'llash uchun har tomonlama oson hamda ko'p tarqalgan vositalar hisoblanadi. O'qitishning o'quv-ko'rgazmali vositalarini ba'zan vizual, ya'ni o'qitishning tovushsiz vositalari deb ham atashadi. Chunki, o'quv-ko'rgazmali vositalarda axborotlar (obyekt) tasvirlangan bo'lib, ularda tovush bo'lmaydi. Shuning uchun ham ularni faqat namoyish etish mumkin bo'ladi.

O'qitishning o'quv-ko'rgazmali vositalarini ko'p qo'llanishining yana bir sababi, ular oddiy maktab sharoitida ham tayyorlanishi mumkin. Ularda ma'lumotlar (obyekt) qisqa, lo'nda, yo'nalishli, bayon etiladi. Shuning uchun ulardan foydalanish, ularni qo'llash va yaratish juda oson hisoblanadi. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, o'quv-ko'rgazmali vositalar muntazam faoliyatda bo'lishi, o'qituvchining mavzuli-ishchi rejasida o'z ifodasini topishi uchun ta'lim muassasalarida o'quv-ko'rgazmalari vositalar kartotekasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Kartotekada o'quv-ko'rgazmali vositaning nomi, mavzuli-o'quv dasturdagi mavzu raqami, qisqacha mazmuni ifodalanishi darkor. Chunki, bu vositadan aniq vaqtda, aniq mavzuda foydalanishni osonlashtiradi. O'quv-ko'rgazmali didaktik vositaning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, ular o'quv predmetlarining juda ko'p jihatlarini, kunlik turmushimizdagi hodisotlarni, ishlab chiqarish sohalaridagi ayrim lavhalarni aks ettiradi. Ulardan o'rinli foydalanish o'quv predmetining mazmunini qiziqarli, o'quv ma'lumotlarini ta'sirchan, o'quvchilar o'zlashtirish jarayonini samarali qiladi. O'quv-ko'rgazmali vositalarini tor ma'noda ko'rgazmali vositalar, kengroq ma'noda o'qitishning didaktik vositalari deb atash qabul qilingan. Uning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning

ko'rish organlariga ta'siri, ko'rinish qoidalari, ma'lumotlarni bayon eta olish imkoniyati, axborotlar etkazish turi bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin.



Jadvalda aks ettirilgan o'quv-ko'rgazmali vositalar, didaktik vositalar majmuidan o'rin olgan muhim o'quv vositalari hisoblanadi. Axborotni uzatish, muayyan ko'rinishda izohlash nuqtai nazaridan natural o'quv-ko'rgazmali vositalar eng qulay va ko'p qo'llaniladigan vosita hisoblanadi. Chunki, ularni tabiiy holda ko'rsatish imkoniyatlari katta. Ularni pechatli (chop etilgan) ko'rsatmali vositalar to'ldiradi. Ular mavjud va ularni ta'lim muassasasi sharoitida ham yasash mumkin. O'qitishning hajmli ko'rgazmali vositalari ko'p tarqalgani hamda ularni yaratish imkoniyati mavjudligi uchun ham ular eng qulay o'quv-ko'rgazmali vosita sanaladi. Bugungi bozor iqtisodi sharoitida ulardan foydalanish faoliyat uchun samarali bo'ladi. Proektsion ko'rgazmali vositalar garchi texnika bilan bog'liqlik tomoni bo'lsada, ular ovozsiz namoyish etilganligi sababli ular ushbu guruhga kiritilgan. Ularni ham tabiiy holatda uncha ko'p mablag' sarflamasdan taxrlash va qo'llash mumkin bo'ladi. Qayd etib o'tilgan, guruhlardan o'rin olgan o'quv-

ko‘rgazmali vositalardan foydalanganda, birinchidan, o‘quv yurtining shart-sharoitidan kelib chiqish, ikkinchidan, o‘quvchilarning ushbu didaktik vositaga munosabatlarini inobatga olish va nihoyat, uchinchidan, ularning samaradorligiga va didaktik jarayonning muhim tamoyillariga tayanish lozim bo‘ladi. endi har bir guruhdagi o‘quv-ko‘rgazmali vositalar majmumi bilan tanishib chiqamiz.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlarning mohiyati va ahamyatini tushuntiring. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodlarning vazifalarini ayting.

Pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarga qo‘yiladigan asosiy didaktik talablarni izohlang. Amaliyotda qo‘llanilayotgan o‘qitish metodlarining mazmuni nimalardan iborat?

Pedagogik fanlarni o‘qitish vositalari haqida ma’lumot bering.

Real ko‘rgazmali vositalarni tavsiflang.

Laboratoriya metodi nima?

Ta’lim metodlarini klassifikatsiya qiling

Ta'lim metodlari	Ta'lim metodlari guruhlari
Og‘zaki	Ma'ruza, suhbat, hikoya, tushuntirish, munozara, kitob bilan ishlash
Ko‘rgazmali	
Amaliy	
Induktiv va deduktiv	
Reproduktiv	
Muammoli-izlanuvchan	
Mustaqil ish metodlari	

O'quv-biluv faoliyatini	
Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	

6-MAVZU. MUOMMALI VAZIYATLARNI YARATISH METODIKASI (2 soat)

1. O'qitishda muommali vaziyatlarni yaratish mazmuni.
2. Fanlarni o'qitishda Muommali vaziyatlarni yaratishning ilmiy –pedagogik yo'llari
3. Muommali vaziyatlarni yaratishning bugungi kundagi ahamiyati

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI.

Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasi- zamonaviy ta'lim - yuksak malakali mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olib tayyorlashni, talabalarning tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, mustaqil ravishda amaliy faoliyatga o'rgatishni ta'minlashi kerak.

Shuning uchun ham tadqiqotchilar va ilg'or o'qituvchilar talabalarda o'quv faoliyatiga ijodiy yondashishni rivojlantirish yo'llari, texnologiyalari va usullarini qidirib topmoqdalar. Bu izlanishlar jamiyatni tarbiyalashning yangi tuzilmasini yaratishdan iborat umumiy jarayonning davomi va rivojidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonida ijobiy samara berayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri muammoli o'qitishdir.

Muammoli o'qitish, ta'lim berishning eng samarali usullaridan bo'lib, u asosan ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi.

Muammoli ta'lim – bu o'qituvchining talabalarni ketma-ket muammoli vaziyatlar tizimini oldindan o'ylab qo'yilgan yaratish yo'li bilan muammoli o'rgatish shartlarini ta'minlash va ularni talabalar tomonidan echish jara'ini boshqarish bo'yicha faoliyatidir.

Muammoli o'rganish – ta'lim oluvchilarning bilimlar va muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ifodalash hamda ularni echish faoliyat usullarini – taxminlarni o'rtaga tashlash, asoslash va farazni isbotlash orqali o'zlashtirishi bo'yicha ijodiy o'quv faoliyatini maxsus tuzilishidir.

Muammoli o'qitish deganda o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni qo'yish va ularni echish bo'yicha talabalarni faol mustaqil faoliyatini ko'zda tutadigan va natijada ijodiy ravishda kasbiy (ëki predmet) bilim, ko'nikma va malaka (BKM)lari ijodiy egallangan hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tushuniladi.

Muammoli texnologiyaning maqsadi ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni egallatish, ular tomonidan mustaqil faoliyat usullarini o'zlashtirish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

T.V.Kudryavtsev muammoli o'qitish mohiyatini quyidagida ko'radi: muammoli o'qitish talabalar oldida muammoli vaziyatlarni yaratishda, talabalarning mustaqilligida va o'qituvchining umumiy rahbarligi ostida, maktab o'quvchilarining o'qituvchi bilan birgalikda faoliyati borishida bu vaziyatlarni anglash, qabul qilish va hal qilishda xulosalanadi. Biroq, bunday aniqlash muammoli o'qitishni tushunishning butun hajmini aks ettirmaydi. Bundan tashqari, ba'zan o'qitishning tadqiqot usullari guruhi ham muammoli o'qitish deb yuritiladi.

Ehtimol, bu erda «muammoli» soʻzini tadqiqot maʼnosida tushunish taʼsir koʻrsatadi.

Oʻqituvchisi tomonidan qoʻyilgan muammoni hal etish jarayonida talaba maʼlumotlarni qayta ishlabgina qolmaydi, balki ularni oʻzlashtiradi va oʻzi uchun yangi bilimlarni kashf etadi. Muammoli oʻqitishning asosiy mohiyati hamda afzalligi shundaki, oʻqituvchi taʼlim usullari (muammoli savollar qoʻyish, gipotezalarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, talabalarga «yordam soʻrab» murojaat etish va boshqalar) orqali ularni ijodiy fikrlashga hamda munozaraga chorlaydi.

Muammoli metodlar – fandan muammoli vaziyatlar yaratishga, talabalarning maxsus fanlardan bilimlarini faollashtirishni talab etadigan, murakkab masalalarni izlash va echishga, tahlilga, alohida faktlar ortida hodisa va qonunlarni koʻra olishlariga asoslangan metodlardir.

Hozirgi zamon psixologiyasi va didaktikasi shunga asoslanadiki, fikr yuritish jarayonining boshlangʻich momenti, odatda, muammoli vaziyat boʻladi. Insonda biror narsani tushunishga talab paydo boʻlganidagina u fikr yurita boshlaydi.

Muammoli vaziyat – muayyan qiyinchilik sabab yuzaga kelgan holat boʻlib, uni bartaraf etish yoʻli topilishi kerak. Vazifa engil hal etiladigan yoki aksincha hal etilishi mumkin boʻlmagan paytda muammoli vaziyat vujudga kelmaydi.

Muammoli oʻqitish jarayonida oʻqituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qoʻyadi, masalalarni, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni echishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining toʻgʻriligini tasdiqlaydi. Talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yoʻllari toʻgʻrisida oʻylaydilar hamda takliflar kiritadilar. Oldin olgan bilimlarini umumlashtirib, hodisalarning sabablarini

aniqlagan holda, ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni echishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Bu metod ta'lim oluvchilarning bilim qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatni o'rganish mavzuga oid materialni tahlil qilishda talaba shu vaziyatga o'zi kirishishi, uni tushunishi, baholay olishi kerak. Ushbu holatda u qanday muammo borligi va qo'yilayotgan muammoning mohiyati nimada ekanini aniqlashi lozim, muammoni hal etishdagi o'zining roli va bunda o'zini qanday tutishi kerakligini belgilashi kerak. Muammoli vaziyatlar metodi tayyorlov, tanishuv, tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichlariga bo'linadi. Tayyorlov bosqichida o'qituvchi maqsadni belgilab, kerakli vaziyatni rejasini ishlab chiqadi, ya'ni:

- a) beriladigan misol nazariy kursni mantiqan davom ettirishi va talabalarning kelgusidagi kasbiy ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi kerak;
- b) qo'yilayotgan muammo murakkabligi ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari darajasida bo'lishini hisobga olish kerak, ya'ni talaba bir tomondan vazifani bajara olsin, ikkinchi tomondan uni bajarish ishtiyoqi hamda muvaffaqiyat hissi paydo bo'lsin;
- v) talabalarga muammo ustida ishlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilishi kerak. Tanishuv bosqichida talabalar muammoni real, ya'ni jonli muhokama qilishga jalb etiladi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarning ma'lum sohadagi bilim, ko'nikmalarini hisobga olgan holda bajariladigan, ishning umumiy izohini belgilaydi. Individual ravishda yoki butun guruhni qo'yilayotgan muammoning mazmuni bilan tanishtiradi. Tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichida muammoli vaziyatni tahlil etish guruhiiy ish bo'lgani uchun muammo ochiq bahs-munozara shaklida hal etilgani ma'qul. Muhimi, talabalardagi faollikni rivojlantirish va muammoni hal etish bo'yicha boshqalar kiritgan taklifga xolis

baho berish. Bu esa ishlab chiqarishda yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil etish ko'nikmasining takomillashuviga va mustaqil ravishda qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Barcha tahlillardan so'ng yakuniy xulosa chiqaradilar.

Maqsadga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni yaratishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Muammoli vaziyat ta'lim oluvchilarning ishlab chiqarish faoliyatiga asoslangan bo'lishi kerak.
2. Muammoli topshiriq talaba o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga mos bo'lishi lozim.
3. Muammoli vaziyat yangi mavzuni tushuntirishdan oldin qo'yilishi kerak. Agar mos muammoli vaziyatni hal etishga talabalar malakasi etarli bo'lmasa, ularga ayrim amallarni bajarishdagi ish usullarini ko'rsatish, zarur bo'lgan bilimlarni eslatish lozim.
4. Bilim, ko'nikma va malakalar takomillashuv jarayoni bevosita o'qituvchi-pedagogning rahbarligi ostida muammoli vaziyatlarni hal etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Muammoli vaziyat yaratish bilan birga, xulosa chiqarishlariga yordam beradigan yo'llovchi savollar berib borishni ham nazarda tutish lozim.

Muammoli o'qitish jarayonini qurish uchun mos ravishdagi muammoli vaziyatlarni oldindan ko'zda tutilgan va tizimli yaratish talab qilinadi. Quyida keltirilganlar maxsus fanlarni o'qitish amaliyoti uchun xarakterli hisoblanadi.

Birinchi toifa. Muammoli vaziyat ko'pincha talaba yangi amaliy sharoitlarda oldin o'zlashtirgan bilimdan foydalanish zaruriyati bilan duch kelganda hosil bo'ladi. Bunda ta'lim oluvchilar amaliy topshiriqlarni echish uchun bilim, ko'nikma va malakalarning etarlicha emasligi dalili bilan tez-tez duch

keladi. Bu dalilni anglash talabalarda ongli qiziqishni uyg'otadi hamda yangi bilimlarni izlashga undaydi.

Ikkinchi toifa. Topshiriqni echishning nazariy mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan amalga oshirilmasligi orasida qarama-qarshilik bo'lgan holda muammoli vaziyat oson yuzaga keladi.

Uchinchi toifa. O'quv topshirig'ini bajarish natijalariga amaliy jihatdan erishish va talabalarda uni nazariy asoslash uchun bilimlarning yo'qligi orasida qarama-qarshilik bo'lganda muammoli vaziyat yuzaga keladi.

To'rtinchi toifani eng ko'p tarqalgan deb hisoblash mumkin. Agar talabalar qo'yilgan masalaning echish usulini bilmasa, ya'ni talabalar tomonidan yangi dalilni tushuntirish uchun oldingi bilimlarining etarli emasligi tan olingan holda muammoli vaziyat yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, muammoli vaziyat o'quv-ishlab chiqarish jarayonida talabalarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim omili bo'ladi.

O'quv materialini muammoli bayon qilish uslubini qo'llash, amaliy muammoli-qidiruv ishlarini bajarish, hatto tadqiqot ko'rinishidagi amallarni olib borish to'g'risida so'z yuritish mumkin.

O'quv materialini muammoli uslub yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, dalillarni tahlil qilish, talaba fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq bo'lishiga undash kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Muammoli bayon - ta'lim oluvchilarni muammoli o'qitishga o'ziga xos tayyorlashdan iboratdir. Bu shunday o'qitishki, unda talabalar oldida bilim olish sohasiga doir vazifalar qo'yiladi hamda ular bu vazifalarni hal etish yo'llarini

mustaqil ravishda yoki o'qituvchi yordamida izlaydilar. O'quv materialini muammoli bayon qilish shunday tuziladiki, bunda o'qituvchining o'zi muammo qo'yadi, o'zi uni hal etadi, talabalarga muammoni hal etish namunasini ko'rsatadi. U talabalar tafakkurini turli usullar bilan faollashtiradi, talabalar ham muammoning qanday hal etilishini kuzatib boradilar. O'qituvchi talabani muammoni hal etishning ishtirokchisiga aylantiradi. Bunda o'qituvchi fikr yuritishni faollashtirishning tajribalar o'tkazish, diafilmlar va kinofilmlar, virtual lavhalarni namoyish qilish, masalalar qo'yish hamda ta'lim oluvchilarning tajriba boshlanishidan oldin turli taxminlarni aytishlari singari vositalardan foydalanadi. Shu tarzda talabalarning tajribaga jiddiy e'tiborini qaratishga, ularni fikr yuritish faoliyatiga, tajriba ma'lumotlarini umumlashtirishga, xulosalarni ta'riflashga jalb etishga erishiladi.

Ammo talabalar o'qituvchi muammoni hal etish sari qanday yo'l bilan borayotganligini faqat kuzatib tursalar, ilmiy fikr yuritish metodini egallay olmaydilar. Talabalarning o'zlarini izlanish faoliyatiga asta-sekin jalb etish ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Muammoli ta'limda qisman izlanma va evristik qidiruv metodlarini qo'llash mumkin. Bunda o'qituvchi ta'lim oluvchilar oldiga qator izchil va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan savollar majmuini qo'yadi. Talabalar ularga javob berganda qandaydir shakllarni aytadilar. Aytganlari to'g'riligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. Shu bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil ravishda oldinga siljishni amalga oshiradilar. Agar evristik suhbatda bunday taxminlar yangi mavzuning faqatgina biror qismiga aloqador bo'lsa, muammoli – qidiruv suhbatda talabalar muammoli vaziyatning butun bir tizimini echadilar. Ta'limning muammoli – qidiruv uslublarida ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan

eksperimental masala-larni qo'yish uchun ishlatiladi. Bu usulda talabalarga mustaqil fikrlashining ustuvor sabablarini aniqlash oson ko'chadi.

Muammoli – qidiruv uslublari ko'proq ijodiy bilim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Ular talabalarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam beradi. Bu uslublari, ayniqsa, quyidagi hollarda samarali qo'llaniladi: o'quv jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko'zda tutilganda, daliliy axborotni ma'lum qilish, mehnat faoliyatida laboratoriya - eksperimental o'quv va ko'nik-malarini hosil qilishda, o'quv materialining mazmuni printsipl jihatdan yangi bo'lmasdan, ilgari o'rganilganining mantiqiy davomi bo'lsa, uning asosida talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab, oqibat va boshqalarga olib kelsa, qidiruv uslublari o'qituvchilar, talabalarni muammoli vaziyatni echish faoliyatiga tayyorlagan hollarida qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan bu uslub o'zini tadqiqot ishiga bag'ishlagan yoshlarga bilim berishda asqotadi.

Qisman izlanma metod talabalarni izlanishning turli bosqichlarida tadqiqot faoliyatiga jalb qilishni, muammolarni topish, gipotezani ta'riflash, isbot usullarini topish, xulosalarni ta'riflashga jalb qilishni taqozo etadi.

Ta'lim oluvchilarni izlanish faoliyatiga jalb qilishning yana bir usuli umumiy vazifani bir qator kichik vazifalarga bo'lish va ularning ayrimlarini talabalar hal etishidir.

Qisman – izlanma metod – muammoli bayondan muammoli o'qishga, vazifalarni mustaqil qo'yishga va ularni mustaqil hal etishga o'tishning o'ziga xos ko'pligidir.

O'tkazilgan tajribalar muammoli o'qitishning katta samara keltirishini ko'rsatdi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, muammoli o'qitish ta'lim jarayoniga asta-sekin, talabalarni muammoli bayon qilish jarayonida va qisman-

izlanma faoliyatidan foydalanish jarayonida tayyorlash yo'li bilan kiritilishi kerak. Butun o'quv materialini muammoli yo'l bilan o'rganish mumkin, deb o'ylash yaramaydi. O'quv materialining ko'p qismi o'qituvchining oddiy bayoni yordamida, talabalarning darslik va boshqa ma'lum usullar orqali materialni mustaqil o'rganishi yordamida ham o'rganib kelindi hamda o'rganiladi.

2. Fanlarni o'qitishda Muammoli vaziyatlarni yaratishning ilmiy –pedagogik yo'llari

Muammoli o'qitishda o'qituvchi aniq o'quv maqsadlariga yo'naltirilgan savollar va topshiriqlar ishlab chiqadi. U muammoli savollarni hal etishda yoki topshiriqlarni bajarishda talabalarning aniq maqsadga yo'naltirilgan harakatiga turtki beradi va jarayonni nazorat qiladi. Talaba esa o'z ta'limining faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Muammoli o'qitishning mohiyati shundaki, talabalar o'zlari muammoni mustaqil echishlari kerak. Demak, o'quv materiallari va topshiriqlar tizimi shunday tuzilishi kerakki, ular asosan mustaqil fikr yuritishga hamda o'rganishga qaratilishi lozim.

Muammoli o'qitishning afzalliklari, ijobiy va yaxshi tomonlari bilan bir qatorda, uning kamchiliklari ham mavjud. Uning kamchiliklari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har qanday o'quv materiallarini (masalan, raqamli va miqdoriy ma'lumotlar, dalillar, sanalar) ham muammoli vaziyatni yuzaga keltiruvchi qilib bo'lmaydi;
- o'quv muammosini har doim ham ifodalash mumkin emas;
- muammoli o'qitish ko'nikmalarga ishlov berish va ularni malaka darajasiga o'tkazish imkoniyatiga ega emas;
- talabalar bilishi juda oson bo'lgan va juda qiyin bo'lgan masalalar muammoli vaziyatni yaratmaydi;
- muammoli o'qitishda iqtisod qilish kam hamda katta vaqt sarf qilishni talab etadi.

Muammoli o'qitishdan foydalanish shartlari. Muammoli o'qitishdan:

- o'quv materiallarining mazmuni sabab-oqibatli aloqa va bog'lanishga ega bo'lib, tushuncha, qonun hamda nazariyani shakllantirishga qaratilgan;
- ta'lim oluvchilar mavzuni muammoli o'rganishga tayör;
- ta'lim oluvchilar fanlardan mustaqil fikrlashni rivoj-lantirishga, tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishga, ishga ijodiy ëndashishga qaratilgan masalalar echaëtgan;
- o'qituvchida predmet mavzusini muammoli o'rganishga vaqti bor;
- o'qituvchi mos o'qitish metodlarini yaxshi egallagan bo'lsagina foydalanish maqsadga muvofiq.
- interaktiv vositalardan foydalanish zarurati tug'iladi. Keling, "texnologiya" tushunchasini ko'rib chiqaylik. Ensiklopedik lug'atda quyidagi ta'rif berilgan: Texnologiya – biror ishda, san'atda, mahoratda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. (Izohli lug'at). Pedagogik texnologiya esa – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov). bolalarni ijodiy fikrlashga, muammoni ko'rishga, bu muammoni hal qilish uchun farazlar qo'yishga, mustaqil echimlarni topishga, xulosa va xulosalar chiqarishga o'rgatadigan muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta'limning asosiy tarkibiy qismlaridan biri muammoli vaziyatdir. Muammoli vaziyat deganda muammoning markaziy bo'g'ini tushuniladi, uning yordamida fikr, kognitiv ehtiyoj uyg'onadi, tafakkur faollashadi va to'g'ri umumlashmalarning shakllanishi uchun sharoit yaratiladi. "O'qitish va tarbiyalashda muammoli vaziyat yaratish", - deb qayd etadi A.M. Matyushkin, - siz bolani o'zlashtiradigan bilimingiz noma'lumning o'rnini egallaydigan vazifani bajarishga muhtoj qilishingiz kerak.

Fikrlashning eng kuchli motivatsiyasi aynan muammoli vaziyatda shakllanadi. Natijada, odam kutilmaganda duch kelgan qiyinchiliklarning asl sabablarini bilish, bilish, tushunish istagi (motivi) paydo bo'ladi. Tahlil qilishni, taqqoslashni, savollarni hal qilishni talab qiladigan muammoli vaziyatlarni hal qilishda bola o'z bilimiga tayanishi kerak, uning yordamida aloqalarni o'rnatadi, yangi unvon va ko'nikmalarni egallaydi va o'ziga xos xulosalar chiqaradi. Olib borilgan tadqiqotlarda axloqiy tarbiyada muammoli vaziyatni hal qilishning muhim rolini, ijobiy ish qilishga rag'batlantirish va o'zini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirishni ta'kidlaydi. Muammoli vaziyatni hal qilish uchun texnologiya kerak. Olti bosqichdan iborat muammoli vaziyatni hal qilish texnologiyasini ko'rib chiqing. 1. Vaziyat bilan tanishtirish.

2. Muammoli vaziyatni yaratish, maqsadni belgilash, motivatsiya faoliyat.

3. Muammoli vaziyatni loyihalash va hal qilish.

4. Bolalar tomonidan yangi bilimlarning ochilishi.

5. Bilimlar tizimiga qo'shilish va takrorlash.

6. Refleksiya (qabul qilish) va anglab yetish

Shunday qilib, muammoli vaziyatlarni hal qilish, bola, u bilan yashash, sababoqibat munosabatlarini anglashni, tan olishni va ajratishni boshlaydi, u o'z pozitsiyasini va muammoga munosabatini shakllantiradi. Muammoli vaziyatlar bolaga axloqiy tanlash imkoniyatini beradi. Bunday holda, axloqiy identifikatsiyalash mexanizmlari paydo bo'ladi, bolaning shaxsiy tajribasi boyitiladi. Bolalar o'zlarini va atrofdagilarning xatti -harakatlarini tahlil qilishni o'rganadilar, nizolarni mustaqil hal qilish qobiliyati shakllanadi. Muammoli vaziyatlar axloqiy tajribaning shakllanishiga, axloqiy xulq - atvor strategiyalariga, axloqiy tajribalarning namoyon bo'lishiga yordam beradi . Muammoli vaziyatlarda turli hayotiy pozitsiyalar baholanadi, kamchiliklar masxara qilinadi va odamlarning ijobiy fazilatlari maqtovg'a sazovor bo'ladi.

Vaziyatlarni tahlil qilish asosida bola zamonaviy jamiyatda uning sotsializatsiyasi uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarni oladi.

3.Muommali vaziyatlarni yaratishning bugungi kundagi ahamiyati

XXI asrning so'nggi yilligida ta'limi tarixida, bolalarning o'quv va kognitiv materiallarni o'zlashtirish potentsial darajasi bilan maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar o'rtasidagi farq doimiy ravishda o'sib bormoqda. Bolalar ma'lum axloqiy toifalarni kam farqlaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'z xatti -harakatlarini tartibga solish qobiliyatiga ega emaslar, bolalar kattalar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lmaydilar, munosabatlar o'rnatishda faollik va muloqot tashabbuskorligini ko'rsatmaydilar. Shu sababli, muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasida bolaga har xil turdagi bolalar faoliyatining mazmunli qadriyatlarini aniqlashga imkon beradigan Ta'lim sohasida "interaktivlik" tushunchasi o'quv jarayoni subyektlari o'rtasida faol o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan maxsus ta'lim tizimiga nisbatan qo'llaniladi. Bizning tadqiqotimizda muammoli vaziyatni tarbiyachi muayyan texnika, usul va vositalar yordamida yaratadi. Muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishda biz "Hammasini tushuntirish" dasturida taqdimotlarni yaratish uchun interaktiv vositalardan foydalanamiz (inglizchadan "Hammasini tushuntirish"), bu erda siz loyihaga sharh berishingiz, animatsiyadan foydalanishingiz, turli ob'ektlarni import va eksport qilishingiz mumkin. Interaktivlik maktabgacha tarbiyachi bilan kattalar va bolalarning ta'lim jarayonida doimiy o'zaro ta'sirida amalga oshiriladi. O'quv jarayoni ishtirokchilari o'zlarining individual ta'lim ehtiyojlarini qondiradigan takrorlanishlar sonini, ma'lumotni etkazib berish tezligini mustaqil ravishda belgilashlari mumkin.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasidan foydalanish jarayonida, interaktiv vositalardan foydalanib, bola muhim qadriyatlarni aniqlaydi: umuminsoniy qadriyatlar (go'zallik, yaxshilik, adolat, qadr -qimmat, baxt,

olijanoblik, odob, hayotning ma'nosi); oilaviy qadriyatlar (barcha oila a'zolariga hurmat, boshqalarga g'amxo'rlik); voqelikka bo'lgan munosabatlarning qiymat asoslari (har xil faoliyat turlarida turli qoidalarini o'zlashtirish, nizolarni hal qilish istagi, atrofdagi olamda ishtirok etishda mustaqillik); har xil faoliyat turlarida (kommunikativ, o'yin, vizual, motorli, kognitiv va tadqiqot). Mana ulardan ba'zilari. Kognitiv vaziyat "ko'z oldida". Maqsad: muammoli vaziyatlarni hal qilishni o'rgatish, o'z holatingizni tahlil qilish boshqalarning xulq -atvori va harakatlari, "yaxshilik" va "yomonlik" axloqiy tushunchalarini aniq misollar bilan mustahkamlash. "Fikrlash" xulq -atvori holati. Maqsad: ijobiy xulq -atvorni o'rgatishni davom ettirish; qilishga undash yaxshi ishlar; axloqiy tushunchalarni aniq misollar bilan mustahkamlash.

Shaxsiy holat "Qo'rquv". Maqsad: o'z tabiatini farqlashga va tushunishga o'rgatishni davom ettirish hissiy holat va kayfiyat. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda interfaol vositalardan foydalanish o'qituvchining emas, balki o'quvchining hukmronligiga hissa qo'shgan. Voyaga etgan bola bolaning sherigi sifatida harakat qiladi, ishtirokchilarning faolligini qo'llab - quvvatlaydi, nuqtai nazarlarning xilma -xilligini ochib berishga harakat qiladi va ijodkorlikni rag'batlantiradi. O'qituvchining sa'yi -harakatlari o'quv jarayonining ishtirokchilarining idrokini osonlashtirishga, o'zaro tushunishni o'zlashtirishga qaratilgan.

Yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasini tasvirlab berdik. Ushbu texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolaga fikrlashda mustaqillikni rivojlantirishga, vaziyatlarni hal qilishning yangi usullarini topishga imkon beradi. Muammoli vaziyatlar bolalarning kognitiv, xulq -atvor va shaxsiy faolligini faollashtiradi .Muammoli vaziyatlar va qahramonlar yordamida bolalar xulq -atvor qoidalariga o'z munosabatlarini erkin ifoda etdilar, o'z pozitsiyalarini qadriyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirdilar va tushundilar, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qildilar, his -tuyg'ularini - empatiya (hamdardlik, hamdardlik, yordam),

shuningdek Bu qoidalarini kundalik hayotda qanday qo'llashni bilardi. Taklif etilgan holatlar maktabgacha yoshdagi bolaning bilim qiziqishini, faolligini rag'batlantiradi, bu esa taklif qilingan sharoitda tanlash imkoniyatini beradi. Biz aniqlagan va biz sinovdan o'tkazgan ijtimoiy -madaniy qadriyatlar va mezonlarning (kognitiv, shaxsiy, xulq -atvor) shakllanishining tarkibiy qismlari, shuningdek, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda katta maktabgacha yoshdagi bolalarni baholash ko'rsatkichlari va darajalari ijobiy ta'sir ko'rsatadi. ijtimoiy -madaniy qadriyatlarning shakllanishi. Bularning barchasi, umuman olganda, ilovaning samaradorligini ta'minlaydi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilishning interaktiv vositalari, bolaga har xil turdagi bolalar faoliyatining mazmunli qadriyatlarini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot natijalarini sarhisob qilib shuni aytish mumkinki, bajarilgan ishlar va muammoli vaziyatlarni hal qilishda interaktiv vositalar qo'llanilgandan so'ng, bolalar me'yor va qadriyatlarni o'z ideallari va munosabatlari sifatida qabul qila boshladilar, o'z xatti - harakatlarini mustaqil baholay oladilar. va ularning tengdoshlari va axloqiy me'yorni shakllantirishga qodir. Guruhda ziddiyatli vaziyatlar soni kamaydi, bolalar o'z xatti - harakatlarida ijobiy yo'nalishni rivojlantirdilar. Bu har bir bolaning mustaqil maqsad qo'yishga, o'z harakatlarini rejalashtirishga va bolalar va kattalar bilan muloqot qilishga tayyorligidan dalolat beradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bolalar o'z harakatlari va his-tuyg'ularini tartibga solishni, dialog o'tkazishni, kommunikativ faollikni va o'zaro tushunishni ko'rsatishni o'rgandilar.

7-MAVZU. FANNI O'QITISH METODIKASI FAN SIFATIDA RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI. (2 soat)

Reja

1. Mutaxassislik fanlar sohalarining o'ziga xos xususiyatlari
2. O'qitish metodikasi fan sifatida rivojlanish tarixi
3. O'qitish g'oyalarining ivojlanishi bosqichlari

1. Mutaxassislik fanlar sohalarining o'ziga xos xususiyatlari

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy taraqqiyot barcha sohalaridagi fanlar kabi pedagogika fani va pedagogika o'quv predmeti oldida barkamol inson shaxsini shakllantirish masalasini ham nazariy, ham amaliy jihatlardan ro'yobga chiqarishni qo'ymoqda. Ma'lumki, barkamol inson deganda aqliy va jismoniy faoliyatni uyg'un holatda ifodasi tushuniladi, demak barkamol inson aqliy va jismoniy quvvatga ega bo'lib sabr-toqat, mehr-shafqat, diyonat, shijoat, qatiyatlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, hushyorlik, ehtiyotkorlik, jasorat, chidamlilik fazilatlarini yaxshi anglagan va o'zida shakllantirishga intiluvchi shaxs hisoblanadi. Bunday inson yangi barpo etilayotgan jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga o'z hissasini qo'sha oladigan bunyodkor va tashkilodchisidir. Ma'lumki, bunday inson pedagogik jarayonda shakllanib boradi. Zero, pedagogik jarayon tarbiya, ta'lim, ma'lumot olish sharoitida insonni barkamolikka undovchi, ko'maklashuvchi ijtimoiy pedagogik hodisadir. Shu nuqtai nazardan hozirgi davr pedagogikasi yoshlar ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashda tarbiya, ta'lim, ma'lumot olish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib pedagogika fan sifatida va o'quv predmeti sifatida barkamol avlodni tarbiyalash, o'qitish hamda ma'lumotli qilishning mazmuni maqsad va vazifasi shakllari, metodlari, usullari,

vositalarini ta'lim muassasalariga pedagogik jarayonni boshqarish kabi masalalar tizimini muayyan izchillik, ketma-ketlik uyg'unlikda amalga oshirish yo'llari to'g'risidagi masalalarni o'rganadi. Xo'sh, tarbiya ta'lim, ma'lumot pedagogik jarayon rahbarlik va boshqarish nima? Ular qanday mazmunga ega tarbiya-ijtimoiy hodisa sifatida barkamol avlodni hayotga va mehnatga tayyorlash jamiyatni yanada rivojlantirish maqsadida katta avlodning kichik avlodga ijtimoiy tarixiy tajribalarni o'rgatish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy, estetik, huquqiy, ekologik fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Bu jarayonda inson ijtimoiy tarixiy tajribalarni o'zlashtirish oldingi avlodning ma'naviy insoniy fazilatlarini egallash orqali shaxs bo'lib shakllanadi va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Insonlardagi dunyoqarash, e'tiqod, diyonat, rahm shavqat, ezgulikni qabohatdan, yaxshilikni yomonlikdan, halollikni haromdan ajrata bilish tarbiya yordamida amalga oshadi.

Ta'lim shunday bilish jarayoniki unda o'quvchilar o'qituvchi yordami va rahnamoligida ilmiy bilimlar bilan qo'llanadilar, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar, aqliy va jismoniy kuchlarni rivojlantiradilar, dunyoqarashlarini, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantiradilar, hayotga va mehnatga tayyorlanadilar. Ma'lumot-bu tizimlashgan hamda umumlashgan bilim ko'nikma va malakalar yig'indisi. Bir so'z bilan aytganda ta'lim tarbiyaning natijasi maxsuli. Bularning barchasi pedagogik jarayonda amalga oshadi va harakatga kiradi. Shu ma'noda pedagogik jarayon – bu yaxlit o'quv tarbiya jarayoni, yaxlitligida tarbiya va ta'lim asosida ta'lim o'g'atuvchilar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorligidagi ijodiy faoliyat yordamida har tomonlama kamol topgan shaxsni tarkib toptirishdir. Demak, mazkur jarayonni yo'lga qo'yishni ilmiy amaliy hal etishi yordamida tarbiya va ta'lim maqsadlarini to'la amalga oshirish pedagogika fani va o'quv predmetining bosh masalasi hisoblanadi. Shunga asosan pedagogika ham fan sifatida ham o'quv predmeti sifatida tarbiya va ta'lim ishlarining qonuniyatlari

qoidalari sahllari usullari hamda vositalarning davr talablari asosida qanday bo'lishi kerakligini belgilab berishni nazarda tutadi. m Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlari. Pedagogika fanining rivojlanishi, shakllanishi kishilik jamiyatining shakllanishi va taraqqiyot tarixi bilan uzviy bog'liq. Tarixni inson yaratdi u yaratganning inomi, talabalarning oliy mahsuli, siymosi, aql zakovat egasi sifatida tarixni yaratish, jamiyatni rivojlantirish ishlarining asoschisi va davomchisi bo'lib qoldi. Bu zot yaratgandan so'ng tabiat hodisalari tarqalish jarayonini o'rganish, ulardan o'z hayoti, turmushida oqilona foydalanishni o'rgandi. Natijada inson asta-sekinlik bilan madaniylashdi, ijtimoiylashdi va o'zining ma'naviy qadriyatlarini vujudga keltirib avloddan-avlodga, nasldan-naslga qoldirdi.

Mana shunday zotni hayotga tarbiyalash, yo'naltirish va ijtimoiy taraqqiyotga munosib hissa qo'shgan shaxs qilib tayyorlash maqsadida "Pedagogika" fani maydonga keldi. Dastlab, ibtidoiy jamiyatda kattalar o'z farzandlarini o'zlari bilan ergashtirib yurib, tabiat inomlarini yig'ish, birga ov qilish, keyinchalik dehqonchilik bilan shug'ullanish kabi ishlarni o'rgatishi bilan shug'ullandilar. So'ngra bolalarga qabila boshliqlari va keksalar tomonidan turli tabiiy ofatlaridan himoyalash, dehqonchilik qilish uchun tog'onlar qurib suv jamg'armalarini hosil qilish, kasalliklarni davolash, o'z turmush tarzini yangilash, hayot kechirish uchun oziq ovqatlarning sarasini tanlash, chaylalar qurishga bo'lgan hayotiy ehtiyoj o'sib kelayotgan yosh avlodga keksalarning o'z tajribalarini o'rgatish zaruriyatini tug'diradi.

Hayotiy ehtiyoj o'sib kelayotgan yosh avlodga keksalarning o'z tajribalarini o'rgatish zaruriyatini tug'dirdi, bu zaruriyat keksalar bilan yoshlarning bevosita mehnat faoliyatlari jarayonida amalga oshirila bordi. Shu tariqa pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaruidan biri tarbiya va ularni yoshlarga tarkib toptiruvchi tarbiyachilar etishib chiqdi. Bu antik davrda ota-onalar va qabilaning keksa

kishilari edi. Ular asosan yoshlarni tabiat inomlaridan foydalanish, tabiat injiqliklari bilan kurashish uy ro'zg'or ishlarini bajarish kishilar o'rtasida axloq odonb munosabati o'rgatish kabi sifatlarni ado etishga yo'naltiradigan insonlar edilar. Shunday qilib tabiatga, o'zaro munosabatlarga, o'zini o'rab turgan muhitga, qabila kishilariga elatga axloq-odob doirasida muomalada bo'lishni tushuntiruvchi bilimlar majmuasi donishmandlik pedagogikasi shakllandi. Bu pedagogika bolalarda elsevarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zaro uyg'un holda amalga oshirishda katta xizmat qildi.

2.O'qitish metodikasi fan sifatida rivojlanish tarixi

Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha dastlabki pedagogik qarashlar va ularni yoshlarga yetkazuvchi manbalar-maktablar tashkil etila boshlandi. Bu qadimgi sharqning Vavilon, Misr, Hindiston, g'arbning Sparta, Afina shaharlarida paydo bo'lib, insonlarda saxiylik, sofdillik, rostgo'ylik, adolat kabi fazilatlarni shakllantirish uchun xizmat qildi. Bular mashhur "Avesto" (er. avval VII asr) va qadimgi Xitoyning Daoe maktabi (er.avval III asr), Qadimgi Gretsiyaning "Sparta" "Afina" (er.avvalgi III-II-asr)edi. Shunga asosan "Pedagogika" so'zi o'z lug'aviy ma'nosini yunoncha "payc"-bola, "-agogoc"- yetaklash aynan so'zma-so'z tarjimada "Paydagogoc" -ya'ni bola yetaklovchi ma'nosini anglatadi. Keyinchalik "Pedagogika" so'zi kengroq va ilmiyroq ma'noda ya'ni "bolani hayotga yetaklash, tarbiyalash, o'qitish, ma'lumotli qilish" fani sifatida yuritib, u tarbiya fani deb yuritila boshlandi. Shunga binoan pedagogika fanining predmeti qilib yosh avlodni tarbiya, ta'lim, ma'lumot sharoitida rivojlantirishi va shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon deb qabul qilindi.

Ma'lumki, barcha ilmiy-nazariy sanalar hayot taqozosi bilan vujudga keladi. Ta'lim, tarbiya ma'lumot kishilar hayotida katta ahamyat kasb etish vaqti keldi.

Endi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tez yoki tez rivojlanishi yosh avlodning tarbiya qay darajada qo'yiganiga bog'liq bo'lmoqda. Shunga binoan, tarbiyaning jamiyat hayoti va taraqqiyoti katta ahamiyat kasb etar ekan pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlarini bilib olish juda muhim hisoblanadi. Buni quyidagi jadvalda kuzatish mumkin.

Pedagogik g'oyalarning rivojlanishi bosqichlari

Rivojlanish bosqichlari	Pedagogik g'oyalarning asoslari	Pedagogik g'oyalar va asarlar
	Xalq pedagogikasi maqollar, ertaklar, qo'shiqlar, asotirlar, marosimlar, bayramlar, qadriyatlar va h. k	Mehnatsevarlik, hamjihatlik, mardlik, jasorat, insonparvarlik, kasb-hunar egallashga da'vat, halollik, poklik, diyonat, sharm-hayo, or-nomus, kamtarlik, fidoyilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, nogironlarga mehr-shafqat, el ozodligi va erki uchun mardonavor ko'rashish, kelajakka ishonch
	"Avesto", "Alpomish", "Rustam" dostonlari, "Uch og'ayni botirlar", "Semurg", "Oltin beshik", "Kenja botir", "Tohir va Zuhra"	Do'stlik, ochiq ko'ngililik, vafodorlik saxovatpeshalik, to'g'riso'zlik, ota-onani, ustozlarni, pirlarni ulug'lash, tarixiy meros, udumlar, milliy, ma'naviy qadriyatlar, an'analarga hurmat va e'zozda bo'lish, millat, xalq, haqida qayg'urish va h.k.

2-bosqich (ilmiy tasvufiy va dunyoviy ta'limotda pedagogik g'oyalari IX-XIII asr)	Islom ta'limoti:	“Qur’oni Karim” “Hadisi Sharif”
	Imom Ismoil Buxoriy	“Al-jome as-sahih”, “Al-adab al-mufrat”
	Imom at-Termiziy	“Sahihi Termiziy”, “Shamoili Muhammadiya”, “Sunan”
	Yusuf Hamadoniy	Kimki o‘z ko‘nglini shodmon qilmoqchi bo‘lsa, ma’rifat axli axvolidan xabar olib, suhbatlaridan bahramand bo‘lsin.
	Ahmad Yassaviy Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniy Najmiddin Kubro Bahouddin Naqshband	“Faqrnoma”, “Rasoil”, “Devoni Hikmat” “Vasiyatnoma” “Halol yegil va shubhadan parhez etgil”, Hush dar dam nazar bar qadam. Safar dar vatan xilvat dar anjuman “Dilba yor-u dastba kor”

	Al-Xorazmiy	“Al-Jabr Val-Muqobola”, “Kitob at-Tarix” “Kitob fi Usul ilim an-Nujum”
	Al-Farg‘oniy	“Aqil haqida risola”, “Baxt- saodatga erishuv haqida”, “Fozil odamlar shahri”
	Abu Nasr Farobiy	“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Qonun Masudiy ”, “Saydana”
	Abu Rayhon Beruniy	“Donishnoma”, “Burch haqida risola”, “Solomon va Ibsol”, “Hikmat buloqlari”, “Yusuf qissasi”, “Tib qonunlari”
	Abu Ali ibn-Sino	“Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘ati turk”, “Kitob Xosois ul-shariat ul-Ikrom”
	Yusuf Xos Hojib	“Nushad-ul Mustataanis”
	Maxmud Qoshg‘ariy	
III-bosqich (XIV-XX asr)	Umar az-Zamaxshariy	

Birinchi bosqichda pedagogik g‘oyalar dastlab xalq pedagogikasi sifatida rivojlandi. Bu xalq tomonidan yaratilgan miflar (xayoliy tushunchalar)da, maqollarda qo‘shiq-kuylarda, ertaklarda, rivoyatlarda, asotirlarda, hikoyatlarda,

masalalarda, dostonlarda keyichalik “Avesto”, “O‘rxun Enasoy”(Enisey) yodgorliklar mazmu-nida pedagogik g‘oyalar, qarashlar o‘z ifodasini topgan. Bu masalada yoshlarni hayotga tayyorlash, ularni mardlikka, jasoratga, kasb-hunar egallashga da’vat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, sharm-hayo, mehr-oqibat, or-nomus, poklik, halollik kabi tarbiyaviy pedagogik g‘oyalar ilgari suriladi.

Ikkinchi bosqichda pedagogika faniga oid qarashlar, gaplar diniy-falsafiy va falsafiy ta’limotda o‘z ifodasini topdi: “Quroni Karim”, “Hadislar”, Imom Ismoil Buxoriy, Muhammad Muso at-Termiziy asarlarida, tasavvuf ta’limoti namoyondalari Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband va boshqalar. Dunyoviy-falsafiy ta’limot asoschilari al-Xorazmiy, al-Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar az-Zamaxshariylarning pedagogik g‘oyalarida amaliy-axloqiy faoliyat ustivorligi fikrlari ilgari suriladi. Sharq faylasuflari inson aql zakovati va qobiliyati taraqqiyotning bosh omili hisoblanadi deb bilib, aqlni yuksakka ko‘tardi va qobiliyatga ishondi. Barkamol avlodni ya’ni orif inson, fozil inson va komil inson tarbiyalash ularning yorqin orzusi bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida, jamiyatda kim bo‘lmayin, mansabi, mavqei, tutgan o‘rnidan qati nazar fozil kishi bo‘lmog‘i darkor, zero, bunday fuqaro o‘z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladigan, unga to‘la to‘kis amal qiladigan, fikrlaydigan, o‘z kasbining mahoratini egasi, kerak bo‘lganda xalq, Vatan uchun jon fido qilishga tayyor shaxs bo‘ladi deb bilgan.

Biroq dunyo olimlari, xalqlarining barchasi ham shunday o‘ylayvermagan, bunga faqat madaniyatga, ma’rifatga, ma’naviyatga ega bo‘lgan ziyolilar, hukmdorlarga bunday donishmand fikr yurita olganlar. Fozillar shahrining axolisi o‘rtasida o‘zaro hurmat, ota-onalar va keksalar e’zozlash, sharqona mehr, shafqat, nazokat va ehtirom bo‘lgan.

Uchinchi bosqichda Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayotning yuksalishi uchun madaniyat, ta'lim-tarbiya, maktablarni rivojlantirish taraqqiyotning bosh omili sifatida e'tirof e'tildi. Amir Temur, Mirzo Ulug'beklar mamlakatni ma'rifat, ma'naviyatda deb bilib maktablar ochdilar, darsliklar yaratishni yo'lga qo'ydilar. Maktab va madrasalarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Davoniy, Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik g'oyalari, ayniqsa, insonparvarlik, adolatparvarlik, elsevarlik g'oyasi va nazariyasi keng targ'ib etiladi.

Shuningdek, bu bosqichda "Kalila va Dimna" "Qobusnoma" "Nasihatnoma", Firdavsiyning "Shohnoma", Abdurahmon Jomiyning "Bo'ston" va "Guliston", Alisher Navoiyning "Maxbub- ul qulub", Voiz Koshifiyning "Axloqi Muxsiniy", Jaloliddin Davoniyning "Tariqayi tarbiyat ul-avlod", "Axloqi Jaloliy " kabi asarlarda axloqiy tarbiya usullari to'g'risida ilg'or pedagogik g'oyalar, qarashlar ifodalangan ular bugungi kun tarbiyashunosligi, aniqroq aytadigan bo'lsak pedagogika fanining puxta zamin hisoblanadi. G'arbda Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" asari, Pestalotsining rivojlantiruvchi ta'lim, Adolf Disterveg, Jan-Jak Russoning erkin ta'lim va tarbiya g'oyalari, K.D Ushinskiyning "Pedagogik antropologiya" asarlarining yaratilishi pedagogika fanining mustaqil fan bo'lib rivojlanishini ta'minladi.

To'rtinchi bosqich- Chor Rossiyasi va sobiq sho'rolar davri Turkistonda madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at, pedagogik fikr, maktab, ta'lim sohasidagi ishlarga o'z siyosatini o'tkazgan, milliy madaniyat, ma'rifat, pedagogik fikrlarni tazyiq ostiga olgan davrlarni o'z ichiga oladi.

Chor mustamlakachilari XIX asrning ikkinchi yarmidan, sho'rolar hukumati XX asrning 20-yillaridan to XX-asrning 90-yillariga qadar o'lka madaniyati, ta'lim, fan, san'at, pedagogik g'oyalari va turmush tarzini yevropacha qurishga

intildilar va bunga ma'lum darajada erishdilar ham. Shunga qaramay o'lkaning ilg'or kishilari, ma'rifatparvarlari o'zlaridan oldin o'tgan ajdodlarining insonparvarlik, adolatparvarlik, pedagogik g'oyalarni davom ettirdilar. Natijada XX-asrning boshlarida "Usuli jadid", "Usuli savtiya" nomlari bilan yangi maktablar tashkil etildi. Bu maktablar uchun darsliklar yaratildi, ta'lim tarbiyani tashkil etish bo'yicha pedagogik asarlar yozildi. Bular Ahmad Donish, Dilshod Otin, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ishoqxon Ibrat, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy va boshqalar edilar. Ayniqsa, Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoi", Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq", Dilshod Otinning "Tarixi muhojiron", Fitratning "O'quv", "Ona tili" darsliklari, Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi soniy" kitoblari, Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi" kabi darsliklari, Ishoqxon Ibratning "Lug'ati Sitta-al Sina", "San'ati Ibrat qalami", "Mirrajab Bandiy" o'quv qo'llanmalari, Abduqodir Shakuriyning "Jomi' ul-hikoyat", "Zubdat ul-ash'or" o'qish kitoblari bu davr maorifi uchun muhim pedagogik asarlar sirasiga kiradi.

3.O'qitish g'oyalarining rivojlanishi bosqichlari

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyolik adabiyot namoyandalarining asarlarida odob-axloq, ta'lim-tarbiya, ilm olishga da'vatlar mavjud. Buni Furqat, Muqumiy, Avaz O'tar, Zavqiy ijodida kuzatish mumkin. Furqat o'zining "Gimnaziya", "Ilm xosiyati", "Vistavka xususida", "Suvorov haqida" kabi asarlarida ilm xususiyatlari, ta'lim-tarbiya to'g'risida pedagogik fikrlarni bayon etgan. Avaz O'tar "Til" nomli she'rida ona tilini egallash, uni bilishning afzalikklari to'g'risida fikr yuritgan. Xullas, o'zbek pedagogikasining nazariyasi va tarixi shunday xilma-xil jarayonlar, oqimlar bilan rivojlanib, shakllanib keldi. To'rtinchi bosqichning keyingi taraqqiyoti sho'rolar davri

pedagogikasi nazariyasining rivojlanishi bilan bog‘langan. Chunki XX asrning 90-yillarigacha O‘zbekiston respublikasi sovet Ittifoqi degan davlat tarkibida edi.

Beshinchi bosqich-bu bosqich pedagogika fanlari to‘g‘risida so‘z yuritganda, uning yuksak ma‘naviy yuksalishlar va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil vatanimizning milliy asosda rivojlanishini qamrab oladi.

Ma‘lumki, mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizda uzluksiz ta‘limni milliy asosda qo‘rish uchun ikki marta (1992-yil 2-iyul va 1997-yil 29-avgust) “Ta‘lim to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Uzluksiz ta‘lim, uning mazmuni yo‘nalishlari tarkibi, 29-avgust 1997-yilda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida rivojlanmoqda. Chunki, bu qonunlar jahon ta‘limi yutuqlari va milliy tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish asosida tuzilgan bo‘lib, ularning mazmuni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiy ettirishni nazarda tutib, yuksak ma‘naviy axloqiy salohiyat, kasb-kor madaniyatiga ega bo‘lgan, ijodiy va ijtimoiy faollikni o‘zida shakllantirgan, ijtimoiy siyosiy hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlaydigan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy vazifalarni hal qilishga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlashning milliy tuzimini yaratishni nazarda tutilgan. Shunga asosan uzluksiz ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatadigan pedagogik xodimlar ta‘lim tarbiya ishlarini islohot talabalari asosida tashkil qilishlari va ularga mustaqil respublikadagi “Pedagogika” fanlari yaqindan ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan ko‘maklashishlari kerak. Shunga binoan respublikamiz pedagog olimlari pedagogika fanining asosiy kategoriyalari ta‘lim-tarbiyaning O‘zbekiston xalqi ma‘naviyatiga yaratuvchanlik xususiyatini shakllantirish omillari ekanligini inobatga olib pedagogika fanlari sohasi bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratdilar. Shular jumlasiga “O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi” (1995) “Pedagogika tarixi”(1994) “O‘zbek pedagogikasi tarixi”(1997) “Pedagogika kursi” (1997) “O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” “Mustaqillik ma‘naviyati va yoshlar tarbiyasi” (1995)

“An’anaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” “O‘quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari”, “Milliy tarbiya”, “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash”, “Didaktika” (1997; 2016), “Oila pedagogikasi” (2007) “Oliy maktab pedagogikasi” (2008), “Pedagogika” (2010) “Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish” “Pedagogika nazariyasi va tarixi” (2011) “Maktabgacha pedagogika” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

“Talim ro‘g‘risida”gi Qonun vazifalarini bajarish “Pedagogika” fanlari oldida turgan muhim hodisa bo‘ldi. Zero, ilm fan, texnikaning tez rivojlanib borishi, yangi ijtimoiy ma’rifiy zaruriyatlarni paydo qildi. Natijada moddiy ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo‘jaligi, sanoat transport, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqalar)da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv an’anasi yuzaga keldi, natijada hayot surati shiddatligida, axborotlar oqimi kengaydi. Bu hol axborotlarni tezkor sur‘atga qabul qilib olish, ularni tahlil qilish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Buni chuqur anglagan respublika pedagog olimlari ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim tarbiya jarayoniga tadbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish bo‘yicha monografiya, o‘quv qo‘llanmalarini yozdilar va nashr etirdilar. Bularga M. Ochilovning “Yangi pedagogik texnologiyalar” (2000), N. Saidahmedovning “Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot” (2003), Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot” (2005), Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. “Pedagogika texnologiya asoslari” (2004), Xo‘jayev B.Q., Olimov Sh.Sh. “Yangi pedagogik texnologiyalar” (2004), Avliyoqulov N.H. “Zamonaviy o‘qitish

texnologiyalari” (2001), Ziyomammedov B., Abdullayeva Sh. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot” va hokazolarni ko‘rsatish mumkin.

Ko‘rib o‘tganimizdek pedagogika fan sifatida besh bosqich asosida rivojlanib bordi. Barcha bosqichda pedagogikaning markazida inson va uning ta‘lim tarbiyasi, shaxs sifatida shakllanishning muhim jihatlarini ko‘rsatib turibdi. Ma‘lumki, har bir davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-siyosiy taraqqiyotning kelajagini belgilar ekan, u, avvalo ma‘naviy-axloqiy salohiyati yuksak, malakasi yuqori, har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan kadrlarni tayyorlashni bosh maqsad qilib oladi va uning markaziga shaxsni hamda uning ma‘naviy-axloqiy kamolotini qo‘yadi. Uning bunday yuksalishini uzluksiz ta‘lim asosida birinchilardan bo‘lib ta‘minlash lozimligi belgilangan. Uzluksiz ta‘limning muvaffaqiyatini ta‘minlashda pedagogikaning ham o‘quv predmeti, ham o‘quv fani sifatida roli ortdi. Bu fan hozirgi kunda ilmiy-amaliy, iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy, tabiatni asrab-avaylash, kabi his-tuyg‘ularni insonlarda, avvalombor yoshlarga singdiruvchi tarbiya fani tarzida e‘tirof etiladi.

Pedagogika fanining o‘quv predmeti sifatida rivojlanishi. XX asrdan boshlab sobiq sho‘rolar davrida pedagogika fani mamlakatda maktab ta‘limni rivojlantiruvchi o‘quv predmeti sifatida pedagogika institutlari, universitetlarda, o‘qituvchi-tarbiyachilarni tayyorlaydigan o‘rta maxsus bilim yurtlarida jamiyat ma‘naviy hayotini yuksaltiruvchi va yangi insonni shakllantirishga xizmat qiluvchi fan sifatida o‘qitila boshlandi. Chunki, bu davrda yangi sovet tizimi degan mamlakat xalq ta‘limini qaytadan qurish va pedagogika xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatuvchilarning ish mazmunini belgilaydigan fan bo‘lishi lozimligi mamlakat rahbariyati tomonidan belgilab berilgan edi. Chunki, bunda yoshlarni va kattalarni yangi jamiyat hayotida tayyorlashda xalq ta‘limining maktab va unga yaqin bo‘lgan bog‘cha, maktabdan tashqari ta‘lim-tarbiya muassasalari kabi zvenolari asosiy o‘rinni egallashlari lozim edi.

Shunga asosan pedagogika fani ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishi va amalga oshirishni o'rganuvchi o'quv predmeti sifatida rivojlandi. Bunday sharoitda qayd etilgan xalq ta'limi muassasalari talablariga javob beruvchi va ularning faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashuvchi o'quv adabiyotlarini tayyorlash zarur bo'lib qoldi va o'sha davrda xalq komissalari kengashi 1921-yilning avgustida o'quv darsliklarini yaratish tartibi haqida qaror qabul qildi. Bu esa mamlakatda pedagogika o'quv fanini yaratish uchun muhim turtki bo'ldi. 1922-1925-yillarda pedagogika fanining turli yo'nalishlari bo'yicha, o'ziga pedagogik g'oyalarni ifodalagan kitoblar nashr etildi. Bular jumlasiga, P.P.Blonskiyning "Pedagogika" (1922), "Pedagogika asoslari" (1925), A.P.Pikkevichning "Zamonaviy maktabning asosiy muammolari", "Pedagogikadan olti ma'ruza" (1924), M.S.Grigorevskiyning "Pedagogikaga kirish" (1925) kabilar kiradi. Bu pedagogik adabiyotlar o'zlarining muayyan kamchiliklari mavjudligiga qaramasdan pedagogikaning yangi yo'llarini aks ettira oldi.

Pedagogika fanining shakllanishida 1927-1930-yillarda sobiq sho'rolar davrida o'tkazilgan pedagogik g'oyalar munozaralari muhim ahamiyat kasb etdi. Bunday munozaralarga A.T.Kalashnikov, L.P.Blonskiy, A.P.Pinkevichlar faol ishtirok etdilar. Pedagoglar va xalq ta'limi xodimlarining bunday munozaralari sovet pedagogikasi deb nomlangan fanning rivojlanishiga hamda pedagogikaning o'quv predmeti sifatida mazmunini aniqlashga katta yordam berdi. 1930-yilda VKP (B)ning "Boshlang'ich majburiy ta'limni" mamlakatda joriy qilish to'g'risidagi qarori qabul qilingandan so'ng boshlang'ich maktablar uchun qisqa muddatli pedagogik kadrlarni tayyorlash kurslar ochilishi munosabati bilan pedagogika texnikumlari uchun V.N.Popov, A.T.Volner, A.T.Zenkolarning "Pedagoglar" darsligi (qisqa mudatli pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, 1931) P.N.Shinebriyovning pedagogika texnikumlari uchun "Pedagogika" darsligi (1934)

va M.M.Pisyorakning oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun "Pedagogika" darsligi (1934) nashr etildi va ta'lim muassasalarida o'qitish boshlandi.

Pedagogikaning pedagogik kadrlar tayyorlovchi (universitetlar, institutlar, texnikumlar) o'quv yurtlarida tarbiya, ta'lim, ma'lumot o'quv predmeti sifatida o'qitilishi XX asrning 50-80-yillarida mukammal rivojlandi. Bu davrlarda vatanimiz sho'rolar hukumati tarkibida o'quv yurtlarida bu o'quv fanlaridan foydalandilar. Bular sirasiga S.A.Suxoamlinskiyning "Yosh avlodning axloqiy tarbiyasi" (1967), Danilov M.A. va Esipov B.P. "Didaktika" (1957 B.P.Esipov tahriri ostida), G.I.Shukinaning "Pedagogika" (1966), I.T.Ogoradnikovning "Pedagogika" (1968), T.A.Ilinaning "Pedagogika" (1969), N.I.Boldirov va boshqalarning "Pedagogika" (1968), M.V.Savinning "Pedagogika" (Pedagogika texnikumlari uchun 1978), N.A.Sorokinning "Didaktika" (1974) "Дидактика средней школы" (M.A. Danilov va M.N. Satkinlar 1975) "Педагогика: Учебный пособий для педучилищ" (S.P.Baranov, A.R.Bolotina, T.V.Volinova, V.A.Selastinin 1981) "Педагогика: учеб. пособи для студентов пед ин-тов. Под ред. Ю.К.Бабанского: 1983 va 1988", "Общие основы педагогики" (Pod. red. F.F. Korolyova V.E Turman, 1967), I.F.Xarliyamovning "Pedagogika" (1990) "Дидактика средней школы" (Под ред. М.Н. Скаткина; 1982) va h.k. O'zbekistonda mustaqillik yillariga qadar akademik S.R.Rajabov tahriri ostida chop etilgan "Pedagogika" (1958-1980) darsligi asosida o'qituvchi tarbiyachilarni tayyorlovchilar uchun pedagogika fani o'quv predmeti sifatida o'qitildi. Shuningdek, "Pedagogika" o'quv fanining mazmunini to'ldirish, mavzularning nazariy-amaliy yo'nalishini kuchaytirish maqsadida turli mavzularning nomlari bilan o'quv qo'llanmalari hamda "Pedagogika tarixi" va "Хрестоматия по педагогика" (M.T.Bushkanes B.D Leuxin; 1976) kabi pedagoglarning o'quv qo'llanmalari ham chop etilganki, ular pedagogika fanini o'quv predmeti sifatidagi mazmunini ilmiy-nazariy, amaliy-metodik jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi demokratik islohotlar, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidagi harakatlar insonni yangidan kashf etish, uning imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqishi uchun shart-sharoitlar yaratish, endi ularning bu jarayonlarning ishtirokchilari emas, balki bunyodkorlari, tashkilotchilari bo‘lib qatnashishlari zaruriyati tug‘ulgan edi. Natijada mamlakat o‘quv yurtlari uchun qator pedagogik fanlar tizimi vujudga kela boshladi. Dastlab, pedagogika fanlari doktori, professori A.Munavvarov tahriri ostida 1996-yilda “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, I.Tursunov, U. Nishonaliyevlarning 1997-yilda “Pedagogika kursi” darsligi, pedagogika fanlari doktori, professor, Respublikada xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi N.R.G‘aybullayevning “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanovlarning 1996 yili “Pedagogika tarixi”, A.Zunnunovning “O‘zbek pedagogikasi tarixi” kabi pedagogik fanlar nashr etilib o‘quv muassasalarida o‘qitila boshlandi.

O‘zbekistonda “Pedagogika” fani, fan va o‘quv predmeti tarzida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilgandan so‘ng jadal rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Qator darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ta’lim-tarbiyaning dolzarb muammolari bo‘yicha risolalar, monografiyalar yaratildi. Jumladan, 2001-yilda R.Mavlonova tahriri ostida “Pedagogika” darsligi, 2002-yilda Sh.Abdullayeva va boshqalar hamkorligida “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, 2006-yilda J.Hasanboyev va boshqalar “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi va shu mualliflar 2009-yilda yaratgan pedagogika, “Pedagogika tarixi”, 2011-yilda oliy ta’lim pedagogika oliygohlari talabalari uchun “Pedagogika” o‘quv darsligi, 2006-yilda “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi A.Zunnunov va U. Mahkamovlarning oliy o‘quv yurtlari uchun “Didaktika”, “O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” (1996), 2003-yilda Z.Ismoilovning “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi, 2008-yilda shu muallifning “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi 2009-yilda N.Egamberdiyevaning “Ijtimoiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi,

O.Hasanboyeva, D.Holliqov va boshqalar. “Oila pedagogikasi”, 2010-yilda M. To‘xtaxadjayeva, S.Nishonova va boshqalarning “Pedagogika nazariyasi” 2013-yilda Sh.Sodiqovning maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan “Maktabgacha pedagogika” darsligi yaratildiki, bular ta’lim tarbiyada ijtimoiy hayot jarayonining barcha jabhalarini qamrab olib, mamlakat yoshlarini barkamol insonlar, yetuk pedagogik kadrlar qilib tayyorlashda katta ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Shunday qilib tarixiy taraqqiyotda yangi hayot mazmuni sifatli o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotini chuqur o‘zlashtirib boy tarixiy tarbiyaviy ta’limiy merosni mukammal egallab mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini asoslarini rivojlantirish ishlariga safarbar etmoqlari har bir pedagogning fuqarolik burji hisoblanadi.

Pedagogika fanining taraqqiyotiga ta’sir etuvchi ayrim jihatlar

- Matematik-statistik, biopsixologik va gnoseologik- semasiologik fanlari natijalaridan keng foydalanish asosida pedagogikaning boshqa insonshunoslik fanlari bilan mustahkam aloqalarini o‘rnatish va ilmiy bilimlarning integratsion jarayonini chuqurlashtirish.
- Dunyoni pedagogik anglashning nazariy-fundamental doirasini kengaytirish, ya’ni fanning ilmiy maqomi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish uchun nazariyadan amaliyotga tomon harakatlanish kerak.
- Pedagogik fanlar taraqqiyotini ta’minlashda matematik- statistik va semantik-semasiologik axborot manbalaridan tizimli foydalanish.
- Ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini optimallashtirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini boshqarishda pedagogik jarayonni axborotlashtirishga alohida e’tibor qaratish.

- Pedagogika o'z rivojining individual traektoriyasini saqlab qolishi hamda boshqa fanlarning tushuncha va kategoriyalaridan o'rinsiz foydalanish hisobiga uning tushunarsiz va murakkablashuviga olib kelmaslik.
- Global planetar muammolarni hal etish uchun shaxslararo, millatlararo va davlatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirish va ahloqiy me'yorlarning to'liq ta'minlanishiga doir ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Pedagogika fan sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlarini ko'rsating.
2. Pedagogika fanining o'quv predmeti sifatida rivojlanishiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning ilmiy nazariyalarining asosiy g'oyalarini ko'rsating.
3. Hozirgi davr pedagogika fanida qanday masalalar yoritilgan?
4. Pedagogik fanlar tizimi haqida ma'lumot bering.
5. Pedagogik fanlarning o'zaro aloqasini izohlang.
6. Pedagogika sohalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha bering.
7. Maxsus pedagogika sohasi haqida ma'lumot bering.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAVZULARI

1-MAVZU: FANNI O‘QITISH METODIKASI METODIKASINING PREDMETI, MAQSADI VA UNING VAZIFALARI (2 soat)

Reja

- 1 Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi haqida tushuncha.
2. Mutaxassislik fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar
3. Ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari.

DISKUSSIYA

DISKUSSIYA (lotincha discussio – tadqiq etish, muhokama qilish) – bu munozarali savolni yig‘ilish, suhbat yoki bahs-munozara davomida atroflicha muhokama qilishdir. Boshqacha aytganda, diskussiya qandaydir savol, muammo yoki solishtirilgan axborotlar, g‘oyalar, fikr va takliflarni jamoa bo‘lib muhokama qilishdan iboratdir. Diskussiya o‘tkazishning maqsadlari turli xil bo‘lishi mumkin: o‘rganish, trening, diagnostika, qayta ishlab chiqish, yo‘l-yo‘riqni o‘zgartirish, ijodkorlikni rag‘batlantirish va boshqalar.

1. Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish:

Diskussiya vaqtida tinglovchilar bir-birlarini to‘ldirishlari yoki bir-birlariga qarshi turishlari mumkin. Birinchi holatdagi diskussiyada dialog elementlari mavjud bo‘lsa, ikkinchi holatda diskussiya bahs-munozara xususiyatiga ega bo‘ladi. Qoidagi ko‘ra, diskussiyada ushbu ikki element ham mavjud bo‘ladi va shuning uchun diskussiyaga faqat bahs-munozara sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bir-birini inkor etuvchi, bir-birini to‘ldiruvchi bahslar va o‘zaro rivojlantiruvchi

suhbat ham muhim rol o'ynaydi, chunki bitta masala bo'yicha turli fikrlarni taqqoslash fakti muhim ahamiyat kasb etadi.

Diskussiyaga tayyorgarlik ko'rish uchun o'qituvchi:

- diskussiya xulosasi bo'yicha muhokamaga qo'yilishi mumkin bo'lgan savollarni oldindan tayyorlash lozim;
- muhokama qilinayotgan muammo chegarasidan chetga chiqilishiga yo'l qo'ymaslik;
- tinglovchilarning ko'pchiligini, imkon darajada barchasini suhbatga jalb qilinishini ta'minlash;
- hech bir noto'g'ri fikrni e'tibordan chetda qoldirmaslik bilan birga to'g'ri javobni ham darhol bermaslik lozim, shuningdek bu jarayonga o'z vaqtida tinglovchilarning tanqidiy yondashuvlarini tashkil etgan holda jalb qilish maqsadga muvofiq;
- diskussiya materiallariga taalluqli bo'lgan savollarga o'zi javob berishga shoshilmaslik: bunday savollarni auditoriyaga yo'naltirib yuborish lozim;
- tanqid obyekti fikr bildirgan tinglovchi emas, balki u bildirgan fikr bo'lishini nazorat qilish;
- tinglovchilarni jamoaviy tahlil va muhokamaga jalb qilgan holda turli nuqtai nazarlarni taqqoslash.

Diskussiya o'tkazishda turli xil tashkiliy usullardan foydalaniladi.

«Savol–javob» usuli. Mazkur usul – bu oddiy suhbatlashish-ning turi bo'lib, undan diskussiya-dialog qatnashchilari bilan suhbat o'tkazish uchun savollarni qo'yishning muayyan shaklini qo'llash bilan farqlanadi.

Funktsional nuqtai nazardan barcha savollarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- *aniqlashtiruvchi (yopiq)* – fikrlarning to'g'riligi yoki xatoligini aniqlashtirishga yo'naltirilgan savollar. Bu savollarning grammatik belgisi bo'lib, odatda, gapda «mi» kabi bo'lakning mav-judligi bilan ifodalanadi, masalan:

«To‘g‘rimi?», «Men to‘g‘ri tushundimmi?». Bunday savollarga faqatgina «ha» yoki «yo‘q» deb javob berilishi mumkin;

– *to‘ldiruvchi (ochiq)* – qiziqtiradigan hodisa va obyektlarning yangi xususiyatlari va sifatlarini aniqlashtirishga yo‘naltirilgan savollar. Bu savollarning grammatik belgisi bo‘lib, *nima, qachon, qaerda, qanday, nima uchun* va shu kabi so‘rov so‘zlarning mavjudligi hisoblanadi.

«*Past ovoz bilan muhokama qilish*» tartibi. Mazkur metodika kichik guruhlarda yopiq diskussiya o‘tkazishni nazarda tutadi. So‘ng kichik guruh yetakchisi tomonidan guruh fikri bayon etiladi va bu fikrlar barcha qatnashchilar tomonidan muhokama qilinib, umumiy diskussiya amalga oshiriladi.

«*Labirint*» usuli. Diskussiyaning bu turini izchil muhokama metodi deb ham ataydilar. Bu metod o‘ziga xos bosqichma-bosqich tartibini ifodalab, har bir keyingi bosqich boshqa ishtirokchi tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu holatda barcha fikrlar, shu jumladan noto‘g‘ri fikrlar ham muhokama qilinadi.

«*Estafeta*» usuli. O‘z chiqishini yakunlayotgan ishtirokchi so‘z navbatini o‘zi lozim topgan tinglovchiga berishi mumkin.

Diskussiya o‘tkazishning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- tinglovchilarning muammo yuzasidan tayyorgarligi (xabardor-lik va bilimga egalik);
- semantik birxillik (barcha atamalar, ta’riflar, tushuncha va boshqalar barcha ishtirokchilar tomonidan bir xil tushunilgan bo‘lishi shart);
- ishtirokchilarning odob saqlashi;
- o‘qituvchining diskussiyani amalga oshirish mahorati.

2. Kirish:

Birinchi bosqichda tinglovchilar bir-birlariga va muhokamaga qo‘yilgan muammoga moslashishadi, ya’ni bu vaqtda o‘rtaga tashlangan muammoning yechimi yuzasidan muayyan yo‘nalish shakllantiriladi.

Buning uchun diskussiyaning amalga oshiruvchi o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- diskussiya muammosi va maqsadini aniq ifodalab berish. Bu-ning uchun nima muhokama qilinadi va bu muhokama nima berishi shartligi tushuntiriladi;

- zaruriy motivatsiyani vujudga keltirish, ya'ni muammo va uning ahamiyatini bayon qilish, undagi echilmagan va qarama-qarshi savollarni ko'rsatish, kutilayotgan natijani (yechimni) belgilab olish;

- diskussiya vaqtini, aniqrog'i so'zga chiqish uchun vaqt chegara-sini belgilash;

- diskussiyada ishtirok etish qoidalarini tushuntirish, shundan asosiysi — barcha so'zga chiqishi shart. Bundan tashqari, so'zga chiquv-chini diqqat bilan tinglash, gapini bo'lmaslik, o'zining nuqtai nazarini dalillar bilan tasdiqlash, bironing fikrini takrorla-maslik, shaxsiy adovatga yo'l qo'ymaslik, xolislikni saqlash, so'zga chiquvchining so'zini oxirigacha tinglamasdan va nuqtai nazarini bilmasdan unga baho bermaslik zarur;

- do'stona muhitni vujudga keltirish. Bu erda tinglovchilarga shaxsiy murojaat qilish, jo'shqin suhbat olib borish, imo-ishora-lardan foydalanish, va albatta, tabassum qilish o'qituvchiga yordam beradi. Har qanday aktiv o'qitishning asosi konfliktga bormaslik ekanini esda saqlash lozim;

- atama, tushuncha va boshqalarning semantik bir xil tushunili-shiga erishish. Buning uchun savol va javoblar yordamida o'qitilayot-gan mavzuga oid ishchi ta'riflar va tushunchalar apparatini aniq-lashtirib olish lozim. Tushunchalar apparatini muntazam ravishda aniqlashtirib olish tinglovchilarda faqatgina tushunarli bo'lgan iboralar bilan ishlash, yaxshi tushunib bo'lmaydigan so'zlardan foydalanmaslik, muntazam ravishda turli ma'lumotlar beradigan yordamchi adabiyotlardan foydalanish odatini shakllantiradi.

3. Asosiy qism:

Ikkinchi bosqich — baholash bosqichi — odatda taqoslash, qara-ma - qarshilik va hattoki g'oyaviy nizo vaziyatlarini nazarda tutadi. Bu holatda diskussiyaning boshqara olmaslik, shaxsiy nizolar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu bosqichda o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- fikr almashishni boshlash, aniq ishtirokchilarga so'z navbati-ni berish. So'z navbatini birinchi bo'lib o'qituvchi olishi tavsiya etilmaydi;

- iloji boricha ko'proq fikr, g'oya va takliflarni yig'ish. Buning uchun har bir tinglovchini faollashtirish lozim. O'z fikrini bildi-rish uchun so'zga chiqqan har bir ishtirokchi so'zining oxirida o'zi-ning taklifini ham bildirishi yoki o'zining takliflarini keyin-roq ham berishi mumkin;

- mavzudan chetga chiqmaslik, o'qituvchidan sergaklikni talab qiladi. Mavzudan chetga chiqqan tinglovchilarni mavzuga yo'naltirib turish lozim;

- barcha ishtirokchilarning yuqori faollik darajasini ushlab turish. Bir tinglovchining boshqasining hisobidan haddan ziyod faolligiga yo'l qo'ymaslik, vaqt reglamentiga rioya qilish, cho'zilib ketgan monologlarni to'xtatish va barcha ishtirokchilarni suhbatga jalb qilish;

- diskussiyaning keyingi aylanisiga o'tishdan oldin, bildiril-gan g'oya, fikr, nuqtai nazarlarning tezkor tahlilini amalga oshi-rish lozim. Bunday tahlil yoki dastlabki xulosalarni muayyan vaqt oralig'ida (har 10–15 daqiqa), o'tkazish maqsadga muvofiq.

4. Xulosa (refleksiya):

Uchinchi bosqich — refleksiya bosqichi — muayyan yagona yoki muro-sali fikr, qarashlar, qarorlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu bosqichda mashg'ulotning nazorat funksiyasi amalga oshiriladi. O'qi-tuvchi tomonidan hal etiladigan vazifalarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- o'tkazilgan diskussiyaning tahlil qilish va baholash, natijalar-ni sarhisob qilish. Buning uchun diskussiya boshida shakllantiril-gan maqsad va olingan

natijalarni taqqoslab, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, natijalarni baholash lozim;

– diskussiya qatnashchilarining yagona fikrga kelishlariga yordam berish. Bunga turli yondashuvlarni diqqat bilan tinglash, qaror qabul qilish uchun umumiy g‘oyalarni topish orqali erishish mumkin;

– qatnashchilar bilan birgalikda jamoaviy qaror qabul qilish, shu bilan birga turli fikr va yondashuvlarning muhimligini alohi-da e’tirof etish lozim;

– yakuniy so‘zida guruhni nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarga yo‘naltirish lozim.

2-MAVZU. FANNI O‘QITISH METODIKASI FANINING PEDAGOGIK FANLAR TIZIMIDAGI O‘RNI. (2 soat)

Reja

1. Fanni o‘qitish metodikasi tushunchasi
2. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi
3. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fani prinsiplari

AQLIY HUJUM METODI

AQLIY HUJUM metodi (braine storming) — muammoni tezkor hal qilish metodi bo‘lib, ijodiy faollikni rag‘batlantirish asosida muhokama ishtirokchilariga muammo yechimi yuzasidan iloji boricha ko‘proq variant aytish taklif qilinadi va aytilgan fikr-larning umumiy sonidan amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan nisbatan muvaffaqiyatli fikrlar tanlab olinadi.

Metodning mazmuni fikrlarni ilgari surish, taklif etish jarayoni ularni tanqidiy baholash va tanlab olish jarayonidan ajratilganligi bilan izohlanadi.

Aqliy hujum – bu:

- muammoni echishning novatorlik metodi;
- qisqa vaqt ichida juda ko‘p fikrlar;
- fikrlashda erkinlik, o‘z xatti-harakatidan mamnun bo‘lish (qanchalik kutilmagan fikr bo‘lsa shuncha yaxshi);
- tanqidning mavjud emasligi (fikrni har qanday baholash keyinga qoldiriladi);
- bu o‘zining va boshqalarning fikrini rivojlantirish, uyg‘un-lashtirish va o‘zgartirish.

Ushbu metod quyidagi ketma-ketlikni qamrab oladi:

- 1) mavzu tanlanadi;
- 2) mavzuning asosiy tavsifi yoki qismlarining ro‘yxati tuziladi; 3) har bir tavsif yoki uning qismini bajarishning barcha imko-niyatlari sanab o‘tiladi; 4) obyektning barcha qismlarini bajarish bo‘yicha eng qiziqarli variantlar tanlab olinadi.

1. Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish:

O‘quv guruhi tinglovchilari ichidan takliflarni ishlab chiquvchi kichik guruh shakllantiriladi (qoidaga ko‘ra 5-10 kishi) va ular tomonidan ilgari surilgan fikrlarni tahlil qilish va eng yaxshi-larini tanlab olish uchun o‘quv guruhining qolgan tinglovchilaridan ekspertlar guruhi tashkil etiladi (taklif ishlab chiquvchilarning o‘zi takliflarni ishlab chiqqanidan so‘ng ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin).

Mashg‘ulotdan bir -ikki kun oldin ishtirokchilarni mavzu va vazifa mazmuni bilan qisqacha tanishtiradi (bu kimdir mashg‘ulotga tayyor fikrlar bilan kelishiga sharoit yaratadi).

Fikrlarni yozish va ro‘yxatini namoyish qilish uchun barcha zaruriy narsalarni tayyorlab qo‘yish talab etiladi. Masalan,

- doska va mel;
- varaq va ruchkalar;
- turli rangdagi stikerlar;

– proektorga ulangan noutbuk.

2. Kirish:

Barcha fikrlarni qayd etish uchun bir yoki ikki tinglovchini belgilab olish.

Birinchi bosqich (takliflar ishlab chiqish) davomiyligini belgilash.

Ishtirokchilar vaqt chegaralanganligini va ular tomonidan qis-qa vaqt ichida iloji boricha ko‘proq fikrlar bildirilishi lozimligini bilishlari shart. Bu ularni bor imkoniyati doirasida harakat qilishga majbur etadi.

Shu bilan birga , vazifa ham qo‘yilishi kerak. Aqliy hujum oqi-batida qanday aniq natijalarga erishish lozim? Vazifani shunday yozish kerakki, natijada u har doim ko‘rinib tursin.

Ishtirokchilar qanday muammoni echishlari lozimligini aniq tasavvur qilishlari shart. Aqliy hujumda fikrlar tartibsiz bo‘lishi mumkin, biroq vazifalar tartibsizligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Asosiy qism:

«Aqliy hujum»ning birinchi bosqichida guruhga muhokama uchun muayyan muammo beriladi, ishtirokchilar muammo yechimi yuzasidan navbatma-navbat qisqa va aniq shaklda har qanday takliflarini bildirishadi, o‘qituvchi barcha takliflarni (ularni amalda qo‘l-lashga yaroqliligini tanqid qilmagan holda) yozib boradi (doskaga, plakatga).

«Aqliy hujum»ning ikkinchi bosqichida muammo yechimi yuzasi-dan bildirilgan takliflar muhokama qilinadi. Guruh bildirilgan takliflar ichidan xohlagan birini amalda qo‘llash imkoniyatini topishi yoki uni takomillashtirish yo‘lini belgilashi kerak. Mazkur bosqichda diskussiyaning turli shakllaridan foydalanish mumkin.

«Aqliy hujum»ning uchinchi bosqichida guruh oldindan keli-shilgan printsipga ko‘ra natijalarni e‘lon qiladi:

- eng yaxshi yechim,
- bir muncha nisbatan yaxshi takliflar;

– eng noodatiy yechim va hokazo.

O‘qituvchi bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi. «Aqliy hujum»ni amalga oshirish uchun ishtirokchilarni bir nechta guruhlariga bo‘lish mumkin:

- takliflarni ishlab chiquvchilar (ular muammoni echishga yo‘naltirilgan turli fikrlarni bildirishadi);
- tanqidchilar (ular bildirilgan takliflardan salbiy jihat-larni topishga harakat qilishadi);
- tahlilchilar (ishlab chiqilgan takliflarni (tanqidiy fikr-larni inobatga olgan holda) aniq real sharoitlar bilan bog‘laydi-lar) va boshqalar.

Muammoning yechimi yoki uning muhokamasi uchun 10-15 daqiqa vaqt chegarasini belgilash maqsadga muvofiq.

«Aqliy hujum»ni boshqarib boruvchi o‘qituvchi:

- shovqin-suron bo‘lmasligi uchun takliflarni ishlab chiquvchi-larga navbatma-navbat so‘z beradi. Aqliy hujum ishtirokchilari o‘z fikrlarini bildirishlari uchun teng imkoniyatga ega bo‘lishlarini nazorat qiladi;
- hushmuomalalik, lekin qat’iyat bilan taklif ishlab chiquvchi tinglovchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar boshqa tinglovchilar tomonidan **tanqid** qilinishiga **barham beradi**.

Fikrni o‘ldiruvchi (idea killers) odatiy gaplar va ularga qanday javob berish kerak:

- Bundan hech narsa chiqmaydi. — «Albatta, bu fikr shakllantirilmasa, undan hech narsa chiqmaydi».
- Bu haddan tashqari. — «Nima qilibdi?».
- Buning nimasi o‘ziga xos? — «Buning o‘ziga xosligi bu tak-lifni ilgari hech kim bildirmaganligida».
- Buni xohlagan odam o‘ylab topishi mumkin. — «To‘g‘ri» va hokazo.

3-MAVZU: FANNI O'QITISHDA DIDAKTIK TAMOYILLAR VA QOIDALAR. (2 soat)

Reja

1. Fanni o'qitishda didaktik tamoyillar mohiyati
2. Fanni o'qitishda didaktik qoidalar.
3. Fanni o'qitishda didaktik tamoyillar tizimi mohiyati.

«CASE STUDY» METODI

«CASE STUDY» (keys stadi) muayyan vaziyatlar orqali o'rganish

– tinglovchilarni o'qituvchi belgilab bergan real vaziyatni tahlil etish va hal qilish takliflarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan metod. Muayyan vaziyatlar (sud-tergov amaliyotidan olingan holat yoxud sun'iy tanlangan reallikka asoslangan bo'ladi) tahlil indi-vidual yoki kichik guruhlarda amalga oshirilishi mumkin.

Tinglovchilarga amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy huj-jatlarni, sud-tergov amaliyotidagi holatlarni amaliy qo'llanmalar yordamida taqdim etish maqsadga muvofiq, zero muayyan holatlar o'qitish jarayonining hayotiyligiga, ya'ni amaliyot bilan uzviy bog'liqlikda olib borish imkonini beradi.

Keys tinglovchilarga mavzu doirasida muammoni aniqlashga, uni hal etish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish, hal etish yo'l-larini erkin izlash, tahlil qilish va huquqiy baho berish ko'nikma-larini beradi. Keysni tahlil qilish jarayonida tinglovchilar bir-birlari bilan muloqot qilishning kommunikatsion holatlarini shakllantiradi. Keys stadi tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, tatbiq etishga asoslanadi.

1. Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish:

Birinchi navbatda zarur:

– vaziyatni sinchkovlik bilan o'rganish, guruh va har bir ishti-

- rokchining holati (ahvoli) bilan tanishib chiqishga harakat qilish;
- vaziyatni hal etish jarayonida vaqt omilining ahamiyatini belgilash;
 - harakatlarning tartibini yoki yordam ko‘rsatish ketma-ketligi-ni aniqlab olish;
 - amalga oshirilishi lozim bo‘lgan usullarni aniqlab olish;
 - aniq vazifani hal etish uchun zarur bo‘lgan vositalarni, ular-ning eng maqbul va minimal miqdorini hamda ular mavjud bo‘lma-gan holatda qanday harakatlar amalga oshirilishi mumkinligini aniqlash;
 - bir nechta mavjud bo‘lgan variantlar ichidan eng maqbulini tanlash va asoslantirish;
 - mushkul ahvolga tushib qolgan ishtirokchi sheriklarining yordamisiz bu vaziyatdan qanday va nimalar yordamida chiqib ketishi mumkinligini ko‘rib chiqish.

Keysga tayyorgarlik ko‘rish uchun zarur:

1. Keys tuzish maqsadini aniqlash.
2. Maqsadga muvofiq keladigan real vaziyat yoki holatni aynan-lashtirish.
3. Keys uchun axborot manbasini topish bo‘yicha dastlabki ish-larni amalga oshirish. Axborot izlash tayanch so‘zlar orqali Internet tarmoqlarida, bosma nashr kataloglarini, jurnallardagi maqola-larni, gazeta nashrlarini, statistika ma’lumotlarini tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.
4. Turli manbalardan foydalangan holda keys uchun axborot va ma’lumotlar yig‘ish.
5. Keysdagi materialni taqdim etishning dastlabki variantini tayyorlash. Bu bosqich o‘z ichiga namuna tayyorlash, materialni joy-lashtirish, prezentatsiya shaklini (video, bosma va h.k.) aniqlashni oladi.
6. Keysni sinovdan o‘tkazishdan avval iloji boricha kengroq auditoriya ichida muhokama qilib, kasbdoshlarning ekspert bahosi-ni olish. Bunday baholash natijasida keysga kerakli o‘zgartirish-lar kiritilishi va u yanada yaxshilanishi mumkin.

8. Keysdan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni tayyorlash. Tinglovchilar uchun topshiriq hamda diskussiyani olib borish va keysni prezentatsiya qilish uchun savollarni ishlab chiqish, keysni muhokama qilish vaqtida tinglovchi va o'qituvchining taxminiy harakatlarini bayon qilish.

Real hayotdagi faktlar asosida muammoli vaziyatni tuzish Case-study metodining farq qiluvchi xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

2. Kirish.

Case-study asosidagi o'quv jarayoni samarali bo'lishi uchun ikki jihat muhim hisoblanadi: yaxshi keys va uni o'quv jarayonida qo'l-lashning muayyan metodikasi. Keys nafaqat muayyan hodisalarni ta'riflaydi, balki vaziyatni tushunishga yordam beruvchi yagona axborot kompleksi hisoblanadi. Bundan tashqari, u qo'yilgan muam-moni hal etishga undovchi savollar jamlanmasini o'z ichiga olishi lozim.

Keys quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- tuzishdan ko'zlangan aniq maqsadga muvofiq bo'lishi;
- tegishli murakkablik darajasiga ega bo'lishi;
- fanning bir necha jihatlarini tasvirlashi;
- bugungi kunda dolzarb bo'lishi;
- tipik vaziyatlarni tasvirlashi;
- tahliliy fikr yuritishni rivojlantirishi;
- diskussiyaga undashi;
- bir necha yechimlarga ega bo'lishi;
- fanlararo aloqalarga ega bo'lishi.

Ayrim olimlarning fikrilariga ko'ra keyslar ikkiga, ya'ni «o'lik» va «tirik» keyslarga bo'linadi. «O'lik» keyslarga tahlil qilish uchun barcha zarur bo'lgan axborotlarga ega keyslar kiradi. Keysni «tiriltirish» uchun uni tinglovchilarni tahlil qilish uchun qo'shimcha axborotlarni izlashga undaydigan tarzda tuzish kerak. Bu

keysning rivojlanishini va uzoq vaqt davomida dolzarb bo'lib qolishini ta'minlaydi.

Keys bilan ishlashda o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan uchta strategiya mavjud:

- 1) o'qituvchi masalaning uchini qo'shimcha savollar yoki (qo'shimcha) ma'lumot shaklida beradi;
- 2) ayrim sharoitlarda o'qituvchining o'zi javob beradi;
- 3) kimlardir muammo yuzasidan ishlayotganda o'qituvchi hech narsa qilmasligi mumkin (so'zsiz bo'lishi). O'quv vaziyati tahlil qilina-yotganda o'qituvchi «faol» yoki «faol bo'lmagan (passiv)» rolini egal-lashi mumkin. Ayrim paytlarda u muhokamani boshqaradi, ayrim vaqtlarda esa diskussiya bo'yicha xulosa chiqarish bilan chegaralanadi.

3. Asosiy qism.

Amaliy mashg'ulotlarda individual, juftlik va guruh tarkibi-da ish tashkil etiladi, tadqiqot loyihalari, rolli o'yinlar qo'lla-niladi, hujjatlar va turli axborot manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ish elementlaridan foydalaniladi.

O'quv jarayonida keys bilan ishlashning texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) tinglovchilarning keys materiallari bilan yakka tartibda mustaqil ishlashlari (muammoni aniqlashtirish, tayanch muqobil variantlarni shakllantirish, yechim yoki tavsiya etiladigan harakatni taklif qilish);
- 2) tayanch muammo va uning yechimini topish bo'yicha kichik guruh-larda ishlash;
- 3) umumiy diskussiya jarayonida kichik guruhlar ishi natija-larini prezentatsiya qilish va ekspertizadan o'tkazish (o'quv guruhi doirasida).

4. Xulosa (refleksiya).

Interfaol metodlarni qo'llashda tinglovchi o'zlashtirish jarayonining to'laonli ishtirochisiga aylanadi, uning tajribasi o'quv bilimining asosiy manbai bo'lib

xizmat qiladi. O'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki tinglovchilarda ularni mustaqil izlashga qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulot olib borishning an'anaviy shakllariga nisbatan interfaol o'qitishda o'qituvchi va tinglovchi-ning o'zaro munosabatlari o'zgaradi: o'qituvchining faolligi tinglovchining faolligiga yon beradi, tinglovchilarning tashabbuskorli-giga sharoit yaratib berish o'qituvchining vazifasi bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchi o'quv axborotini o'zidan o'tkazuvchi o'ziga xos filtr roldan voz kechib, ma'lum bir axborot manbai bilan ishlashda yordamchi vazifasini bajaradi. Interfaol o'qitish hamjihatlik, o'zaro aloqadorlik, bir-birini boyitishni ta'minlaydi. Interfaol metodlar hech qanday tarzda ma'ruza materiallarining o'rni bos-maydi, biroq uni yaxshiroq o'zlashtirishga ko'maklashadi.

4-MAVZU: MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISHNING O'QUV-MEYORIY XUJJATLARI. (4 soat)

Reja

- 1.Maxsus fanlarni o'qitishning o'quv-meyoriy xujjatlari
- 2.Ta'lim tizimidagi o'quv-meyoriy xujjatlari turlari.
- 3.Maxsus fanlarni o'qitishning o'quv-meyoriy xujjatlar mazmuni (DTS,o'quv rejasi,fan dasturlari,darsliklar)

«BLITS–O'YIN» metodini qo'llash qoidalar:

– o'qituvchi ushbu metod bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tinglovchilarga tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani baja-rishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- o‘qituvchi hamma tinglovchilarga (alohida-alohida) tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o‘rganishlarini so‘raydi;
- o‘qituvchi tarqatma materialning mazmunini va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan 2o ta harakatning ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash kerakligi, belgini esa qog‘ozda alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi;
- qo‘yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi;
- o‘qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomo-nidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi yoki qaytadan tushuntiradi;
- har bir tinglovchi tarqatma materialdagi «ShF» bo‘limiga shu erda berilgan harakatlardan o‘zining shaxsiy fikri asosida manti-qiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi (ya’ni beril-gan 2o ta harakatdan, uning fikricha qaysi biri, birinchi bo‘lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo‘lishini va hokazo). Bu vazifani bajarish-ga 2o daqiqa vaqt beradi;
- o‘qituvchi tinglovchilardan 4 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so‘raydi. Ushbu guruhlar tinglovchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin;
- kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri o‘z qog‘ozidagi «ShF» bo‘limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 4 kishida to‘rt xil bo‘lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirib, kelishgan holda bir fikrga kelib, ularga tarqatilgan qog‘ozdagi «GF» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar;
- o‘qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 1o daqiqagacha vaqt beriladi;

– barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, o‘qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi, ya‘ni tinglovchi-lardan ularga tarqatilgan qog‘ozlardan «TF» bo‘limini topishi va unga o‘qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so‘raydi;

– o‘qituvchi tinglovchilardan «TF» bo‘limida berilgan raqamlar bilan «ShF» bo‘limida belgilangan raqamlarni solishtirishni hamda «TF» bo‘limida berilgan raqamlarga to‘g‘ri kelmagan qator-larga «ShX» bo‘limiga belgi qo‘yishni so‘raydi;

– shu tartibda «TF» va «GF» bo‘limlari solishtiriladi hamda «TF» bo‘limida berilgan raqamlarga to‘g‘ri kelmagan qatorlarga «GX» bo‘limiga belgi qo‘yiladi;

– o‘qituvchi shaxsiy va guruh xatolarining umumiy miqdori (soni) bo‘yicha tushuncha berib, ularni alohida-alohida sharhlab beradi;

– tinglovchilarning javoblari o‘qituvchi tomonidan berilgan «TF»ning 11–14 tasiga to‘g‘ri kelsa (55–70%) «qoniqarli», 15–18 tasiga to‘g‘ri kelsa (71–85%) «yaxshi», 19–20 tasiga to‘g‘ri kelsa (90– 100%) «a‘lo» deb belgilash mumkin. Guruh bahosi ham shu tartibda aniqlanadi.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi:**BLITS– O‘YIN**

GF (guruh fikri)	GX (guruh xatosi)	TF (to‘g‘ri fikr)	ShF (shaxsiy fikr)	ShX (shaxsiy xato)	Harakatlar mazmuni
					jami

5-MAVZU: DARS LIKLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQISH

T- JADVAL METODI

«T-JADVAL» metodidan ma’ruza mashg’ulotlari va amaliy mashg’ulotlarning yakuniy qismida foydalanish qulay. Bunda bir muam-moga turli qarama-qarshi nuqtai nazarlardan qaraladi (ijobiy va salbiy, afzallik va kamchilik, foyda va zarar, to’g’ri va noto’g’ri). Masalan, o’qituvchi mavzu bo’yicha aralashtirib tuzilgan to’g’ri va no-to’g’ri javoblarni ekranga chiqarib, bir partada o’tirgan tinglovchi-larga hamkorlikda ularni jadvalga ajratib yozishlarini, so’ngra yozilgan varaqlarini yondosh partadagi tinglovchilar bilan almashti-rib qo’shimchalar qilishlarini taklif etadi . Ish yakunlangach to’g’ri va noto’g’ri javoblar ajratib yozilgan jadval ekranga chiqariladi.

Tinglovchilar o’zlarining javoblarini ekrandagi jadval bilan taqqoslab tegishli xulosalarga kelishadi.

To’g’ri javoblar	Noto’g’ri javoblar
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

6-MAVZU: MUTAXASSISLIK FANLARINI O’QITISH VA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI. (2 soat)

Reja

1. O’qitishda ko’rgazmali vositalarni tayyorlash mazmuni.
2. Fanlarni o’qitishda ko’rgazmali vositalarni tayyorlash zamonaviy yondashuvlar

3. Ko'rgazmali vositalardan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati

"Aqliy hujum" usuli

«Aqliy hujum» biror muammoni yechishda gurux qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yyechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo'llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a'zosi fikrini tezda yig'ish va umumlashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum"ni, o'quvchilar muammo haqida yyetarli ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda ham qo'llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy shiroitda aqlga kelmaydigan antiqa yyechimlar tonish imkonini beradi.

"Aqliy hujum" usulidan foydalanilganda, odatda mashg'ulot ikki bosqichdan iborat bo'ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi ("aqliy hujumning o'zi) va ikkinchi bosqich - tahlil hamda yyechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o'rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Aqliy hujum"ning birinchi bosqichini o'tkazishga oid tavsiyalar:

Muammoning aniq va ravshan qo'yish lozim

"Aqliy hujum" o'tkazish uchun asos bo'lgan muammoning qisqacha mohiyatini katta qog'ozga (yoki doakaga, o'quv taxtasiga) katta harflar bilan yozib, hammaga yaxshi ko'rinadigan joyga osib qo'ygan ma'qul.

"Aqliy hujum" - bitta muammol - har bir "aqliy hujum" faqatgina bitta muammoni hal etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shartlashuv - "aqliy hujum"ni o'tkazish tartibi va shartlari ishtirokchilarning har biri uchun aniq - ravshan, tushunarli bo'lishi kerak. Shartlar asosida mashg'ulotni o'tkazish tartib - qoidalari tuziladi va qisqa ifodalangan qoidalarni hammaga ko'rinadigan joyga yozib qo'yish lozim.

Demokratiya - "aqliy hujum"ga hamma teng huquqli ishtirok etadi. "Aqliy hujum" vaqtida bemalol, erkin ravishda muloqot olib borishni ta'minlash uchun ishtirokchilarni davra shaklida joylashtirish tavsiya etiladi.

Bemalol, istalgan takliflarni taklif qilish va tanqid qilmaslik - "aqliy hujum"ning birinchi bosqichida birorta ham taklif muhokama etilmaydi va tanqid qilinmaydi. Kutilmagan g'oyalar taklif etish qo'llab -quvvatlanadi. Bu usul yordamida muammo yyechimiga oid yetarli darajada ma'lumot to'planadi. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa, shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirishga imkoniyat beriladi.

Asoslamaslik - biror bir g'oyani taklif etgan kishi o'z yyechimini asoslamasligi va o'zi ham o'zgalar fikrini muhokama qilmasligi lozim. Chunki bu holat boshqa g'oyalar tug'ilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rasmiylashtirish - har bir fikr, taklif va g'oyalar yozib borilishi lozim. O'qituvchi birinchi bosqich davomida bildirilgan g'oyalarni yozib boruvchi kotibni belgilashi lozim. Foyalarni doskaga yozib borish lozim. Vaqtni tejash hamda o'z fikrini bemalol bayon etish uchun ishtirokchilarga o'z g'oyalarini qog'ozga yozib, sinf doskasiga sketch yordamida yonishtirib qo'yishni ham tavsiya etish mumkin. Bunda quyidagi tartibga amal qilish lozim: bir varaq - bitta g'oya - bitta so'z (ibora).

Vaqtni chegaralab qo'yish - g'oyani ifodalash uchun juda qisqa vaqt ajratilishi zarur. Nazorat qilish va tartibga solish - "aqliy hujum"ning birinchi bosqichi odatda kuchli emotsional - ruhiy vaziyatda o'tkazilgani uchun, o'qituvchi mashg'ulotning borishini nazorat qilishi hamda o'quvchilarning bir -birlari bilan bahslashish, munozara qilish va bir -birining ganini bo'lishga yo'l qo'ymasligi kerak. Ikkinchi bosqichda, ya'ni g'oyalarni tahlil qilish bosqichida taklif etilgan yyechimlar, qarorlar muhokama etiladi, guruhlariga ajratiladi. Takrorlangan fikrlar birlashtiriladi, eng asosiy 3 - 4 ta g'oyalar saralanadi (makrosaralash). So'ngra tanlab olingan asosiy g'oyalardan eng maqbullari yana saralanadi.

(mikrosaralash). Mikrosaralash davomida ajratib olingan qarorlarning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va cheklangan tomonlariga baho berib chiqish mumkin.

7-MAVZU. MUOMMALI VAZIYATLARNI YARATISH METODIKASI

(4 soat)

Reja

- 1.O‘qitishda muommali vaziyatlarni yaratish mazmuni.
- 2.Fanlarni o‘qitishda Muommali vaziyatlarni yaratishning ilmiy –pedagogik yo‘llari
- 3.Muommali vaziyatlarni yaratishning bugungi kundagi ahamiyati

“SINKVEYN” texnologiyasi haqida tushuncha

“SINKVEYN” – bu besh qatordan iborat bo‘lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so‘z) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qatorda unga harakat-holat (fe‘l) bilan to‘ldiriladi. To‘rtinchi qatorda so‘z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so‘zning ma‘nodoshi (sinonimi) keltiriladi.

“Sinkveyn” (*taxminiy variant*)

Kalit so‘zlar: *kasb, orzu, maqsad*

«SKARABEY» TEXNOLOGIYASI

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal

qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);

- mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

- oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin. Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: o'zgalar fikriga hurmat; jamoa bilan ishlash mahorati; faollik; xushmuomalalik; ishga ijodiy yondashish; imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji; o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi; «men»ligini ifodalashga imkon beradi; o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Zanjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

9- MAVZU : METODIKA TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUNI

Reja

1. Metodika tushunchasi va uning mohiyati.
2. Metodika tushunchasi va metodik ishlari
- 3.. Metodika turlari va pedagogik xususiyatlari

Topshiriq: “**BBB**” metodini o`tkazish bosqichlari.

O`qituvchi: Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi;

Mazkur mavzu bo`yicha bilgan bilimlarini hohlagan tushuncha va ma'lumotlarini yozma ravishda bayon etishlari talabalardan so`raydi;

- Quyidagi shema asosida ishlashlarini taklif etadi;

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

Uchinchi, ya'ni bilib oldim bo'limini bo'sh qoldiriladi;

-Belgilangan vaqt yakunlangach talabalar yozgan fikr mulohazalarini o'qib eshittiradi;

-Ularni tigláb, mavzuning talabalar uchun o'rganilmagan jihatlarini tushuntirib yoritib beradi;

-Mashg'ulot yakunida "Bilib" oldim bo'limini to'ldirishlarini so'raydi va bo'limni hohlagan, bilib olgan ma'lumotlarini taqqoslashni uyga vazifa tarzida beradi.

Talaba: Hamma topshiriqlarni qabul qiladi va bajaradi;

-Nimaniki o`ylagan bo`lsa, shuni qag`ozga yozadi;

-Berilgan mavzu bo`yicha bilgan va bilmagan jihatlarini tahlil qiladi;

-Mustaqil ijodiy ishlaydi.

Kutiladigan natija: Talabalar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o`zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo`ladi.

9 -MAVZU:MAXSUS FANLARNI O`QITISH METODIKASI FAN SIFATIDA RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI. (4 soat)

Reja

1.Maxsus fanlar sohalarining o`ziga xos xususiyatlari

2.O`qitish metodikasi fan sifatida rivojlanish tarixi

3.O`qitish g`oyalarining rivojlanishi bosqichlari

“Insert” metodini o`tkazish bosqichlari.

O`qituvchi: -Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi.

- Ularga mavzuni qisqacha bayoni tushurilgan tarqatma materiallarni beradi;
- Talabalardan matn bilan tanishish jarayonida maxsus belgilar yordamida – “V”- tanish ma`lumot; - “Q”- yangi ma`lumot “?”- bu ma`lumot men uchun tushunarsiz;
- Belgilangan vaqtdan so`ng belgilar tahlil qilinadi;
- Yakuniy xulosa shakllantiriladi.

Talaba: -Matn bilan yaqindan tanishadi va mahsus belgilar orqali o`z bilim, ko`nikma va malakalarini ifodalaydi;

- O'z-o'zini baholaydi.

Kutiladigan natija: Talabalar yangi mavzu bilan tanishadilar, ta'lim texnologiyalarining ilmi-nazariy asoslari haqida ma'lumot oladilar.

INSERT JADVALI

V	+	–	?

7

12 -MAVZU: O‘QITISH METODIKASI FAN SIFATIDA RIVOJLANISH TARIXI

"Aqliy hujum" usuli

«Aqliy hujum» biror muammoni yechishda gurux qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yyechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to‘g‘ri va ijodiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo‘llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a‘zosi fikrini tezda yig‘ish va umumlashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum"ni, o‘quvchilar muammo haqida yyetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan hollarda ham qo‘llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy shiroitda aqlga kelmaydigan antiqa yyechimlar tonish imkonini beradi.

"Aqliy hujum" usulidan foydalanilganda, odatda mashg‘ulot ikki bosqichdan iborat bo‘ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi ("aqliy hujumning o‘zi) va ikkinchi bosqich - tahlil hamda yyechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o‘rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

"Aqliy hujum"ning birinchi bosqichini o‘tkazishga oid tavsiyalar:

Muammoning aniq va ravshan qo‘yish loziml

"Aqliy hujum" o‘tkazish uchun asos bo‘lgan muammoning qisqacha mohiyatini katta qog‘ozga (yoki doakaga, o‘quv taxtasiga) katta harflar bilan yozib, hammaga yaxshi ko‘rinadigan joyga osib qo‘ygan ma’qul.

"Aqliy hujum" - bitta muammol - har bir "aqliy hujum" faqatgina bitta muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Shartlashuv - "aqliy hujum"ni o‘tkazish tartibi va shartlari ishtirokchilarning har biri uchun aniq - ravshan, tushunarli bo‘lishi kerak. Shartlar asosida mashg‘ulotni o‘tkazish tartib - qoidalari tuziladi va qisqa ifodalangan qoidalarni hammaga ko‘rinadigan joyga yozib qo‘yish lozim.

Demokratiya - "aqliy hujum"ga hamma teng huquqli ishtirok etadi. "Aqliy hujum" vaqtida bemalol, erkin ravishda muloqot olib borishni ta'minlash uchun ishtirokchilarni davra shaklida joylashtirish tavsiya etiladi.

Bemalol, istalgan takliflarni taklif qilish va tanqid qilmaslik - "aqliy hujum"ning birinchi bosqichida birorta ham taklif muhokama etilmaydi va tanqid qilinmaydi. Kutilmagan g'oyalar taklif etish qo'llab -quvvatlanadi. Bu usul yordamida muammo yyechimiga oid yetarli darajada ma'lumot to'planadi. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa, shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirishga imkoniyat beriladi.

Asoslamaslik - biror bir g'oyani taklif etgan kishi o'z yyechimini asoslamasligi va o'zi ham o'zgalar fikrini muhokama qilmasligi lozim. Chunki bu holat boshqa g'oyalar tug'ilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rasmiylashtirish - har bir fikr, taklif va g'oyalar yozib borilishi lozim. O'qituvchi birinchi bosqich davomida bildirilgan g'oyalarni yozib boruvchi kotibni belgilashi lozim. Foyalarni doskaga yozib borish lozim. Vaqtni tejash hamda o'z fikrini bemalol bayon etish uchun ishtirokchilarga o'z g'oyalarini qog'ozga yozib, sinf doskasiga sketch yordamida yonishtirib qo'yishni ham tavsiya etish mumkin. Bunda quyidagi tartibga amal qilish lozim: bir varaq - bitta g'oya - bitta so'z (ibora).

Vaqtni chegaralab qo'yish - g'oyani ifodalash uchun juda qisqa vaqt ajratilishi zarur. Nazorat qilish va tartibga solish - "aqliy hujum"ning birinchi bosqichi odatda kuchli emotsional - ruhiy vaziyatda o'tkazilgani uchun, o'qituvchi mashg'ulotning borishini nazorat qilishi hamda o'quvchilarning bir -birlari bilan bahslashish, munozara qilish va bir -birining ganini bo'lishga yo'l qo'ymasligi kerak. Ikkinchi bosqichda, ya'ni g'oyalarni tahlil qilish bosqichida taklif etilgan yyechimlar, qarorlar muhokama etiladi, guruhlariga ajratiladi. Takrorlangan fikrlar birlashtiriladi, eng asosiy 3 - 4 ta g'oyalar saralanadi (makrosaralash). So'ngra tanlab olingan asosiy g'oyalardan eng maqbullari yana saralanadi.

(mikrosaralash). Mikrosaralash davomida ajratib olingan qarorlarning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va cheklangan tomonlariga baho berib chiqish mumkin.

13-MAVZU:KO‘RGAZMALI VOSITALAR TURLARI. (2 SOAT)

Reja

1. Ko‘rgazmali vositalar tushunchasi mazmuni.
2. Ko‘rgazmali vositalar turlari.
3. Ko‘rgazmali vositalar turlarini yaratishning ahamiyati

“T – sxema” metodini o‘tkazish bosqichlari.

O‘qituvchi: Yangi mavzuni bayon qiladi va talabalarga pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- Tinglangan ma’ruzadan kelib chiqib, talabalarning pedagogik texnologiyalar haqidagi fikrlarini quyidagi shema asosida tahlil qilishlarini so‘raydi;

Pedagogik texnologiya

Afzalligi

Kamchiligi

Xulosa

- Topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so`raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- Vaqt tugagach talabalardan izohlarsiz o`z fikr – mulohazalarini o`qib eshittirishlarini aytadi;
- Barcha hulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy hulosa shakllantiriladi.

Talaba: -Mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- O`zi uchun zarur bo`lgan ma`lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- Berilgan shema asosida tushunchaga nisbatan o`zining mustaqil fikrini bildiradi;
- YAkuniy hulosasi bilan o`tirganlarni tanishtiradi;
- Reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: Talabalar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o`zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo`ladi.

14-MAVZU:ZAMONAVIY DIDAKTIK KONSEPSIYALAR (4 soat)

Reja

- 1.O`qitishda Zamonaviy didaktik konsepsiyalar mazmuni.
- 2.Fanlarni o`qitishda zamonaviy didaktik konsepsiyalarning ahamiyati
3. Zamonaviy didaktik konsepsiyalar va ularning turlari.

“Tarmoqlar” metodini o`tkazish bosqichlari.

**O`qituvchi:** Hamma talabalarga tarqatma materiallar tarqatiladi va o`tkazish yo`llarini tushuntiradi.

1. Nimaniki o`ylagan bo`lsangiz, shuni qog`ozga yozing. Fikringizni sifati to`g`risida o`ylab o`tirmay ularni shunchaki yozib boring.
2. Yozuvingizni orfagrafiyasi yoki boshqa jihatlariga e`tibor bermang.
3. Berilgan vaqt nihoyasiga etmaguncha yozishdan to`htamang. Agar ma`lum muddat biron bir g`oyani o`ylay olmasangiz u holda kog`ozga biror narsani rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g`oya tug`ulgunga qadar davom ettiring.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko`proq yangi g`oyalarni yig`indisining sifati va ular o`rtasidagi aloqalarni ko`rsatishni cheklamang.

Talaba: Hamma tushunchalarni qabul qiladi.

1. Nimaniki o`ylagan bo`lsa, shuni qag`ozga yozadi.
2. Yozuvlarning orfagrafik, grammatik jihatlariga e`tibor bermaydi.
3. Berilgan vaqt nihoyasiga etmagunga qadar o`z fikrini davom ettiradi.
4. Muayyan tushuncha yuzasidan ko`proq ma`lumotlarni yoritishga harakat qiladi.

Texnologiya nihoyasiga etgach o`qituvchi boshchiligida tahlil qilinadi.

Kutiladigan natija: Talabalar ushbu pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiq etishni o`rganadilar.

15 –MAVZU:MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI FANINING BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO ALOQASI. (2 soat)

Reja

1. Maxsus fanlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari
2. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi
3. Maxsus fanlarni fanlar tizimidagi o‘rni.

“Klaster” metodini o‘tkazish bosqichlari.

O‘qutuvchi: - Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi;

- Doskaga “Pedagogik texnologiya” so‘zini yozadi.
 1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizni sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay ularni shunchaki yozib boring;
 2. Yozuvingizni orfagrafiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang;
 3. Berilgan vaqt nihoyasiga etmaguncha yozishdan to‘htamang. Agar ma’lum muddat biron bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz u holda kog‘ozga biror narsani rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ulgunga qadar davom ettiring;
 4. Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

Talaba: Hamma tushunchalarni qabul qiladi.

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsa, shuni qog‘ozga yozadi;
2. Yozuvlarning orfagrafik, grammatik jihatlariga e‘tibor bermaydi;

3. Berilgan vaqt nihoyasiga etmagunga qadar o'z fikrini davom ettiradi;
4. Muayyan tushuncha yuzasidan ko'proq ma'lumotlarni yoritishga harakat qiladi;

Texnologiya nihoyasiga etgach o'qituvchi boshchiligida tahlil qilinadi.

Kutiladigan natija: Maqsadni belgilash ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy elementi bilan tanishadilar.

16 –MAVZU: PEDAGOGIK FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANI PRINSIPLARI. (2 soat)

Reja

1. Pedagogik fanlarni o'qitish prinsiplari.
2. Pedagogik fanlarni o'qitish prinsiplariva ularning tasnifi.

o'zaro aloqasi

3. Maxsus fanlarni o'qitish prinsiplari va ularning ta'limdagi o'rni.

“Veer” metodini o'tkazish bosqichlari.

O'qituvchi: Texnologiyani o'tkazish yo'llarini tushuntiradi va tarqatma materiallar tarqatadi.

2. Talabalardan olti kishidan iborat bo'lgan kichik guruhlariga bo'linishni so'raydi.
3. Mavzu yuzasidan ayrim tushunchalar tanlab olinadi.
4. Tushunchalarni afzallik yoki kamchilik; ijobiy, salbiy tomonlari tahlil etiladi va berilgan qog'ozlarga yoziladi.

5. Veer texnologiyasida tushunchalarni ko'rib chiqib ulardan guruhlar bilan kelishilgan holda hulosasi yasash kerakligini o'qituvchi tomonidan aytib o'tiladi.

Talaba: Texnologiyani o'tkazish yo'llarini tushunib oladi. Material bilan tanishib chiqadilar.

2. Kichik guruhlariga bo'linadilar.

3. Mavzuga bog'liq bo'lgan tushunchalar tanlab olinadi.

4. Tushunchalarning afzallik va kamchiligi yoki foyda va zararli tomonlarini guruhlarda muhokama qiladilar. YOzma ravishda yozadilar.

5. Guruhlardan saylangan a'zo guruh hulosasini himoya qiladi.

Kutiladigan natija: Talabalar texnologiyani amaliyotga tatbiq etishni o'rganadilar.

17 –MAVZU:TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

(2 soat)

Reja

1. Multimedia texnologiyasi tushunchasi.
2. Pedagogik fanlarni o'qitish multimedia texnologiyasidan foydalanish
3. Multimedia texnologiyalari va ularning ta'limdagi o'rni.

1-topshiriq. Berilgan terminlar orasidan multimedia texnologiyasiga doir soʻzlarni ajratib yozing: hikoya, illustratsiya, tasvir, suhbat, demonstratsiya, maʼruza, mashq, evristik suhbat.

2-topshiriq. Oʻzingiz tanlagan oʻquv predmetidan tanlangan mavzuda suhbat va maʼruza metodidan foydalanish tartibini tushuntiring.

3-topshiriq. Qavs ichida keltirilgan multimedia texnologiyasi (suhbat, diktant, hikoya, maʼruza, individual nazorat, frontal nazorat, tasvir, mashq, joriy nazorat, orliq nazorat, yakuniy suhbat, evristik suhbat, yakuniy nazorat) jadval boʻyicha ikki guruhga ajratib yozing.

Oʻzaro taʼsirni tashkil etish va boshqarish metodlari	Oʻzaro taʼsir natijasini nazorat qilish metodlari

Qavs ichida nazorat **multimedia texnologiyasiga doir** metodlar nomi berilgan soʻzlarni jadvaldagidek uch guruhga ajratib yozing.

Vaqtga koʻra	Oʻquvchilar miqdoriga koʻra	Nutq shakliga koʻra

18-MAVZU:MUSTAQIL FAOLIYAT VA UNI TASHKIL ETISH METODIKASI. (4 soat)

Reja

1. Mustaqil faoliyat va uni tashkil etish mazmuni.
2. Fanlarni oʻqitishda mustaqil faoliyat va uni tashkil etishning ahamiyati
3. Mustaqil faoliyat va uni tashkil etish ularning turlari.

**O`qituvchi:** Talabalarni juftlikka biriktiradi va juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar kalit so`zlar, belgilarni qog`ozga qayd etish vazifasini yuklaydi;

-Talabalar bilan birgalikdajuftliklarda topshiriqlarning bajarilishini tekshiradi;

-Topshiriqlarni to`g`ri bajargan juftlik vakili bajargan ishini doskaga yozadi va qolgan talabalar doskadagi bu tushunchalarni sharhlaydilar;

- O`qituvchi eng to`g`ri javob bergan talabani o`z roliga taklif etadi va u juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi shema yoki jadval tuzishni topshiradi;

(misol: o`qitish texnologiyalarini jadval ko`rinishida tasniflang)

-O`qituvchi rahbarligida topshiriqning bajarishi tekshiriladi.

Talaba: -O`z juftligida berilgan topshiriqni bajaradi;

-Agar o`qituvchi rolini bajarish to`g`ri kelib qolsa, talabalardan vazifalarni so`rab yangi topshiriq beradi;

- Topshiriqlarni baholaydi va talabalarni faollashtiradi.

Kutiladigan natija: Talabalar a`nanaviy ta`lim texnologiyalari , uning funktsiyalari, ta`lim jarayonida qo`llash yo`llari bilan tanishadilar.

16-MAVZU:MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA MUOMMALI VA INTERFAOL METODLAR (4 soat)

Reja

- 1.O'qitishda muommali vaziyatlarni yaratish mazmuni.
- 2.Fanlarni o'qitishda interfaol metodlar
- 3.Muommali metodlar bugungi kundagi ahamiyati

“RUCHKA STOL O'RTASIDA” METODI

Butun guruhga topshiriq beriladi. Har bir talabi bitta javob variantini bir varaq qog'ozga yozib, uni qo'shnisiga beradi, o'z ruchkasini stol o'rtasiga surib qo'yadi.

Topshiriqqa misol.

O'qituvchining guruhga beradigan topshirig'i o'qitishda muommali texnologiyalarning muhim xususiyatlarini misollar bilan sharxlab berish.

Ajratilgan 10 – 15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko'proq sonda javob variantlari berish kerak. Bir varaq qog'ozga yozilgan topshiriq bir talabadan ikkinchisiga uzatiladi. Talaba javobni yozib, qog'ozni keyingi talabaga uzatadi, ruchkasini esa, o'ziga ro'baro' qilib, stolga qo'yib qo'yadi. Javobni bilmaydigan talaba qog'ozni keyingi talabaga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo'lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikkki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo'lishiga bu o'rinda yo'l qo'yilmaydi.

Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog'oz o'qituvchida. U o'sha variantlarni sanab o'tadi.

Variantlar sanab o`tilar ekan, ularni har biri bir yo`la muhokama qilib boriladi:
Qanday pedagogik texnologiyalar usullarini bilasiz? Ta`lim jarayonida
tabaqlashtirilgan darajadagi texnologiyaning qanday imkoniyatlari mavjud? Va
hokaza.

19 –MAVZU:TA'LIM TURLARI VA SHAKLLARI TAVSIFI. TA'LIMNI TASHKIL ETISH TIZIMI (4 soat)

Reja

1. Ta`lim turlari tushunchasi.
2. Ta`lim shakllari tavsifi
3. Ta`lim turlari va shakllari va ularning ta`limdagi o`rni.

Insert” metodini o`tkazish bosqichlari.

**O`qituvchi:** - Ta`lim turlari tushunchasi mavzusi bilan tanishtiradi.

- Ularga mavzuni qisqacha bayoni tushurilgan tarqatma materiallarni beradi;
- Talabalardan matn bilan tanishish jarayonida mahsus belgilar yordamida –
“V”- tanish ma`lumot; - “Q”- yangi ma`lumot “?”- bu ma`lumot men uchun
tushunarsiz;
- Belgilangan vaqtdan so`ng belgilar tahlil qilinadi;
- YAkuniy hulosha shakllantiriladi.

Talaba: -Matn bilan yaqindan tanishadi va mahsus belgilar orqali o`z bilim,
ko`nikma va malakalarini ifodalaydi;

- O`z-o`zini baholaydi.

Kutiladigan natija: Talabalar yangi mavzu bilan tanishadilar, ta`lim
texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslari haqida ma`lumot oladilar.

18-MAVZU: O‘QITUVCHI FAOLIYATINING VAZIFASI VA TUZILISHI. (2 soat)

Reja

1. O‘qituvchi faoliyatining mazmuni.
2. O‘qituvchi faoliyatining vazifalari
3. O‘qituvchi faoliyatining tuzilishi

“T – sxema” metodini o‘tkazish bosqichlari.

O‘qituvchi: Yangi mavzuni bayon qiladi va talabalarga o‘qituvchi faoliyatining mazmuni haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- Tinglangan ma’ruzadan kelib chiqib, talabalarning o‘qituvchi faoliyatining mazmuni haqidagi fikrlarini quyidagi sxema asosida tahlil qilishlarini so‘raydi;

O‘qituvchining innovatsion faoliyati

Afzalligi

Kamchiligi

Xulosa

-
- Topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so`raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
 - Vaqt tugagach talabalardan izohlarsiz o`z fikr – mulohazalarini o`qib eshittirishlarini aytadi;
 - Barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy hulosasi shakllantiriladi.

Talaba: -Mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- O`zi uchun zarur bo`lgan ma`lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- Berilgan shema asosida tushunchaga nisbatan o`zining mustaqil fikrini bildiradi;
- Yakuniy hulosasi bilan o`tirganlarni tanishtiradi;
- Reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: Talabalar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o`zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo`ladi.

20-MAVZU:SHAXSGA YO`NALTIRILGAN O`QITISH TEKNOLOGIYALARI YOKI TEKNOLOGIK YONDASHUV (4 soat)

1. Shaxsga yo`naltirilgan o`qitish texnologiyalari.
- 2.Fanlarni o`qitishda Shaxsga yo`naltirilgan o`qitish texnologiyalarining o`rni
3. Shaxsga yo`naltirilgan o`qitish texnologiyalari va ularning turlari.

“BBB” metodini o`tkazish bosqichlari.

O`qituvchi: Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi;

Mazkur mavzu bo'yicha bilgan bilimlarini hohlagan tushuncha va ma'lumotlarini yozma ravishda bayon etishlari talabalardan so'raydi;

- Quyidagi shema asosida ishlashlarini taklif etadi;

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

Uchinchi, ya'ni bilib oldim bo'limini bo'sh qoldiriladi;

-Belgilangan vaqt yakunlangach talabalar yozgan fikr mulohazalarini o'qib eshittiradi;

-Ularni tiglab, mavzuning talabalar uchun o'rganilmagan jihatlarini tushuntirib yoritib beradi;

-Mashg'ulot yakunida "Bilib" oldim bo'limini to'ldirishlarini so'raydi va bo'limni hohlagan, bilib olgan ma'lumotlarini taqqoslashni uyga vazifa tarzida beradi.

Talaba: Hamma topshiriqlarni qabul qiladi va bajaradi;

-Nimaniki o'ylagan bo'lsa, shuni qag'ozga yozadi;

-Berilgan mavzu bo'yicha bilgan va bilmagan jihatlarini tahlil qiladi;

-Mustaqil ijodiy ishlaydi.

Kutiladigan natija: Talabalar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi.

21 –MAVZU:HOZIRGI ZAMON BOSQICHIDA TA'LIM MAZMUNINI BELGILOVCHI MUHIM G'OYALAR (4 soat)

Reja

1. Hozirgi zamon ta'lim mazmuni tushunchasi.
2. Ta'lim mazmunini belgilovchi muhim g'oyalardan foydalanish
3. Ta'lim mazmunini belgilovchi muhim g'oyalarning o'рни.

Aqliy hujum» metodining asosiy qoidalari:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yahshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;

- muammo echimidan uzoqroq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- «Hujum»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Yaxlit mavzu, uning bir qismi yoki tanlab olingan muammo yuzasidan o'quvchi-talabalarga beriladigan savollar majmuasi o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan bo'lishi ishda yahshi natija beradi.

Aqliy hujum metodi qo'yilgan muammo echimiga bog'liq ravishda 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda o'quvchi-talabalarning berayotgan javoblariga na o'qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo'l qo'yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo'yilmaydi

22-MAVZU:MAXSUS FANLARNI O'QITISH AMALIYOTIDA QO'LLANILAYOTGAN TA'LIM METODLARINING MAZMUNI (2 soat)

Reja

1. Maxsus fanlarni o'qitish amaliyoti mazmuni.
2. O'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan ta'lim metodlarining ahamiyati
3. O'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan ta'lim metodlari turlari.

“Klaster” metodini o'tkazish bosqichlari.

O'qituvchi: - Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi;

- Doskaga “Pedagogik texnologiya” soʻzini yozadi.
 1. Nimaniki oʻylagan boʻlsangiz, shuni qogʻozga yozing. Fikringizni sifati toʻgʻrisida oʻylab oʻtirmay ularni shunchaki yozib boring;
 2. Yozuvingizni orfagrafiyasi yoki boshqa jihatlariga eʼtibor bermang;
 3. Berilgan vaqt nihoyasiga etmaguncha yozishdan toʻhtamang. Agar maʼlum muddat biron bir gʻoyani oʻylay olmasangiz u holda kogʻozga biror narsani rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi gʻoya tugʻulgunga qadar davom ettiring;
 4. Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar koʻproq yangi gʻoyalarni yigʻindisining sifati va ular oʻrtasidagi aloqalarni koʻrsatishni cheklamang.

Talaba: Hamma tushunchalarni qabul qiladi.

1. Nimaniki oʻylagan boʻlsa, shuni qogʻozga yozadi;
2. Yozuvlarning orfagrafik, grammatik jihatlariga eʼtibor bermaydi;
3. Berilgan vaqt nihoyasiga etmagunga qadar oʻz fikrini davom ettiradi;
4. Muayyan tushuncha yuzasidan koʻproq maʼlumotlarni yoritishga harakat qiladi;

Texnologiya nihoyasiga etgach oʻqituvchi boshchiligida tahlil qilinadi.

Kutiladigan natija: Maxsus fanlarni oʻqitish amaliyoti mazmuni bilan tanishadilar.

**23 –MAVZU:FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING BILIM,
KO‘NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH.**

(2 soat)

Reja

1. Fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

2.O‘qitish metodikasi fanida nazorat qilish va baholash

3. Fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari..

“Veer” metodini o‘tkazish bosqichlari.

O‘qituvchi: Texnologiyani o‘tkazish yo‘llarini tushuntiradi va tarqatma materiallar tarqatadi.

2. Talabalardan olti kishidan iborat bo‘lgan kichik guruhlariga bo‘linishni so‘raydi.

3. Mavzu yuzasidan ayrim tushunchalar tanlab olinadi.

4. Tushunchalarni afzallik yoki kamchilik; ijobiy, salbiy tomonlari tahlil etiladi va berilgan qog‘ozlarga yoziladi.

5. Veer texnologiyasida tushunchalarni ko‘rib chiqib ulardan guruhlar bilan kelishilgan holda hulosasi yasash kerakligini o‘qituvchi tomonidan aytib o‘tiladi.

Talaba: Texnologiyani o‘tkazish yo‘llarini tushunib oladi. Material bilan tanishib chiqadilar.

2. Kichik guruhlariga bo‘linadilar.

3. Mavzuga bog'liq bo'lgan tushunchalar tanlab olinadi.
4. Tushunchalarning afzallik va kamchiligi yoki foyda va zararli tomonlarini guruhlarda muhokama qiladilar. YOzma ravishda yozadilar.
5. Guruhlardan saylangan a'zo guruh hulosasini himoya qiladi.

23 –MAVZU:PEDAGOGIK FANLARNI O'QITISH VOSITALARI VA ULARNING TASNIFI (2 soat)

Reja

- 1 Pedagogik fanlarni o'qitish vositalari tushunchasi.
2. Pedagogik fanlarni o'qitish vositalari tavsifi
3. Pedagogik fanlarni o'qitish vositalari va ularning ta'limdagi o'rni.

Kutiladigan natija: Talabalar texnologiyani amaliyotga tadbiq etishni o'rganadilar.

1-topshiriq. Berilgan terminlar orasidan bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlarining nomini bildirgan so'zlarni ajratib yozing: hikoya, illustratsiya, tasvir, suhbat, demonstratsiya, ma'ruza, mashq, evristik suhbat.

2-topshiriq. O'zingiz tanlagan o'quv predmetidan tanlangan mavzuda suhbat va ma'ruza metodidan foydalanish tartibini tushuntiring.

3-topshiriq. Qavs ichida keltirilgan ta'lim metodlarini (Pedagogik fanlarni o'qitish vositalarini) jadval bo'yicha ikki guruhga ajratib yozing.

O'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari	O'zaro ta'sir natijasini nazorat qilish metodlari

4-topshiriq. Pedagogik fanlarni o'qitish vositalari tushunchasi haqida dars konspekti tuzishni rejalashtiring.

5-topshiriq. O'zingiz istagan o'quv predmetidan simulyativ o'yindan foydalanish rejasini tuzing.

6-topshiriq. O'rtoqlaringizning birontasi bilan Pedagogik fanlarni o'qitish vositalari tushunchasi to'g'risida suhbatlashing.

Vaqtga ko'ra	O'quvchilar miqdoriga ko'ra	Nutq shakliga ko'ra

24-MAVZU: MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONI MOHIYATI VA UNING VAZIFALARI. (2 soat)

Reja

1. Maxsus fanlarni o'qitish jarayoni mazmuni.
2. Maxsus fanlarni o'qitish jarayoni vazifalari
3. Maxsus fanlarni o'qitish jarayoni tuzilishi

O'qituvchi: Talabalarni juftlikka biriktiradi va juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar kalit so'zlar, belgilarni qog'ozga qayd etish vazifasini yuklaydi;

-Talabalar bilan birgalikdajuftliklarda topshiriqlarning bajarilishini tekshiradi;

-Topshiriqlarni to'g'ri bajargan juftlik vakili bajargan ishini doskaga yozadi va qolgan talabalar doskadagi bu tushunchalarni sharhlaydilar;

- O'qituvchi eng to'g'ri javob bergan talabani o'z roliga taklif etadi va u juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi shema yoki jadval tuzishni topshiradi;

(misol: o'qitish texnologiyalarini jadval ko'rinishida tasniflang)

-O'qituvchi rahbarligida topshiriqning bajarishi tekshiriladi.

Talaba: -O'z juftligida berilgan topshiriqni bajaradi;

-Agar o'qituvchi rolini bajarish to'g'ri kelib qolsa, talabalardan vazifalarni so'rab yangi topshiriq beradi;

- Topshiriqlarni baholaydi va talabalarni faollashtiradi.

Kutiladigan natija: Maxsus fanlarni o'qitish jarayoni, funktsiyalari, ta'limiy yo'llari bilan tanishadilar.

MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: Tinglovchilar mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish, tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash, masofaviy ta'lim. Talabaga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati quriladi. Test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Izoh: qo'shimcha adabiyotlar boshqa axborot-resurs markazlarida mavjud

GLOSSARIY

Artpedagogika - san'at pedagogikasi nazariya va amaliyotni rivojlantirish bilan shug'ullanadi, badiiy rivojlanish jarayonining nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishni, badiiy-ijodiy va ijodiy faoliyat orqali individual madaniyatning asosini tashkil etadi. San'atni rivojlantirish orqali shaxslarni tarbiyalash, tayyorlash va rivojlantirish; badiiy madaniyatning asoslarini shakllantirish va turli xil badiiy faoliyat turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Badiiy pedagogika- pedagogika va adabiyotni birlashtirishga asoslangan pedagogika fanining sohasi, ta'lim va inson taraqqiyoti qonunlarini badiiy adabiyot orqali o'rganish.

Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi.

Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lcha-gich)lar bilan solishtirish.

Bakalavr, magistr — oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

Bakalavriat — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob

beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

Diagnostika-(yunon tilida «dia»-shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi) - o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risidagi aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Dialog- o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir.

Didaktik konsepsiya (didaktik tizim) ta'limda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to'g'risidagi qarashlar (g'oyalar) majmuidir.

Didaktika pedagogikaning mustaqil qismi bo'lib, o'qitish va ta'lim berish muammolari bilan shug'ullanadi hamda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Elektron pedagogika - pedagogik faoliyatda kerakli interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish qoidalari va texnologiyalari to'g'risida tasavvurga ega

bo'lish va o'ziga kerakli fanlar bo'yicha elektron interaktiv darsliklar mustaqil yaratish uchun amaliy ko'nikmalar hosil qilish to'g'risidagi fan.

Harbiy pedagogika - harbiy pedagogik jarayonning qonuniyatlari, harbiy kadrlar va harbiy guruhlarni o'qitish usullari, ularni muvaffaqiyatli jangovar operatsiyalar va harbiy-kasbiy faoliyat uchun tayyorlashga qaratilgan pedagogika fanining bir bo'limi.

Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonlarida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Joriy nazorat- o'qituvchi tomonidan talabalarning xar bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;

Kommunikativ kompetentsiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Logopediya – nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Ma'ruza (o'quv ma'ruzasi)-oliy o'quv yurti pedagogik jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan shakli bo'lib unda ta'lim oluvchilarga maksimal darajada yangi ilmiy axborotlar berish, o'quv materialini talabalar ongiga yetkazish nazarda tutiladi. Ma'ruzalarda talaba uchun zarur bo'lgan kasbiy, ilmiy-nazariy ma'lumotlar bayon etiladi.

Ma'ruza metodi-bu o'qituvchi tomonida katta mazmundagi ma'lumotni og'zaki tarzda mantiqiy izchillikda bayon qilish, talabalarning esa o'quv materialini tinglash orqali idrok etishini nazarda tutadi.

Magistratura — bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Malaka amaliyoti — o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va o'quv hosil qilish, o'quv rejalari va fanlar dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

Malaka talablari — uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

Maxsus pedagogika (defektologiya) - aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandir.

Mehnat pedagogikasi- asosan axloq tuzatish muassasalarida jinoyatchilarni tarbiyalash va qayta tarbiyalashning shart-sharoitlari va xususiyatlarini o'rganadigan pedagogikaning sohasi.

Metodik (uslubiy) ko'rsatma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo'llanma.

Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o'tkazish usullari, yo'llari majmuasidir.

Metodika – pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Monolog-ma'ruzadagii oq'ituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir.

Musiqiy pedagogika - musiqiy ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini, shakllarini o'rganish va rivojlantirish, shuningdek musiqa sohasida turli yo'nalishlarda ijodiy ko'nikmalarni, tajriba va amaliy malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan pedagogika fanining sohasi.

Mutaxassislik — 5A-bosqichning o'quv rejalar va fanlar dasturi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan “magistr”

akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi muayyan mutaxassislik bo'yicha bilimlar, uquvlar va ko'nikmalar kompleksi.

Muzey pedagogikasi - muzeylarning madaniy va ma'rifiy faoliyatining xususiyatlari, ularning turli toifalari bo'yicha shaxsga ta'sir o'tkazish usullari, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan fan.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi.

Nazoratning guruhli shakli- talabalarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashishi mumkin.

Nazoratning individual shakli- har bir talabaning bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

Nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli - individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

Nazoratning ommaviy (frontal) shakli- o'qituvchi talabalarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik talabani nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni talabalarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

Neyropedagogika - inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktsional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy xulq-atvorni psixologik korrektsiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari,

samarali shakl va metodlarini, yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Oligofpenopedagogika – aqliy jihatdan zaif bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Oliy ma'lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va fanlar dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi.

Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

Oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e'tirof etilishi.

Oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi — oliy ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

Oliy ta'lim — uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti — muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o‘qituvchi mashg‘ulotlar jadvali asosida mashg‘ulotda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o‘tkazadi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o‘qituvchi mashg‘ulotlar jadvali asosida mashg‘ulotda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o‘tkazadi.

Pedagogik akmeologiya – o‘qituvchining kasbiy faoliyatining eng yuksak bosqichiga etish muammolarini o‘rganuvchi fan.

Pedagogik aksiologiya - pedagogik yangiliklar, innovatsiyalarning pedagogik jamoatchilik tomonidan o‘zlashtirilish darajasini baholash, idrok etish haqidagi nazariy bilimlar.

Pedagogik kvalimetriya – pedagogning faoliyat jarayonida erishadigan sifat va samaradorlik darajalarining o‘lchovi va mezonini o‘rganadi.

Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogik riskologiya – pedagogik vaziyatlarda eng muhim qarorlar qabul qilish jarayonida tavakkalchilik xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogika tarixi – turli tarixiy davrlarda pedagogik g‘oyalarning va tarbiyaning taraqqiyotini o‘rganadi.

Polelog- guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o‘quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi.

Qiyosiy pedagogika – turli mamlakatlarning ta’lim-tarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Reyting -baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o'quvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Suhbat metodi - bilim o'zaro so'zlashuv (dialog) yo'li bilan o'rganishga sabab asosan seminar mashg'ulotlarida, talabalarning mustaqil ishi, referatlari, o'quv konfersiyalarida qo'llaniladi.

Surdopedagogika – kar va soqov bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

Ta'lim maqsadi – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi;

Ta'lim mazmuni –o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

Ta'lim metodi - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li;

Ta'lim natijasi - o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish — o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Ta'lim vositasi - o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt;

Ta'limni tashkil etish - qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon;

Ta'lim mazmuni- inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni sama-rali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Teatr pedagogikasi - zamonaviy pedagogikaning amaliy jihatida bo'lib, ta'lim jarayonida voqelik, yashash, shaxsiy ijodiy harakatlar va improvizatsiya tamoyillarini tatbiq etuvchi, intellektual, hissiy tuyg'ularni aks ettiradigan fan.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Texnologik jarayon– ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisidan iborat

Texnologik operatsiya– ishchi yomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik rejim-texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Texnologik xarita- ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjatdir.

Tibbiy pedagogika - shaxsga psixologik-pedagogik va tibbiy ta'sir ko'rsatishning zamonaviy vositalari va usullarini, inson ruhiyatining umumiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish to'g'risidagi fan.

Tiflopedagogika – ko'zi ojizlarni bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Tizim (sistema) – tartibga solingan, o'zaro bog'langan va ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa; tartibga solingan tushunchalar yig'indisidir.

Tizim (sistema) –o'zaro bog'langan ko'plab elementlar o'rtasidagi mustahkam birlik va bog'liqlik.

Turizm pedagogikasi - bu turizmning gumanitar va ijtimoiy funksiyalari kontekstida shaxsning tarbiyasi, ta'limi va rivojlanish jarayonlarini o'rganadigan fan.

Umumiy pedagogika – ta'lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Xalq pedagogikasi – turli xalq, millat va elatlarning xalq og'zaki ijodidagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi pedagogik g'oyalarning mohiyatini, mazmunini o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash.

Yakuniy nazorat – sesmestr va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Yo'nalish — 5-bosqichning o'quv rejalar va fanlar dasturi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan “bakalavr” akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, uquvlar va ko'nikmalar kompleksi.

Yosh pedagogikasi – turli yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi (andragogika)ga bo'linadi.

Yozma tekshirish – talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi.

O‘qitish sifatini nazorat qilish — talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash.

O‘qitishning me‘yoriy muddati — ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘quv rejalari va fanlar dasturi o‘zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

O‘quv fani dasturi — ta‘lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjat.

O‘quv fani — ta‘lim muassasasida o‘rganish uchun fan, texnika, san‘at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar tizimi.

O‘quv fanlari bloki — o‘quv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o‘zlashtirilishini ta‘minlaydigan o‘quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

O‘quv rejasi — oliy ta‘limning muayyan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat.

O‘quv semestri — oliy ta‘lim muassasasida o‘quv yilining yarmini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘langan fanlarning ma‘lum majmuini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan va ular bo‘yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

O‘quv yili — oliy ta‘lim muassasasida bir ta‘lim kursini yakunlashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri. O‘quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2019-2020 o‘quv yili.

O‘z-o‘zini nazorat qilish shakli - ta‘lim jarayonida ichki aks aloqaning bo‘lishini ta‘minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

O‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

O‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Og‘zaki tekshirish- bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholash-ning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir. Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi talabalarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi.

TESTLAR

1. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi barcha ko‘rinishdagi maktabgacha tarbiya, o‘rta umumiy ta’lim maktablari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o‘zaro uzviylikdagi bog‘liqlik bu -...?

- A) Tarbiya tizimi
- *B) Pedagogik tizim
- C) Tizim
- D) Yaxlitlik

2. O‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati

- *A) o‘rgatish
- B) o‘rganish
- C) o‘zlashtirish
- D) metodika

3. Anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi

- A) o‘rgatish
- *B) o‘rganish
- C) o‘zlashtirish
- D) o‘qitish

4. O‘qitish nima?

- A) o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati

- B) anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi
- C) o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi
- *D) qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o'zaro harakati

5. Qaysi qatorda ta'limga to'g'ri ta'rif berilgan?

- *A) o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi
- B) ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;
- C) egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;
- D) avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi

6. Ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi bu-....?

- A) ta'lim
- *B) bilim
- C) ko'nikma
- D) malaka

7. Egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash

- A) ta'lim
- B) bilim

*C) ko'nikma

D) malaka

8. Avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi

A) ta'lim

B) bilim

C) ko'nikma

*D) malaka

9. Muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo'llanma.

*A) metodik (uslubiy) ko'rsatma

B) risola

C) monografiya

D) o'quv qo'llanma

10. Inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri

*A) ta'lim mazmuni

B) ta'lim metodi

C) ta'lim maqsadi

D) ta'lim shakli

11. Pedagogika fani o`qitish metodi guruhlarga ajratishda o`z hissasini qo`shgan olimlarni aniqlang.

- A) Rajabov, Mamutov
- B) Ochilov, Abdullaeva
- C) Skatkin I.A, Pavlov
- *D) Mahmutov, Babanskiy, Skatkin I.A

12. O`qitish jarayonida metod va usullardan foydalanishda qanday maqsadlar amalga oshiriladi

- *A) ta'limiy va tarbiyaviy
- B) axloqiy, jismoniy
- C) ma'naviy, tashkiliy
- D) ilmiy, tadqiqot

13. Mutaxassislik fanlarini o`qitishda qo`llaniladigan og`zaki metodlarni aniqlang?

- A) namoyish qilish, suhbat
- B) induktiv, deduktiv
- C) o`yin, amaliy, mashq qilish
- *D) hikoya, ma'ruza, suhbat

14. Ko`rgazmali metod turlarini aniqlang?

- A) suhbat, mashq qilish, hikoya qilish
- B) evristik, muammoli, ko`rsatish
- C) o`yin, mashq qilish, ma'ruza qilish
- *D) ko`rsatish, namoyish qilish

15. O`qitish jarayoni nima?

bilim, ko`nikma va malakalarni puhta o`zlashtirish

aqliy qobiliyatlarni o`stirish

o`qituvchi va o`quvchi hamkorligida amalga oshiriladigan jarayon

*o`qituvchi va o`quvchi hamkorligida amalga oshiriladigan jarayon, aqliy qobiliyatlarni o`stirish, bilim, ko`nikma va malakalarni puhta o`zlashtirish

16. Darsning maqsadlarini aniqlang.

ta'limiy

tarbiyaviy

rivojlantiruvchi

*ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi

17. Pedagogik amaliyot dasturlari kim tomonidan tuziladi va uni kim tasdiqlaydi.

*dastur o`quv muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va rektor tasdiqlaydi

o`quv bo`limi tomonidan ishlab chiqiladi va dekanat tasdiqlaydi

o`quv muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va dekanat tasdiqlaydi

o`quv bo`limi tomonidan ishlab chiqiladi va rektor tasdiqlaydi

18. «Aqliy hujum» usuli nima.

qisqa fursat ichida ko`p g`oya to`planadi

muammoni hal qilishning eng qulay yo`llarini topish

berilgan savollarga qisqa javob berish

*qisqa fursat ichida ko`p g`oya to`planadimuammoni hal qilishning eng qulay yo`llarini topishberilgan savollarga qisqa javob berish

19. Davlat ta'lim standartlari ta'limning qanday turlari uchun belgilanadi.

umumiy o`rta ta`lim uchun

o`rta mahsus va kasb-hunar ta`limi uchun

oliy ta`lim uchun

*umumiy o`rta ta`lim uchun, o`rta mahsus va kasb-hunar ta`limi uchun, oliy ta`lim uchun

20. O`quv qo`llanma nima?

*o`quvchi talabalarga mo`ljallab yozilgan asar

o`qituvchilarga mo`ljallangan asar

turli yoshdagi kishilarga yozilgan asar

o`quvchilarga mo`ljallab yozilgan asar

21. Seminar mashg`uloti qaysi shaklda o`tkaziladi.

savol javab va reja asosida suhbat

ma`ruza bo`yicha fikr almashish va bahs-diskussiya

referatlar muhokamasi va rolli o`yinlar

*savol javob va reja asosida suhbat, ma`ruza bo`yicha fikr almashish va bahs-diskussiya, referatlar muhokamasi va rolli o`yinlar

22. Reyting nima?

baholash va klassifikatsiyalash

tartibga solish

bilimlarni nazorat qilish

*baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, shkala bo`yicha baholash

23. Suhbat ta`limning qaysi metodiga kiradi.

amaliy

*og`zaki

o`yin

munoza

24. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etishda hissa qo'shgan o'zbek olimini aniqlang.

*N.Sayidahmedov

I.Tursunov

R.Mavlonova

U.Nishonaliev

25. Ilmiylik printsiplari nima?

o'quv mazmuniga faqat asoslangan printsiplari

tajribada tasdiqlangan printsiplari

o'quv fani va fanning mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan printsiplari

*o'quv mazmuniga faqat asoslangan printsiplari, tajribada tasdiqlangan printsiplari, o'quv fani va fanning mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan printsiplari

26. Munozara nima?

*erkin fikr almashish va dalillar asosida isbotlay bilish

o'zaro muloqotga kirishish

savol-javob

so'zlab berish

27. Kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga mo'ljallangan adabiyot qanday ataladi.

o'quv qo'llanma

*elektron darslik
uslubiy qo'llanma
darslik

28. Malaka amaliyoti bu.....

*o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va
o'quv hosil qiluvchi qism.
kuzatish jarayoni
ta'limning shakli
ilmiy tadqiqot jarayoni

29. Fan bo'yicha barcha yutuqlarni aniqlash va baholash deyiladi.

oraliq nazorat
joriy nazorat
reyting tizimi
*yakuniy nazorat

30. Mustaqil ta'limning shakllarini aniqlang.

referat
kurs ishi
didaktik material tayyorlash
*referat, kurs ishi, didaktik material tayyorlash

31. To'garaklar ta'limning qaysi shakliga kiradi.

darsdan tashqari ishlar
mustaqil ishlar
o'quv jarayonidagi ishlar
*mustaqil ishlar, o'quv jarayonidagi ishlar

32. Muloqotli o`qitish turi bo`lib, o`qituvchi va talabani o`zaro hamkorligidir.

*interaktiv usul

fikrlash jangi usuli

muammoli usul

faollashtirish usuli

33. Pedagogika fanini o`qitish metodikasining asosiy maqsadi nima.

nazariya va tajribani sintez qilishdir

o`qitishning shakl va metodlarini o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatida ifoda etilishdir

bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlash

*nazariya va tajribani sintez qilishdir, o`qitishning shakl va metodlarini o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatida ifoda etilishdir, bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlash

34. O`quv yurtida o`rganiladigan o`quv predmetlarining tarkibi, ularning uquv yillari va haftalari bo`yicha taqsimlanishi qaysi hujjatda belgilanadi?

*o`quv rejasi

o`quv dasturi

darslik

o`quv qo`llanma

35. Ta`lim jarayonida kichik guruhlarda ishlash qanday natija beradi.

talabalarning darsda faolligini ta`minlaydi

boshqalar fikrini qadrlashga o`rgatadi

har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi

*talabalarining darsda faolligini ta'minlaydi boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi

36. «Standart» tushunchasi nimani anglatadi ?

*me'yor, namuna, o'lchov
anglash, idrok etish
tajriba to'plash
o'lchov birligi

37. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uquv rejalari, dasturlari kim tomonidan tasdiqlanadi ?

*oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi tomonidan
halq ta'limi vazirligi tomonidan
kasb-hunar kolleji direktori tomonidan
viloyat malaka oshirish instituti

38. Noan'anaviy dars turlarini aniqlang.

musobaqa-tanlov darsi
mujassamlashgan darslari
hamkorlik darslari
*musobaqa-tanlov darsi, mujassamlashgan darslari, hamkorlik darslari

39. Metodik qo'llanma nima?

o'qituvchilar, talabalarga mo'ljallab yozilgan asar
*o'qituvchilar, ilmiy hodimlarga mo'ljallab yozilgan asar
o'quvchi, talabalar uchun mo'ljallangan asar
turli yoshdagilar uchun mo'ljallangan asar

40. O`quv rejasi qanday talablarga javob beradi.

ilmiylik qoidasi

uquv material mazmunini to`g`ri anglash

nazariyaning amaliyot bilan birligi

*ilmiylik qoidasi, uquv material mazmunini to`g`ri anglash, nazariyaning amaliyot bilan birligi

41. Dasturning asosiy vazifasi.

o`quv predmetining mazmunini ifodalash

bilim olishga qiziqtirish

fanni mustaqil egallash

bilim olishga qiziqtirish, fanni mustaqil egallash

42. ... o`quv tarbiya jarayonida o`qituvchining uquvchilar bilan kasbiy muloqotidir.

muloqot

*pedagogik muloqot

o`zaro suhbat

savol-javob

43. Ta`limdagi muammolikning muhim hususiyati nima ?

muammoni echimini topish

*muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o`quvchilarni faollashtirish

o`quvchilarni faollashtirish

muammoni echimini topish

44. Ta`lim sifati nima bilan belgilanadi.

talabalar intizomi bilan

talabalar ijodkorligi bilan

talabalar faolligi bilan

*talabalar bilimi bilan

45. Uzlüksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillarining aniqlash.

ta'limning ustuvorligi, demakratlashuvi

insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi

milliy yo'naltirilganligi

*ta'limning ustuvorligi, demakratlashuvi, insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi, milliy, yo'naltirilganligi

46. Bir mavzu, bir masalani tekshirishga bag'ishlangan ilmiy asar

*Monografiya

Darslik

Lug'at

Metodik qo'llanma

47. Qaysi qatorda ilmiy daraja ko'rsatilgan

* Fan doktori

Professor

Dotsent

Aspirant

48. Ilmiy asar, maqola, doklad va shu kabilardagi asosiy g'oyalarning qisqacha va lo'nda ifodasi

Referat

Avtoreferat

*Tezis

Taqdimot

49. Kitob, maqola va shu kabilarning qisqacha mazmuni

*Annotatsiya

Tezis

Referat

Avtoreferat

50.....– bu fan va amaliyotning tadqiqot ob’ekti joylashgan sohasi bo’lib, amaliyotda u, masalan, matematika, biologiya, iqtisodiyotning u yoki boshqa ilmiy ixtisosligiga muvofiq bo’lishi mumkin.

*Tadqiqotning ob’ektlari sohasi

Tadqiqot ob’ekti

Tadqiqot predmeti

Tadqiqotning dolzarbligi

51.....– bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o’ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyati yo’naltirilgan narsa.

*Tadqiqot ob’ekti

Tadqiqotning ob’ektlari sohasi

Tadqiqot predmeti

Tadqiqotning dolzarbligi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Тохтаходжаева М.Х. умумий тахрири остида. Педагогика. Дарслик. – Т.: Ўзбекистан файласуфлари Миллий жамияти, 2010.
2. Ҳошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи. Дарслик. – А.Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси 2001.
3. Yo‘ldoshev O‘.J. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2017, 376 b.
4. Ҳошимов К., Очил С. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув қўлл. 2-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2010.
5. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika (darslik). – Т., “Fan va texnologiyalar”, 2007, 288 b.
6. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika Darslik. – Т.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 b.
7. Умарова М.Х. Теория и история педагогики. (Учебное пособие). - Т.:Чулпан, 2018.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-son Qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4623-sonli Qarori

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son Qarori

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish" bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi.

14. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т., 2008.

15. Калдибекова А.С. Умумий педагогика назарияси ва амалиётидан лаборатория машғулоти. – Т., 2013.

16. Ниёзов Ф., Ахмедова М.Э. Педагогика тарихидан семинар машғулоти. - Т.: Ношир, 2011.

17. Ахмедова М.Э. Педагогика назарияси ва тарихи (Ўқув қўлланма) – Т.: Тафаккур бўстони, 2011.

18. Исмоилова З. Педагогикадан амалий машғулоти. – Т., 2001.

19. Сластенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика (Учебное пособие). – М., 2003.

20. Подласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. (Учебное пособие). - М., 2003.


Izoh: qo'shimcha adabiyotlar boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjud.

Axborot manbalari:


1. www.tdpu.uz

2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTERNET.ped
6. www.nutq.intal.uz

TARQATMA MATERIALLAR



Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar




Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

- Ta'lim vositalari



“Modulli-kredit tizimi” tushunchasi tavsifi	Kredit texnologiya si bo'yicha tinglovchilar bilimni baholash metodikasi	“Modulli-kredit tizimi”ning xususiyatlari	“Modulli-kredit tizimi”ning tamoyillari

